O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

"O'ZBEKISTONDA XORIJIY TILLAR" ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

ADIGEY DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ROSSIYA FEDERATSIYASINING JANUBIY FEDERAL UNIVERSITETI

"KOMPYUTER LINGVISTIKASI: MUAMMO VA YECHIMLAR"

Xalqaro ilmiy–amaliy onlayn konferensiya

"КОМПЬЮТЕРНАЯ ЛИНГВИСТИКА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ"

Международная научно-практическая онлайн конференция

"COMPUTATIONAL LINGUISTICS: CHALLENGES AND SOLUTIONS"

International scientific and practical online conference

16.05.2022

TASHKENT, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
INGLIZ TILI 2-FAKULTETI
ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar (Компьютерная лингвистика: проблемы и решения, Computational linguistics and solutions) mavzusidagi xalqaro an’anaviy onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent, 16-may, 2022-y.

Mas’ul muharrir: Zamonaviy axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri, katta o‘qituvchi Sobirjonov R.

Tahrir hay’ati: professor Ayupov R.H., katta o‘qituvchi Umarova N. R.

Ushbu to‘plamda e’lon qilingan ilmiy maqola va tezislar mazmuni uchun O‘zDJTUning Zamonaviy axborot texnologiyalari kafedrasi mas’ul.

Toshkent – 2022

DOI: 10.36078/1653410391

MUNDARIJA

Абдурахмонова Н., Абдурахимов С. Использование корпусной технологии для извлечения медицинских терминов	6
Abduraxmonova N., Tuliyev U., Abduvahobov G‘. O‘zbek tili korpus lingvistikasining nazariy va amaliy masalalari	11
Ablizova G.A. Nutq va ovozli matn kiritish uchun eng yaxshi servis xizmatlar-ilovalar	16
Alimova M.A. Online ta’limning afzallik va kamchiliklari	21
Axrarov B.S. Kompyuter dasturlari yordamida mashinali tarjimaning afzalliklari va kamchiliklarining qiyosiy tahlili	25
Ayupov R.H., Yangiboyeva Sh.A. Til ta’limida wiki-texnologiyalardan foydalanish usul va vositalari	30
Акбарова Д.А. Аудирование как вид коммуникативной деятельности	34
Анварбекова Х.Н., Рузибаев А.Ж. "BIG DATA" vizualizatsiya tasvir usullari	37
Aripova G.I. Mashina tarjima tizimlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari	41
Aliqulova D.E., Bekmuhammedova N. Ta’lim sohasiga oid tezauruslar yaratishning istiqbollari	45
Ахунова Д.У. Nutq sintezatorlari	53
Домбаян А.И. Проблема экологизации цифрового образования в школе (на материале публицистических статей и комментариев)	55
Boboqulov A. R. Buyumlar Interneti (internet of things)	61
Ergashev O.M., G‘anijonov S.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida avtomatlashtirilgan tizimlarni asosiy tashkil etuvchilari	66
Эшпулатов Ж.Н., Илхомжонова Р. Применение ИКТ на уроках физической культуры	72
Эшпўлатова Ҳ.М., Сеилхонова С.Б. Компьютер лингвистикасини ривожлантириш давр талаби	75
Гальченко Д.А. Позиционирование бренда территории посредством текста: цифровой анализ	77
Горохова Л.А., Долуденко Е.А. Сопоставительный частотный анализ текстов выступлений президентов США с помощью инструмента текстового анализа antconc	84
Гулбаев Н.А., Амирова М.Ў. Таълим жараёнида масофавий таълим муаммолари ва ечимлари	93
Гулбаев Н.А., Эшпўлатова Ҳ.М., Исақулова Н. Ахборот технологиялари ва табиий тилларни бир-бирига яқинлаштириш масалалари	98

DOI: 10.36078/1653410391

Hakimov M.X., Omonov A.A., Yulbarsov O.O. Ingliz tilidagi matnlarni intellektual tahlil qilish usuli 101
Исраилова Х.М., Хошимов Х.М., Иномов Ш.И. Иқтисодий таълим беришда замонавий инновацион технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти 106
Jomurodov D.M., Tojiyev A.H. Kutubxona axborot tizimida statistik ma'lumotlar olish va tahlil qilish 109
Jomurodov D.M., Tojiyev A.H. To'ldirilgan reallik tizimlarida vizual vositalarni yaratish va ulardan foydalanish 113
Jomurodov D.M., Musurmanov Y.X. Elektron ta'lim resurslarini yaratishda to'ldirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish 119
Kayumov O.A. Interaktiv intellektual elektron ta'lim resursini yaratishda sun'iy intellektning qo'llanilishi 125
Косолапова Н.А. Social mining как инструмент оценки уровня цифровизации органов государственного управления 129
Kuvonov Z.M. Nemis tilidagi frazeologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi asosiy muammolar 135
Matxoliqova N.S. Die phraseologische synonymie im deutschen und ihre darstellungsweisen in den digitalen wörterbüchern 138
Маслюкова Е.В. Вклад нарративной экономики в понимание закономерностей российской инновационной системы 143
Мукимов А.Ш., Абдуллаева Ю.А., Абдурахмонова Ш.Д. Автоматизированный поиск однокоренных слов в среде visual studio C# 146
Muxammadiev F.G., Karimov N.B. O'zbek tilidagi gaplarning matematik modellari asosida intellektual sintez qiluvchi lingvistik protsessorini yaratish 150
Мухамадиева К.Б. Определение части речи слова с использованием машинного обучения на основе НЛП обучающий подход 153
Милькевич Е.С., Северина Е.М. Использование данных корпусов текстов для обучения магистрантов методам когнитивного анализа 160
Nazirova E.Sh. Yangi avlod o'quv lug'atlarining mobil ilovasini yaratish 165
Nurmatova G.K. Linguistic signals and statistical measures for extraction of terms and terminological collocations in a domain-specific corpus 167
Павлюкова Е.В. Особенности текстового контента сайтов цифрового литературного музея-заповедника 176
Писковатскова С.А. Компаративный анализ ядерной структуры концепта «Covid-19» русскоговорящих и англоговорящих адресантов (на материале текстов сми) 181
Полоян А.В. Онлайн-переводчики в обучении иностранному языку (на материале узбекских пословиц и поговорок) 187

 DOI: 10.36078/1653410391

Qodirova Z.G., Xudayberganova M.S. O‘zbek tili elektron korpusi asosida elektron tezaurus lug‘at yaratish masalalari (“ta’lim iyerarxiyasi” misolida) 191
Raimova A.O. Ways of forming slangisms in english vocabulary 195
Ruzmetova S.T. The role of interactive white board in teaching foreign language 202
Salibayeva R.B. Funksiya limiti haqida ba’zi bir mulohazalar 205
Sobirova N.G‘. Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi 209
Soliyeva Z.Z., Ablizova G.A. The usage of wordwall sources in the process of teaching english language 218
Tuxtashev A.Sh. Can mt really remove the language barrier? MT systems and speech technology 222
Tuychiyev S. A. Fransuz tilini o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish 224
Tuychiyev S. A., Ismailova S. Sh. Chet tillarni o‘qitish metodikasida lingvistik korpus 228
Urazaliyeva M.Ya. Study of corpus linguistics abroad and research uzbekcorpus.uz in the uzbek language 244
Umarova N.R., Umarova N.A. Lingvistika va matematik mantiq fanlari orasidagi aloqadorlikning ba’zi bir ko‘rinishlari. 249
Xidirov B.B. Masofaviy ta’limning samarasini oshirish uchun ayni vaqt rejimida “online doska” platformalaridan unumli foydalanish 257
Yakhyopulatova N.B. The system of mashine language translation and the speech technology 266
Землякова А.И. Специфика использования онтологии в техническом переводе 169
G‘anijonov S.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida avtomatlashtirilgan axborotlar tizimining tashkil qilinishi 127
Shamsiyeva G.A. Parallel korpus mashina tarjimasining lingvistik resursi sifatida 275
Sharipova Z.Sh. FST (finite state trunsducer) – chekli avtomat transyuteri vositasida korpusni lemmatizatsiya va tokenizatsiya jarayonlarining lingvistik tahlili 279
Shovaliyev B.H., Salaydinova M.M. Matlab dasturining grafik imkoniyatlaridan foydalanish 282
Щербак А.С. Цифровой анализ авторского стиля А. П. Чехова (на материале писем) 285
Eshpulatov J.N., Ibroximova I.M. consume of information and communication technologies in the physical development of children in preschool education 292
Д. У. Жабборзода Информационная безопасность и облачные технологии 296

 DOI: 10.36078/1653410391

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОРПУСНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ИЗВЛЕЧЕНИЯ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ

Нилуфар АБДУРАХМОНОВА
доктор филологических наук, и. о. профессора
Национальный университет Узбекистана
abdurahmonova.1987@mail.ru

Султан АБДУРАХИМОВ
Студент
Адыгейский государственный университет
abdurahimov200119@mail.ru

Annotatsiya. Bu maqolada korpus texnologiyasi yordamida meditsina sohasiga doir terminologik ma'lumotlar bazasini shakllashtirish va kompyuter lingivistikasida yaratilgan bazadan foydalanishning kontseptologik tamoyillari tahlilga tortilgan. Shuningdek, o'zbek tili elektron korpusi (https://uzbekcorpus.uz/)da sohaviy matnlar bazasi yaratilganligi va ushbu korpus yordamida avtomatik tarjima, avtomatik tahrir va NLP uchun lingvistik resurs bo'lib hizmat qilishi qayd etilgan.

Kalit so'zlar*:* terminologiya, terminlarni saralash, o'zbek tilining electron korpusi.

Аннотация. В статье анализируются концептуальные принципы формирования терминологической базы данных в области медицины с помошью корпусных технологий и с использованием базы данных, созданной в компьютерной лингвистике. Также отмечено, что электронный корпус узбекского языка (https://uzbekcorpus.uz/) имеет базу данных научных текстов, которая может использоваться как автоматический перевод, автоматическое редактирование и как лингвистический ресурс для NLP.

Ключевые слова: терминология, извлечение терминов, корпус, узбекский электронный корпус.

Автоматическое построение онтологий для специфических предметных областей или, по крайней мере, построение списка терминов и гипотез о возможных отношениях между ними для последующей ручной обработки является важной и актуальной задачей современной компьютерной лингвистики [1]. Согласно мнению ученых, «в настоящее время не существует какого-либо общепринятого метода построения онтологий». С помощью корпусной технологии возможно иметь базу

 DOI: 10.36078/1653410391

знаний по ключевым словам при обработке больших объемов данных и их семантическом анализе. «В результате анализа на базе корпуса выделены единицы, семантически близкие термину «разработка», а также отраслевые и общенаучные термины, ключевые для исследуемой предметной области» [2].

В компьютерной лингвистике внедрение автоматизации терминологических баз с помощью корпусных технологий дает положительные результаты в области науки. Это имеет практическое значение для переводоведения, машинного перевода, терминологии и других областей компьютерной лингвистики. Наше исследование, посвященное анализу медицинской терминологии и ее функционированию в научных текстах, представляет особую важность для лингвистов и программистов. Для того чтобы извлечь ключевую терминологию мы использовали описывающую предметную область разработки медицинских текстов на базе корпуса специальных текстов; в работе были использованы данные по направлениям: эндокринология, гематология и трансфузиология, биохимия (медицинские науки), патологическая анатомия, стоматология, аллергология и иммунология, фармакология и клиническая фармакология, дерматология и венерология, медицинская психология, теория и методика обучения (медицина) (педагогические науки), клиническая лабораторная и функциональная диагностика, здравоохранение, менеджмент здравоохранения, хирургия, неврология, педиатрия, внутренние болезни, акушерство и гинекология, офтальмология, детская хирургия, акушерство и гинекология, клиническая лаборатория и функциональная диагностика, фармацевтическая химия, фармакогнозия, эпидемиология, хирургия, судебная медицина и кардиология. В базу данных https://uzbekcorpus.uz/ загружено 50 рефератов из области медицины, всего получено 200 000 тысяч токенов (рис.1.) Электронный корпус узбекского языка состоит в основном из специальных корпусов, с помощью этих субкорпусов создаются лингвистические ресурсы, являющиеся объектом NLP и компьютерной лингвистики. Это, согласно В. П. Захарову, «большой, представленный в машиночитаемом виде, унифицированный, структурированный, размеченный, филологически компетентный массив языковых данных, предназначенный для решения конкретных лингвистических задач» [3].

DOI: 10.36078/1653410391



Рисунок 1.

Субкорпус научного стиля узбекского языка состоит из научных, учебных и технических текстов. И учитываются все жанры, относящиеся к этому стилю (Диаграмма 2).



Диаграмма 2.

При анализе статистики корпусной лексики в области медицины мы провели статистический анализ терминов, которые могут быть только ключевыми словами, за исключением вспомогательных словосочетаний, встречающихся в тексте (*частота самых часто употребляемых медицинских терминов, которые присутствуют в выбранных текстах в нашем исследовании, диаграмма 2*). В целях выявления обшей частоты в нашем исследовании мы разделили общие термины от простых слов, а те уже в свою очередь от тех, которые не имели смысла в одиночном употреблении, такие как *“ва”, “ёки”*.

DOI: 10.36078/1653410391



Диаграмма 3.

В результате была проанализирована статистическая таблица ключевых слов на основе KWIC с помощью n-граммного согласованного поискового менеджера электронного корпуса узбекского языка (Таблица 1).

Таблица 1.

тиббий ёрдам	127	тиббий психология	3	тиббий ташхис	2
тиббий таълим	105	тиббий статистик	3	тиббий ташхислашни	1
тиббий психология	39	тиббий даволаш	2	тиббий ташхисотидаги	1
тиббий хизмат	44	тиббий диагностика	2	тиббий таълимга	1
тиббий стандартлаштириш	21	тиббий маркази	2	тиббий ускунасида	1
тиббий санитария	18	тиббий муаммо	2	тиббий фаолиятни	2
тиббий экспертиза	24	тиббий паразитология	2	тиббий ходимлар	1
тиббий буюмлар	12	тиббий психологлар	2	тиббий хужатлари	1
тиббий тизимни	12	тиббий стандартизация	2	тиббий этика	1
тиббий профилактика	10	тиббий ташҳислаш	2	тиббий мосламасидан	1
тиббий кўрикдан	9	тиббий текширувлар	2	тиббий муассасалар	1
тиббий реабилитация	8	тиббий хизматни	2	тиббий назарий	1
тиббий техника	11	тиббий ҳужжатлар	2	тиббий норматив	1
тиббий педагогика	6	тиббий амалиётга	1	тиббий стандартлардан	1
тиббий биологик	5	тиббий ахлоқнинг	1	тиббий суғурта	1
тиббий гистологик	4	тиббий баённомасидан	1	тиббий тактикани	1

DOI: 10.36078/1653410391

тиббий баҳолаш	3	тиббий баҳолашнинг	1	тиббий ташкилотлар	1
тиббий билим	3	тиббий ветеринария	1	тиббий маълумотлари	1
тиббий озонли	1	тиббий жамоа	1	тиббий мезонларни	1
тиббий педагогика	4	тиббий жарроҳлик	1	тиббий рўйхатга	1
тиббий профессионал	1	тиббий жихозлардан	1	тиббий саводхонлик	1
тиббий психолог	2	тиббий ижтимой	1	тиббий манипуляция	1
тиббий психологияда	1	тиббий карталари	2		



Диаграмма 3.

В заключение следует отметить, что корпусная технология служит важным лингвистическим инструментом для обогащения терминологических баз данных и определения их структуры. В наших будущих исследованиях одной из наиболее перспективных целей является создание терминологической онтологии и тезауруса узбекского языка в электронном корпусе путем компиляции текстов по всем направлениям.

Список использованной литературы

1. Гельбух А. Ф., Сидоров Г. О., Лавин-Вийа Э. Автоматический поиск и классификация однословных терминов в корпусе предметной области с использованием логарифмической меры сходства с неспециализированным корпусом / Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии по материалам ежегодной Международной конференции «Диалог» (2010), Выпуск 9 (16). – С. 82.

2. Ковязин М. А. Извлечение ключевых терминов на базе корпуса текстов о разработке Нефтяных и газовых месторождений // Вестник Тюменского

DOI: 10.36078/1653410391

государственного университета. Гуманитарные исследования. Humanitates. 2016. Том 2. № 3. С. 61-69
3. Захаров В. П. Корпусная лингвистика / В. П. Захаров, С. Ю. Богданова. Иркутск: ИГЛУ, 2011. 7с.
4. Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya). Globeedit, 2021. 200 b.
5. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi (darslik). Toshkent: Nodirabegim, 2021. 400 b.

O‘ZBEK TILI KORPUS LINGVISTIKASINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Nilufar ABDURAXMONOVA
v.b.professor
filologiya fanlari doktori (DSc)
O‘zbekiston milliy universitet

Ulug‘bek TULIYEV
o‘qituvchi
O‘zbekiston milliy universiteti
G‘iyosiddin ABDUVAHOBOV
o‘qituvchi
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili korpus lingvistikasining nazariy va amaliy masalalari tahilga tortilgan. O‘zbek tili elektron korpusining funksional imkoniyatlari haqida ma’lumot berilgan. Korpusning lingvistik va dasturiy ta’minotini yaratish bo‘yicha o‘rganilgan tajribalar va umumiy konseptologik arxitekturasiga doir fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tilining elektron korpusi, dasturiy ta’minot, kompyuter lingvistikasi, korpus

Annotation. This article analyzes the theoretical and applied issues of corpus linguistics of the Uzbek language. Information is provided on the functional capabilities of the Uzbek language electronic corpus. It is discussed that experiences in building the linguistic and software development of the corpus and ideas for the overall conceptual architecture of the corpus.

 DOI: 10.36078/1653410391

Keywords: Uzbek electronic corpus, software, computational linguistics, corpus

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и прикладные вопросы корпусной лингвистики узбекского языка. Приведена информация о функциональных возможностях электронного корпуса узбекского языка. Обсуждается опыт построения лингвистической и программной разработки корпуса и идеи общей концептуальной архитектуры электронного корпуса.

Ключевые слова: электронный корпус узбекского языка, программное обеспечение, компьютерная лингвистика, корпус

Dunyo tajribasida korpus yaratishning lingvistik, matematik va dasturiy tomonlari olimlar tomonidan tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan. Chunonchi, rus va ingliz tillari bo‘yicha korpus lingvistikasi turli sohalar kesimida V.Zaxarov, A.Sedov, A.Baranov, R.Potapova, V.Rikov, U.Frensis, N.Leontyeva, V.Martin, S.Kubler, A.Laurens, E.Etwell, S.Hunston, L.Boizou, McKenneri, J.Grafmiller, J.Grieve, N.Grum, S. Hansson, K.McAulif, M.Malberg, P.Milin, A.Murakami, R.Peych, A.Shembri, P.Tompson, B.Vinter, G.Lich kabi xorijiy olimlar tomonidan hamda Turkologiyada korpusshunoslik (korpus lingvistikasi) sohasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Turk tili korpusi bo‘yicha Aksan, Deniz Zeyrek, Kemal Oflazer, Umut Özge Bular; uyg‘ur tili bo‘yicha Yusup Aibaidulla, Kim-Teng Lua; boshqird tili bo‘yicha L.A.Buskunbaeva, Z.Sirazitdinov; hakas tili bo‘yicha Sheymovich, tatar tili bo‘yicha J.Suleymanov, A.Gatiatullin, O.Nevzorova, R.Gilmullin, B.Hakimov; qirimtatar tili bo‘yicha L.Kubedinova hamda tuva tili bo‘yicha Salchak kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovor.

Korpus lingvistikasida erishilgan natijalar kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash sohalari uchun ham til texnologiyasi borasida tub burilishlar yasadi. Bunda tabiiy tilning mashina tilini yaratish, til bo‘yicha statistik ma’lumotga ega bo‘lish, sun’iy intellektning til va nutq modellarini shakllantirish, mashina fondini yaratish kabi qator amaliy ishlar uchun tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tili korpus lingvistikasida ta’limiy va web korpuslari yaratildi. O‘zbekistonda ushbu sohada B.Mengliyev, S.Karimov, L.Raupova, G.Toirova, Sh.Hamroyeva, Sh.Gulyamova, O‘.Xolyorov, A.Eshmo‘minov, O.Abdullayeva, A.Axmedova, N.Abduraxmonova kabi filolog olimlarning ishlarini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Korpus texnologiyasi tilni yanada chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi. Bizning tadqiqotimiz natijasida kompyuter lingvistikasi, amaliy tilshunoslik, pedagogika, tarjima nazariyasi va amaliyoti, o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunoslik kabi qator sohalar uchun o‘rganish obyekti bo‘lishga xizmat qiluvchi o‘zbek tilining elektron korpusi yaratildi.

 DOI: 10.36078/1653410391

O‘zbek tili elektron korpusini konseptologik va strukturaviy loyihalashda xorijiy tajriba amaliyoti o‘rganildi, tilning lingvistik korpusini yaratishda morfologik va sintaktik teglash va tahlil qilishning FST va UdPipe kabi avtomatik usullari o‘zbek tiliga tatbiq qilish orqali lingvistik tuzilib, tilning lisoniy modellari mashina tiliga o‘tkazildi, matn fragmentining reprezentativligi va qidiriv birliklari (lemma va token)ni tahlil qilish uchun matn korpusining lingvistik va dasturiy ta’minoti yaratildi, o‘zbek tili uchun korpus yaratish texnologiyalari va metodlarini lingvistik uskunalar yordamida amalga oshirish orqali ilg‘or tajribalar ishlanmamizga joriy etildi, korpus menejerining formal-funksional modellari asosida korpus interfeysi shakllantirildi. Natijada olib borilgan tadqiqotlarning amaliy ifodasi sifatida http://uzbekcorpus.uz da o‘zbek tili korpus menejeri (qidiruv tizimi)ning lemma, token, so‘z birikmasi bo‘yicha hamda *n-gram* modeli asosida konkordanslarning qidiruv tizimi yaratildi.

O‘zbek tilining elektron korpusi quyidagi bloklardan tuzilgan: IZLASH-> qidiruv interfeysi (bu yerda umumiy 150 mln. tokenli matn ichidan lemma, token, so‘z birikmasi va n-gram modeli bo‘yicha qidiriladi).

Lingvistik resurs bo‘limida 120 ming ingliz tilidagi fe’lli frazemalarning o‘zbekcha tarjimasi, ikki tilli tarjima lug‘atlar, terminologik ma’lumotlar bazasi (12 sohaga tegishli), sinonim, omonim, paronim, antonim, ibora, etimologik lug‘at kabi elektron lug‘atlardan tarkib topgan.

Tezaurus bo‘limida keng qamrovli konseplarning semantik munosabatlarga asoslangan (iyerarhik, ekvivalent, ekvivalent), shuningdek til birliklari maqol va iboralarni ham o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasi “oila ma’naviyati” konsepti misolida yaratilgan. Endilikda o‘zbek tilidagi qator konseptlari bo‘yicha tadqiqoqtlar olib borilmoqda.

Korpusning lingvistik protsessori qismida morfologik analizator va lingvistik analizator bo‘lib, so‘zlarni stemlarga ajratish, ularni morfologik teglash, atributlarni aniqlashga xizmat qiladi.

DOI: 10.36078/1653410391



Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tavsiya qilingan va ishlab chiqilgan tizimlashtirilgan matn tuzilmalari reprezentativligi hamda matnning turli lingvistik bosqichlarda tahlil qilish bo‘yicha kiritilgan takliflar kelgusida o‘zbekcha matnlarni qayta ishlash texnologiyasi, parallel matnlar korpusi, tor soha vakillari uchun o‘rganish obyekti til va nutq hodisalariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishda yordam beradi.

So‘zlarni morfologik jihatdan so‘z turkumlariga ajratishda quyidagi statistik natijalarga erishildi.



DOI: 10.36078/1653410391

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, XXI asrning global muammolaridan biri sifatida tabiiy tillarning milliy xususiyatini saqlab qolishda dunyo tillarining elektron korpuslarini yaratish va rivojlantirishda NLP hamda til texnologiyalariga doir tadqiqotlarni izchil ravishda olib borish dolzarb hisoblanadi. Bunda tabiiy tildan foydalanishning eng maqbul shakli korpusning raqamli (elektron) ko‘rinish bo‘lib, mashina (kompyuter)da qayta ishlash, tahlil qilishning oson, qulay va tezkor usuli sifatida korpusnng universal, standart formatda berish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari: filol. fan. dok. (DSc)…diss. – Toshkent, 2021. – 220 b.
2. Sandra Kubler, Heike Zinsmeister Corpus linguistics and linguistically annotated corpora New York: Bloomsbury, 2015. - P.321.
3. Wynne, Martin (ed.) (2005), Developing Linguistic Corpora: A Guide to Good Practice, OxfordBooks. http://www.ahds.ac.uk/creating/guides/linguistic-corpora/;
4. Zinsmeister, Heike, Erhard Hinrichs, Sandra Kübler and Andreas Witt (2009), “Linguistically annotated corpora: Quality assurance, reusability and sustainability,” in A. Lüdeling and M. Kytö (eds), Corpus Linguistics: An International Handbook, Vol. 1, Berlin: Mouton de Gruyter, pp. 759–76.;
5. Копотев М. Введение в корпусную лингвистику (учебное пособие) Прага, 2014. 264 с..
6. Atkins B., Zampolli A. Computational approach to the lexicon Oxford, 1994, 494 p.
7. N. Abdurakhmonova, U. Tuliyev and A. Gatiatullin, "Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus.uz," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670043.
8. Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., Razakhova B.: Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In: Abstract of the VI International Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology - Al-Khorezmiy 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018)
9. Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref." (2018).

DOI: 10.36078/1653410391

10. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016; 2 (38):12-7.
11. Abdurakhmonova N, Tuliyev U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68.
12. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL). 2019;6(1-2019):131-7.
13. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.

NUTQ VA OVOZLI MATN KIRITISH UCHUN ENG YAXSHI SERVIS XIZMATLAR- ILOVALAR

G.A. ABLIZOVA
Katta o‘qituvchi
Zamonaviy axborot texnologiyalari kafedrasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada foydalanuvchiga yordam beradigan ovozli kiritish servis xizmatlari to‘plami keltirilgan. Ovoz bilan yozish - bu nutq orqali matn parchasini chop etish demakdir. Onlayn va kompyuterda ovozli kiritish servis xizmatlari (dastur-ilovalar)ning turlari, ishlash printsiplari, avzal va kamchik tomonlari haqida qisqacha ma'lumot va ko‘rsatmalar berilgandir. Asosan ovozli matn kiritish(“Speech-to-Text”) turli xil vazifalarni hal qilish uchun foydali vosita – “SpeechPad” kompyuter va mobil qurilmalar uchun versiyalari mavjud bo‘lgan platformalararo dasturiy ta'minot haqida to‘liqroq ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: diktafon, mikrofon, ovozli matn, ovozli bilan yozish, SpeechPad, Speech-to-Text, speechpad.ru, Web, Android va iOS, Windows, Linux va MacOS, "Ovozli bloknot", audio, VoiceNote, August4u, TalkTyper, Google Docs, Voco, Mspeech, HTML5.

Аннотация. В статье представлен набор сервисов голосового ввода, которые могут помочь пользователю. Запись голоса – написание вслух текста означает

 DOI: 10.36078/1653410391

воспроизведение фрагмента текста посредством речи. Приведена краткая информация и инструкция о видах, принципах работы, преимуществах и недостатках онлайн и компьютерных сервисов голосового ввода (программ-приложений). Более подробно предоставлена информация о “SpeechPad”– кроссплатформенном программном обеспечении, доступном для ПК и мобильных устройств.

Agar siz doimo matn bilan o‘zaro aloqada bo‘lsangiz: g'oyalar va vazifalarni yozish, tushuncha(kontsepsiya)larni tavsiflash, maqolalar yozish, muhim fikr yoki vazifani unutmaslik uchun matnni nutq orqali yozish bilan osonroq va tezroq hal qilish mumkin. Yozuv moslamasi (diktafon) bunga javob berolmaydi, sababi keyin yozuvni shifrlash va matnga tarjima qilish zaruriyati tug’iladi.

Ovozli matn kiritish bu muammoni hal qilishga yordam beradi, ya’ni siz buyurasiz – dastur (ilova) nutqni darhol matnga aylantiradi (tarjima qiladi), uni oddiy eslatma sifatida saqlash va u bilan xotirjam ishlashini davom ettirish mumkin.

Internetda yozish bilan bog'liq bo‘lmagan ishning o‘zi yo‘qdir. Kopirayterlar, dasturchilar, marketologlar, web-ustalar, mijoz maqomidagi va boshqa ko‘plab mutaxassisliklar barmoqlarini klaviaturaga uris (belgilarni terish) orqali matn formada bayon qilish(matn chop etish)ga to‘g’ri keladi. Aksariyat mutaxassislar chop etish zaruratini yoqtirmaydilar.

Tinish belgilarini avtomatik ravishda taniydigan va shu bilan ishni sezilarli darajada soddalashtiradigan xizmatlar ham mavjud. Biroq, ushbu xizmatlarning aksariyati tinish belgilari to‘plamiga qaratilmagan, shuning uchun matn yozish jarayonida nuqta va vergullarni belgilash kerak bo‘ladi.

Internetda onlayn ishlaydigan servis xizmatlar va kompyuterga o‘rnatiladigan ko‘pligan dastur- ilovalar mavjuddir. Ular haqida qisqacha ma’lumot quyida keltirildi.

Ovozli matn kiritish uchun eng yaxshi onlayn xizmatlar

Speechpad [1]

[1] https://iklife.ru/internet-professii/kopirajter/golosovoj-nabor-teksta.html

DOI: 10.36078/1653410391

Bu Google Chrome-ning bepul ishlanmasi bo‘lib, shunga mos ravishda faqat ushbu brauzerda ishlaydi. Albatda ushbu brauzer bilan hech qanday muammo bo‘lmaydi, chunki bu eng yaxshi brauzer hisoblanadi. Notepad-Bloknot to‘g'ridan-to‘g'ri brauzerga o‘rnatilishi mumkin yoki ularning web-saytiga o‘tish orqali ovozli yozishdan foydalanish mumkin.

Ovozli matn kiritish yoki **“Speech-to-Text”** turli xil vazifalarni hal qilish uchun foydali vositadir. Misol uchun, axborot texnologiyalari sohasidagi ish doimiy ravishda matnli ma'lumotlar bilan o‘zaro aloqani o‘z ichiga oladi. Shu bois aksariyat hollarda marketolog yoki dasturchi xayoliga kelgan g‘oya yoki kontseptsiyani aytishi va uni darhol matnli tasvirga aylantirishi tezroq hal bo‘ladi.

“Speech-to-Text” funksiyasiga ega servis xizmatlar va mobil ilovalar ovozli fayllar yoki mikrofondan kiritilgan nutqni darhol matnga aylantiradi - konvertatsiya qiladi, shundan so‘ng natijani tezda shaxsiy kompyuterga saqlanishi yoki ijtimoiy tarmoqlarda baham ko‘rilishi mumkin.



Ovozni aniqlash sifatini yaxshilash uchun bir qator qoidalarga amal qilinishi shartdir:

- Bunday servis xizmatlardan foydalanilganda matnni o‘rtacha tezlikda va tartibli ravishda, so‘z va iboralarni aniq talaffuz qilish muhim hisoblanadi. Bu hatto o‘rtacha mikrofon bilan ham konvertatsiya samaradorligini oshirishga yordam beradi.
- Foydalanuvchiga tashqi shovqinni bekor qiluvchi mikrofon yoki premium eshitish vositasidan foydalanish tavsiya etiladi. Noutbuk yoki shaxsiy kompyuterda o‘rnatilgan mikrofon modellari bilan ishlaganda, ovozni (audioni) yaxshiroq aniqlash uchun aksessuardan uzoqlashmaslik tavsiya etiladi.

DOI: 10.36078/1653410391

- Mikrofon yordamida matnni yozishda sekin va alohida talaffuz qilgan holda tashqi shovqinning minimal darajasida bajarish va baland ovozli musiqa yoqmaslik tavsiya etiladi.
- **SpeechPad**
    - Dastur site: **speechpad.ru**
    - Narxi: bepul
    - Platforma: Web, Android va iOS, Windows, Linux va MacOS

SpeechPad – kompyuter va mobil qurilmalar uchun versiyalari mavjud bo‘lgan platformalararo dasturiy ta'minot (o‘zaro faoliyatli platforma) hisoblanadi. Servis xizmatning asosiy maqsadi – audio xabarlarni (nutqni) matnga aylantirish, uchinchi tomon raqamli mahsulotlarida ovozni aniqlashni faollashtirishdir. Ishlab chiquvchilar o‘z mahsulotlarini "Ovozli bloknot (Блокнот для речевого ввода)" deb atashadi.

Servis xizmat *opsiyalari* to‘plami *foydalanish muhitiga* bog'liq bo‘lib, *mobil qurilmalar uchun dasturiy ta'minot* nashri standart bloknot vazifasini bajaradi, rasmiy speechpad.ru portali Google Chrome uchun *plagin* bilan birgalikda ovozli xabarlarni matn shakliga tezda konvertatsiya qilish imkonini beradi.

Portalda **bo‘limlar** mavjud bo‘lib, ularning asosiylari ovozli bloknot, subtitrlarni dublyaj qilish, xorijiy tillarda talaffuzni tekshirish va audio yozuvlardan subtitrlarni olishdir. Xizmatda o‘n besh tilda ishlash imkoniyati mavjud bo‘lib, Youtube videolaridan, HTML5 audio va video formatlaridan audio matnlarni transkripsiya qilishingiz ham mumkin.

Rasmiy Web-saytda **SpeechPad** bilan ishlashda, foydalanuvchi matnni saqlash joyi (buferda yoki faylda), matnni tanib olish (aniqlash) sifati yoki **Google** bilan ishlashda bosh harflarni boshqarish kabi bir qator variantlarni sozlashi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar uchun nutqni kiritishda *bloknot interfeysini sozlash*, *qayta ishlangan matnlar ro‘yxatini yaratish* va boshqa qo‘shimcha funktsiyalar mavjuddir.

Afzalliklari:

- dastur juda oddiy bo‘lib, ixtiyoriy foydalanuvchi u bilan ishlashni o‘rganishi mumkin;
- ovoz bilan yozgan matndan nafaqat brauzerda, balki istalgan boshqa muhitda ham foydalanish mumkin;
- dastur turli sabablarga ko‘ra chop eta olmaydigan foydalanuvchilarga katta afzallik beradi.

Kamchiliklari:

- mikrofon sifatini tanlash zaruriyati;
- nostandart so‘zlar va atamalarni noto‘g'ri qabul qilishi;

DOI: 10.36078/1653410391

- tayyor matnni juda tez-tez qo‘lda tahrirlash kerak, bu esa band qo‘llar bilan ishlashda noqulaylik keltiradi.

VoiceNote

Speechpad servis xizmatga o‘xshab, faqat Google Chrome brauzerida ham ishlaydi. Undan foydalanish juda sodda bo‘lib, kerakli tilni tanlash va dastur-ilova orqali diktant ostida chop etashi mumkin.

August4u

Matnni tez ovozli kiritish uchun yana bir Internet servis xizmati bo‘lib, aniq - tushunarli interfeys va foydalanish uchun bepul hisoblanadi. Ushbu xizmatning arsenali rus, ukrain, ingliz, nemis, frantsuz va italyan tillaridir.

TalkTyper

Ushbu bepul xizmatning afzalliklari ovozli ko‘rsatmalarning mavjudligi, tanib olish-aniqlash imkoniyatlarini ko‘rish mumkinligidir. Qabul qilingan materialni nusxalash, printerda chop etish, chet tillariga tarjima qilish yoki pochta orqali yuborishingiz mumkin bo‘lgan qulay muharriri ham mavjud.

Google Docs (Google Документы)

Klaviatura tugmalarini chertmagan holda yozishdan foydalanish uchun “Asboblar”(“Инструменты”) yorlig‘ini (Vkladkasini) ochib, “Ovozli kiritish…”(“Голосовой ввод…”) tugmasini bosish kerak bo‘ladi.

Tahrirlash va formatlash uchun turli xil buyruqlar hozirda faqat ingliz tilida mavjud, ammo rus tilida tinish belgilari qo‘llab-quvvatlanadi:

- "nuqta" (“точка”),
- "vergul" (“запятая”),
- "undov belgisi" (“восклицательный знак”),
- "savol belgisi" (“вопросительный знак”),
- "yangi qator" (“новая строка”),
- "yangi paragraf" (“новый абзац”).

Amaliyotda bu juda qulay ekanligini ko‘rsatdi.

Dasturlar

Voco

Ovozli pulli dastur ovoz orqali nafaqat kompyuterda chop etadi va tinish belgilarini o‘rnatadi, balki qo‘shimcha imkoniyatlar bilan ham quvontiradi: u ovoz(audio)ni transkripsiya qilishi mumkin, shuningdek, lug'atlar bilan versiyani kengaytirish imkoniyati ham mavjuddir (masalan, yuridik atamalar yoki boshqalar). Windows 7 va undan yuqori versiyalari bilan boshlangan operatsion tizimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

MSpeech

DOI: 10.36078/1653410391

Бесплатна и может удовлетворить амбиции многих пользователей. Её привлекательность состоит в том, что она может распознавать голос на 50 языках. Для удобного использования есть горячие клавиши, можно самому выбирать источник звука, корректировать распознанный текст.

Bu bepul va ko‘plab foydalanuvchilarning ambitsiyalarini qondira oladigan dasturdir. Uning jozibadorligi shundaki, u 50 ta tilda ovozni taniy oladi. Qulay foydalanish uchun tezkor tugmalaridan (tugmalar kombinatsiyasi) iborat bo‘lgan hamda ovoz manbasini foydalanuvchi tanlashi, tan olingan matnni tuzatish imkoniyati ham mavjud bo‘lan dasturdir.

Xulosa. Ushbu maqolani xulosa ravishda shini aytish mumkinki, texnologiylar uzoq yo‘lni bosib o‘tdi va agar ilgari matnni qo‘lda klaviatura yordamida terish kerak bo‘lsa, endi buni faqat ovoz bilan ma'lumotni aytib berish orqali amalga oshirish mumkin. Albatta, mukammal e'tirofga kafolat yo‘q, ammo taraqqiyot juda rivojlanganligi aniqdir.

Masofaviy foydilanuvchilar faoliyatini sezilarli darajada osonlashtiradigan ilovalarni ishlab chiqish bilan maksimal mahsuldorlikka va tezroq vazifalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Помощь в работе с голосовым блокнотом (speechpad.ru)
2. Ошибки при наборе текста голосом в речевом блокноте – YouTube
3. Перевод аудио в текст в автоматическом режиме Speechpad.ru – YouTube
4. 10 лучших бесплатных сервисов для голосового ввода текста (voxworker.com)
5. https://keysprog.ru/speechpad
6. https://iklife.ru/internet-professii/kopirajter/golosovoj-nabor-teksta.html

ONLINE TA’LIMNING AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Mohinur Avazbek qizi ALIMOVA
Turizm fakulteti talabasi
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: Kuvonov Z.M.

Annotatsiya. Ushbu tezisda online ta'limning O‘zbekistonda joriy etilishi, ta'lim tizimida online ta'lim o‘qitish tizimining o‘rni va ahamiyati, online o‘qitish va online ta'lim tizimning mohiyati uning afzalliklari va kamchilliklari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: online ta’lim, internet, o‘qituvchi, talaba, muloqot, masofaviy ta'lim, online o‘qish.

DOI: 10.36078/1653410391

Mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalardagi ka'bi ta'lim tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi va ta'limning sifatini yaxshilashga e'tibor qaratildi. Shu sababdan ham bugungi kunga kelib talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan zamonaviy axborot texnalogiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo‘llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o‘qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Online ta’limning O‘zbekistonda joriy etilishi. O‘zbekistonda birinchi bor pandemiya sababli barcha ta'lim muassasalari online ta'lim tizimi tashkil etildi. Mamlakatimizda koronavirus tufayli online ta'lim tizimida 7 million o‘quvchi va 500 ming talabaga dars berish yo‘lga qo‘yildi.

Ta'lim tizimida aholini o‘qitish tizimining o‘rni va ahamiyati. Internet texnologiyalarining kirib kelishi, axborot texnologiylarining rivojlanishi asrlar davomida o‘zgarmay kelayotgan holatlarní o‘zgartirib yuborishga sabab bo‘ldi. Shu jumladan, ta'lim sohasi rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. Masalan, ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o‘rniga masofaviy ta'lim tizimini joriy etilishiga imkon yaratdi

O‘zbekiston Respublikasining Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil 30-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim tizimiga o‘quv uslubiy majmualarni kiritishni tashkillashtirish to‘g'risida" gi 526-son buyrug'ining 4-bandi ijrosi yuzasidan Moodle elektron ta'lim tizimiga o‘quv-uslubiy majmualarni joylashtirish va ta'lim tizimida foydalanish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Online ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir - biridan ajralgan holda o‘zaro internet orqali muloqotda bo‘ladi, talaba o‘zi ustida ko‘proq ishlaydi va internetning boshqa texnalogiylari yordamida o‘qituvchi bilan doimiy muloqotda bo‘ladi. Eng muhimi masofaviy ta'lim joyga, vaqtga bog'liq emas, talabalarning soni cheklanmagan.

Masofaviy o‘qitish davomida biz talabalar mustaqil o‘quv darsliklarini o‘zlashtiramiz, nazorat savollariga javob berib boramiz. Ta'limning bu turi sirtqi, maxsus sirtqi, oilali, yoshi katta va ishlaydigan talabalar uchun juda qulay ta'lim tizimidir.

Masofaviy o‘qitish - bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar. Elektron pochta, internet, video konferensiya, audio, video ma'lumotlar va multimedia o‘quv qo‘llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o‘qitish, o‘rgatish uslubidir. Masalan, masofadan biror yangi mavzu yoki predmet bo‘yicha ma'lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o‘quv yurtlariga uzatish mumkin. Agar joylarda bu sohada mutaxassis bo‘lmasa masofadan o‘qitish yagona usuldir. Masofaviy o‘qitishning texnologiya elementlari hatto yuz yillardan beri ko‘rib kelinadi. Bunga Rossiya tajribasidan misol qilib general A.M.Shanyavskiy nomidagi Moskva Xalq Universiteti, Naxotka Shahridagi Morexodnaya

DOI: 10.36078/1653410391

maktablarini olish mumkin. Bu yerda V.P.Chernov 1987 – yili masofaviy o‘qitishni joriy etgan.

Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnalogiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun qoidalari asosida o‘quv shart – sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalariga asoslangan. o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta'lim majmuasidir. Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi . Barcha tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Nima uchun masofaviy ta'lim kerak bo‘lib qoldi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarini sanab o‘tish mumkin:

–Ta'lim olishda yangi imkoniyatlar.

–Ta'lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.

– Ta'lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.

–Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

–Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o‘qitishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Online ta'limning asosiy afzalligi bu ta'lim tizimi raqamli ko‘rinishda bo‘lsa, o‘rganuvchilarning ko‘rsatkichlarini kuzatish va tahlil qilish osonlashadi.

Vaqt borasida qulaylik. Deyarli barcha ta'limiy online – platformalar mobil qurilmalarda ishlaydi. Qulay kiyimda bir piyola choy bilan ma'ruza tinglash mumkin. Yo‘lga vaqt sarflash kerak emas. Bunday narsalar ortiqcha zo‘riqishdan asraydi. Bundan ortgan vaqt va kuchingizni boshqa foydali va qiziqarli narsalarga sarflashingiz mumkin.

Sifat borasida qolishmaydigan jihatlari ham yo‘q emas. Amerika universitetlari o‘qituvchilari 77 % online ta'limni sifat jihatdan an'anaviy ta'lim bilan teng, ba'zida esa undan ustun deb hisoblashadi. Online ta'lim ko‘proq intizom va shaxsiy nazorat talab qiladi.

 DOI: 10.36078/1653410391

Turli qulay vositalari: prezentatsiyalar, testlar, videolar, chat, ekran namoyishi va darsni qayta qayta ko‘ra olish imkoniyati ta'limning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Online ta'lim tashkilotlari ma'ruza yoki mahorat– darslariga turli shaharlar va mamlakatlardan o‘qituvchi va professionallarni taklif qilishi mumkin. Bu esa ta'lim hamda diplom obro‘si va sifatini oshiradi.

Online ta'limning arzonligi, ota – onalarning hammasi farzandini o‘qitishni xohlaydi, biroq har kim ham obro‘li maktabga yuborolmaydi yoki xususiy darslar uchun to‘lov qilolmaydi. Guruhiy online mashg'ulotlar qimmat repititor xizmatlari o‘rnini bosishi mumkin. Online ta'lim har kimga o‘qish imkonini beradi. Ba'zilar kasallik, xizmat safarlari, tug'ruq yoki uyining chekka joydaligi, jismoniy nuqsonlari tufayli maktab, universitet va kurslarga qatnay olmasligi mumkin. Bunday hollarda internet orqali ham yaxshi ta'lim olish, yangi kasbni va zarur ko‘nikmalarni egallash mumkin.

Irqi, dini, jinsi, millati, yoshi, kiyinishi, tashqi ko‘rinishiga ko‘ra talabalar o‘rtasida diskriminizatsiyaning mavjud emasligi masofaviy ta'limning yana bir afzalliklaridan biridir. Hamma ishtirokchilar teng qatnasha oladi. Juda ko‘p gapiradigan, boshqalarga so‘z bermaydigan talaba bo‘lmaydi.

Online ta'limning kamchiliklari ham yo‘q emas, albatta.

Uzoq vaqt ekran oldida diqqatni jamlay olmaslik. Bu online ta'limning eng katta kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Dars mobaynida talabalarning ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa saytlarga chalg'ib ketishlari ehtimoli katta. Shu boisdan o‘qituvchilar dasturlarni aniq, qiziqarli hamda interaktiv usullarda tashkil qilib o‘rganuvchilar diqqatini qarata olishlari kerak.

Online darslarning asosiy muammolaridan yana biri bu – internet masalasi. Ta'limning uzluksiz bo‘lishi uchun internet aloqa sifati yaxshi bo‘lishi kerak. Jonli muloqotning kam ekanligi. Buning oldini olish uchun audio suhbatlar, video konferensiyalar o‘tkazib turishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, online ta'lim bugungi kunda nafaqat online o‘quv maskanlari uchun zarur, balki bugungi kundagi globalizatsiyalash jarayonida katta – katta korxonalarga, muassasalarga, o‘zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda, ularning bilim darajalarini va ko‘nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o‘rin tutadi. Masofaviy o‘qitishni qo‘llansa, aholining bilim darajasini va bu bilimning sifatini oshirish imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini qondirish mumkin bo‘ladi. Yagona ta'lim muhitini yaratib unda barcha bilimlarni mujassamlashtirish imkoni mavjud. Online ta'lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchi bir – biridan masofa bilan ajralgan bo‘lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi.

DOI: 10.36078/1653410391

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Furkat Raxmatov (2021). Педагогикада мантиқ илми. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1 (4), 39–50.
2. Dilobar Abduxalilova, & Furkat Raxmatov (2021). Wortpaaren in deutscher und usbekischer sprache und ihr ausdruck in der usbekischen sprache. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 2), 162–169.
3. Ogli, Kuvonov Zarifjon Maxsiddin. "Die vorteile und nachteile der online-bildung." *Academic research in educational sciences* 2.CSPI conference 2 (2021): 478-481.

KOMPYUTER DASTURLARI YORDAMIDA MASHINALI TARJIMANING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARINING QIYOSIY TAHLILI

Baxtiyor Sagdullayevich AXRAROV
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
barsa1954@yandex.ru

Annotatsiya. Tezisda mashinali tarjima jarayonida inson bilan kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni tashkil etishning shakllari, kompyuterli tarjima qilishda foydalaniladigan algoritmlar turlari va ularga mos onlayn xizmatlar tafsilotlari, ularning afzalliklari va kamchiliklarining qiyosiy tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlari: mashinali tarjima, post-tahrirlash shakli, oldindan tahrirlash shakli, ichki tahrirlash) shakli, "qoidaga asoslangan" algoritm, statistikaga asoslangan algoritm, til juftliklari.

Hozirgi vaqtda o‘z faoliyatida matnlarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish uchun onlayn xizmatlar imkoniyatidan foydalanayotganlar soni tobora ortib bormoqda. Talabalar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarning aksariyati ko‘pchiligini Internet resurslaridan onlayn tarzda o‘qish va yuklab olinish, kerakli materiallarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish servislaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Bunday servislar orqali tez, qulay va, eng muhimi, mutlaqo bepul tarjima qilish mumkin.

Biz bakalavriatning “Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1 kurs talabalari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik. So‘rovnomada ingliz tilini o‘rganayotgan 36 nafar talaba ishtirok etdi. "Onlayn tarjima xizmatlaridaridan qanchalik

 DOI: 10.36078/1653410391

tez-tez foydalanasiz?" degan savolga 19 nafar talaba (52,8%) "Har doim foydalanaman", 8 nafar talaba (22,2%) – "Juda tez – tez", 5 nafar talaba (13,9%) – "Ba'zan", 3 nafar talaba (8,3%) – "Kamdan-kam", 1 nafar talaba (2,8%) – "Hech qachon" javobini berganlar.

Mashinali tarjima – yozma matnlarni tabiiy tildan ikkinchisiga maxsus kompyuter dasturi yordamida tarjima qilish jarayoni [1,15 b.]. Odatda mashinali tarjima yorfamida matnning asosiy mazmunini tez anglash mumkin, biroq ko‘pincha ilmiy-texnik adabiyotlar, maqolalar bilan ishlashda bunday tarjima tanqidga dosh bera olmaydi.

Tilshunoslik sohasidagi mutaxassislar ko‘p yillar davomida tarjima bilan bog'liq muammolarni o‘rganib kelmoqdalar. Tarjima jarayoni ko‘p qirrali va murakkabdir, chunki u har doim turli xil sharoitlarda va faoliyat sohalarida, turli tillarda va turli shakllarda amalga oshiriladi, bu esa yangi, turli xil tarjima turlarini shakllantirish va uzluksiz rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Mashina tarjimasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va hozirgi vaqtda ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar bunday tarjimaga alohida e'tibor bermoqdalar [2].

Mashinali tarjima deganda matnni bir tabiiy tildan mazmuni bo‘yicha boshqa tilga mos keladigan matnga aylantirish uchun kompyuterda amalga oshiriladigan amallar, shuningdek, bunday amallaning natijasi tushuniladi [3].

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar matnning semantik mazmunini avtomatlashtirilgan tarzda taqdim etish, shuningdek, berilgan matn mavzusiga oid soha bilan bog'liq bo‘lgan tushunchalar haqidgi bilimlari orqali bartaraf etilishi kerak [4].

Bugungi kunga kelib, zamonaviy mashina tarjimasi turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi.

Mashinali tarjima jarayonida inson bilan kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni tashkil etishning quyidagi uchta asosiy shakli mavjud”:

– ***post-tahrirlash shakli***. Bunda inson- muharrir yakuniy tarjima matnini sifatli shakllantirish uchun olingan mashina tarjimasini qaytadan tahrir qiladi;

– ***oldindan tahrirlash shakli***. Bunda matnni tahrirlash hujjatning mashina tarjimasi boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.

– ***mashina tarjimasi jarayonida bevosita tahrirlash (ichki tahrirlash) shakli***. Bunda inson-muharrir bevosita mashinali tarjima qilish tizimining ishlashi vaqtida ko‘p ma’li so‘zlarni tarjima qilish, shuningdek, formulalar va turli grammatik tuzilmalarni aniqlashtirish uchun paydo bo‘lgan noaniqliklarni tuzatish yoki bartaraf etishga harakat qiladi [5].

DOI: 10.36078/1653410391

Inson va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni tashkil qilish shakllaridan tashqari, kompyuterli tarjima qilish foydalaniladigan algoritmlarga qarab turlarga bo‘linadi.

Mashinali tarjima texnologiyasida "***qoidaga asoslangan***" (“rule-based”) yoki ***statistikaga asoslangan*** ("statistical-based”) algoritmlar ishlatilishi mumkin [6].

Qoidalarga asoslangan mashinali tarjima ko‘plab lingvistik qoidalardan va har bir til juftligi uchun ko‘p tilli lug'atlardan foydalanadi. Dastur berilgan matnini tahlil qiladi va uni vaqtinchalik (oraliq) matnga aylantiradi, keyinchalik maqsadli tildagi matn yaratadi. Tarjima jarayoni morfologik, sintaktik va semantik ma'lumotlar to‘plamlaridan iborat katta hajmli lug'at bazasisiz, shuningdek, katta hajmli qoidalar to‘plamsiz amalga oshmaydi.

Qoidalarga asoslangan mashinali tarjima dasturlariga PROMT.One (Rossiya) va SYSTRAN Translate (Frantsiya) kiradi.

Statistikaga asoslangan mashinali tarjima dasturlari ishlash prinsipi talab qilinadigan til juftliklariga mos keluvchi ma'lumotlar bazalarini uzluksiz taqqoslashdan iboratdir.

Til juftliklari berilgan tildagi matn va tarjima qilinadigan maqsadli tillardagi matnlardir. Berilgan til – matn yozilgan dastlabki tildir, maqsadli til esa berilgan matnni tarjima qilish kerak bo‘lgan tildir.

Misol uchun, ingliz tilida berilgan matnni rus tiliga tarjima qilish kerak bo‘lsa, berilgan til – ingliz tili va maqsadli til – rus tili bo‘ladi.

Tarjimaning sifati, asosan, statistik yondashuvga asoslangan kompyuterli tarjima qilish tizimini qo‘llab-quvvatlaydigan ko‘plab til juftliklariga, shuningdek kerakli til juftlikarining va ma'lumotlar bazalari bir-birlariga qanchalik aniq mos kelishiga bog'liq.

Ushbu turdagi algoritm Yandex Переводчик (Rossiya), Google Translate (AQSh), Bing Microsoft Translator (AQSh) va boshqa shu kabi mashhur onlayn tarjima xizmatlarida ishlatiladi.

1–jadvalda eng yaxshi onlayn tarjima xizmatlarini ko‘rsatuvchi mashinali tarjimaning afzalliklari va kamchiliklarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1–jadval.

Eng yaxshi onlayn tarjima xizmatlarini ko‘rsatuvchi mashinali tarjimaning afzalliklari va kamchiliklarining qiyosiy tahlili

Xususiyatlar	Yandex	Google	Bing	PROMT	Systran
Tillar soni	120	108	97	24	55
Shu jumladan o‘zbek tili	+	+	+	+	-

DOI: 10.36078/1653410391

Mobil ilovasi	Android / iOS	Android / iOS	Android / iOS	Android / iOS	-
Matn uzunligi (belgilar soni)	10000	5000	5000	3000	2000
Hujjat formatlari	html, doc, docx, pdf, xls, xlsx, ppt, pptx va tasvirlar	doc, docx, odf, .pdf, ppt, pptx, ps, rtf, txt, xls, xlsx	Faqat matn	Faqat matn	Faqat matn, boshqa hujjatlar pullik
Nutqni tanib olish va ijro etish	+	+	+	Mobil versiyasida	+
Tarjima kutubxonasi va iboralar lug'ati	+	+	Mobil versiyasida	+	-
Algoritmni sozlash imkoniyati	-	-	-	+	-
"Bola paqir shamollagan." matni tarjimasi	Child blowing bucket	The child has a cold	Child bucket blown	The child fell into panic	-
Ruscha tarjimasi	Ребенок простудил-ся ведром	У ребенка простуда	Детское ведро вы-дувается	Ребенок повалил панику	
"Qaysi on-layn tarjima servisi yaxshi?" matni tarjimasi	Which on-line translation service is better?	Which online translation service is better?	Which online translation service is good?	Which one serves the translation well?	-

DOI: 10.36078/1653410391

Ruscha tarjimasi	Какой сервис онлайн-перевода лучше?	Какой сервис онлайн-перевода лучше?	Какой сервис онлайн-перевода хорош?	Какой из них хорошо обслуживает перевод?	
Kamchiliklari	1. Qo‘lda yozilgan matnni tanimaydi 2. Matn tarjimasi transkripsiyasini avtomatik yaratish funksiyasi yo‘q tarjima	1. Har bir til juftligi uchun turli xil aniqlikdagi tarjima 2. Algoritmlardagi davriy nosozliklar noto‘g'ri tarjima qilishga olib keladi	Lug'at tekshiruvi funksiyasi yo‘q	Matnni ovozli qilish imkoniyati yo‘q lug'at rejimi yo‘q	1. Faqat matnlar bilan ishlaydi 2. Tarjimani tahrirlash imkoniyati yo‘q

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, onlayn tarzda mashinali tarjima xizmatlari bozorida turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan bir qator o‘ziga xos dasturiy mahsulotlar mavjud bo‘lib, ularning har biri afzalliklar va kamchiliklarga ega. Shuning uchun muayyan mavzudagi matnni onlayn tarjima qilishda eng munosib xizmatni tanlash muhim hisoblanadi.

Kompyuter dasturlari yordamida onlayn tarzda mashinali tarjima xizmatlari xususiyatlaridan ko‘rinib turibdiki, ularning barchasi yuqori tezkorlik bilan ishlaydilar. Shu bilan birga eng sifatli tarjima Google Translate xizmati tomonidan amalga oshirilshi ma’lum bo‘ldi.

Tahlillar natijasida olingan ma'lumotlar bugungi kunda insondan mustaqil ravishda to‘liq avtomatlashtirilgan tarjima mukammal emasligini ta'kidlash imkonini beradi. Biroq, mashinali tarjima natijalari matn mazmuni bilan yuzaki tanishishda foydalanilishi mumkin. Ulardan tahrirlash amallari bajarilganidan so‘nggina maqsad yo‘lida foydalanish mumkin.

DOI: 10.36078/1653410391

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Марчук Ю. Н. Проблемы машинного перевода. М.: Наука, 1983 201 с.
2. Сдобников В. В. Теория перевода. / В. В. Сдобников, О. В. Петрова. – М.: АСТ Восток-Запад, 2006. – 425с.
3. Скворцова О. В. Проблемы и преимущества автоматизированного и машинного переводов / О. В. Скворцова, Е. В. Тихонова. // Молодой ученый. – 2016. – №9 – С. 1287–1289.
4. Кенжаев А. Д. Машинный перевод: история и современность / А.Д. Кенжаев. // Иностранные языки и регионоведение. – 2014.
5. Arenas A. Pre-editing and Post-editing / A. Arenas. // The Bloomsbury Companion to Language Industry Studies (Bloomsbury Companions). – London: Bloomsbury Academic, 2020. – P. 333–360.
6. Андреева А.Д. Обзор систем машинного перевода / А. Д. Андреева, И. Л. Меньшиков, А. А. Мокрушин. // Молодой ученый. – 2013. – № 12 (59). – С. 64–66.

TIL TA’LIMIDA WIKI-TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USUL VA VOSITALARI

Ravshan Hamdamovich AYUPOV
ZAT kafedrasi professori
O‘zDJTU
Shahnoza Abdikarim qizi YANGIBOYEVA
Jurnalistika fakulteti 2-kurs 20/03 AX guruhi talabasi
O‘zDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tillarini o‘rganishda wiki texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi. Wiki-texnologiya tushunchasi va uning chet tillarini o‘qitishda qo‘llanilishi batafsil ko‘rib chiqiladi. Viki-texnologiyalarning uslubiy, didaktik va tarbiyaviy xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqola mualliflari viki-texnologiyalar asosida tarjima faoliyatini avtomatlashtirish algoritmlarini taklif qiladilar, shuningdek, tildan tilga tarjima qilish va til o‘rganish uchun wiki-sahifalarni ishlab chiqish uchun ba'zi algoritmlarni taklif qilishadi.

Kalit so‘zlar: wiki, wiki texnologiyasi, yozish qobiliyatlari. axborotlashtirish, ta'lim; tarjima, til ta’limi.

 DOI: 10.36078/1653410391

Аннотация. В данной работе рассматривается возможность использования вики-технологии при изучении иностранных языков. Подробно рассматриваются понятие wiki-технологии и ее возможности использования в обучении иностранных языков. Также рассматривается методические, дидактические и учебно-воспитательные свойства wiki-технологий. Кроме того, авторы статьи предлагают алгоритмы автоматизации переводческой деятельности на основе wiki-технологий, а также предлагают некоторые алгоритмы развития wiki-страниц для перевода с языка на язык и для обучения.

Ключевые слова: вики; вики-технология; умения письменной речи. информатизация, образование; перевод, языковое образование.

Xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi bilan til ta’limiga ham e’tibor ancha kuchaydi va til bilishga bo‘lgan munosabat ham tubdan o‘zgardi. Shu tufayli, tilni faol o‘rganishga va tarjimaga information texnologiyalar usullarini jalb qilish yanada rivojlanib ketdi. Bi borada bir qancha ilmiy ihslar amalga oshirildi va kitoblar chop etildi [1]. Keyingi yillarda internet texnologiyasining yana bir samarador usuli – wiki-texnologiyalarning til ta’limida qo‘llanilish imkoniyatlari bo‘yicha ham bir qancha maqolalar chop etildi [1-4] va ularda ushbu texnologiyalarning til o‘rganish jarayonida qo‘llanilish shart sharoitlari, samaradorligi va bir qancha algoritmlari keltirildi. Eng avvalo, wiki-texnologiya nima va uning mohiyati nomalardan iborat ekanligini ko‘rib chiqamiz. Wiki-texnologiya web-2.0 ning hizmatlaridan biri bo‘lib, turli joylarda bo‘lgan xolda insonlar guruhiga bitta hujjat yoki loyiha ustida ishlashga imkon beradi. Internet tarmog’ining turli-tuman imkoniyatlari asosida wiki-sahifa yaratish ustida istalgancha odamlar shug’ullanishi, unga o‘zgartirishlar kiritishi, qo‘shimchalar qo‘shishi, mazmunini o‘zgartira olishi va keraksiz yohud noto‘g’ri ma’lumotlarni yo‘qotishgi mumkin bo‘ladi. Bunda matnli ma’lumotlardan, rasmlar va grafikadan, audio va video fayllardan foydalanish, boshqa internet resurslariga giperilovalar qilinishi ham mumkin bo‘ladi. Kiritilgan ma’lumotlar ko‘pchilik tomonidan ko‘rib va tahrirlab chiqilganidan so‘ng, o‘rganilayotgan fan yoki soha bo‘yicha qandaydir ma’noda aniq va ko‘pchilik tomonidan tekshirilgan hamda ishonchga sazovor bo‘lgan information baza hosil bo‘ladi [2]. Ko‘pchilik wiki-sahifalar gipermatn ko‘rinishida bo‘ladi va bu undan foydalanuvchilarga kerakli ma’lumotlarni qidiri9sh uchun bir sahifadan boshqasiga o‘tishni osonlashtiradi. Eng birinchi ilk wiki-hizmat Ward Cunningham tomonidan 1995 yilda yaratilgan bolib, u ma’lumotlar ombori tariqasida bo‘lgan. Keyinchalik, 2000 yilda Wikipediya (wiki server - www.wikipedia.org) deb nomlangan online tarmoq ensiklopediyasi paydo bo‘lib, unga istalgan inson o‘z maqolasini joylashtirishi va boshqalar bilan uni baham ko‘rishi, ularning

 DOI: 10.36078/1653410391

bu maqola bo‘yicha bildirgan mulohazalsarini ko‘rib chiqishi va o‘zgatirishlarga baho berishi mumkin bo‘lgan. Ushbu tizim o‘z havfsizlik hizmatiga ega bo‘lib, tarmoq ensiklopediyasidagi ma’lumotlarni ularning ruhsatini olgan xolda o‘zgartirish, qo‘shimchlar qo‘shish yoki olib tashlash mumkin. Demak, sizning wikipediyaga joylashtirmoqchi bo‘jgan materiallarni tizim administrator;ari ko‘rib chiqib, tizimda joylashtirishga ruhsat berganlaridan so‘nggina ma’lumotlar ommaga ko‘rinadi va bu amal undagi ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlab beradi.

Chet tillarni o‘qitishda Wikipediya talabalar uchun o‘ziga xos information zahira sifatida foydalanilishi mumkin [3]. Chunki talabalar wiki-texnologiyadan foydalangan xolda o‘rganilayotgan til bo‘yicha o‘z bilimnlarini oshirishlari, yangi ma’lumotlar topishlari, tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniy-ma’naviy tomonlari bilan yaqindan tanishishlari mumkin. Wikipediya dan tashqari, bunday wiki-zahiralarga misol sifatida Pbworks (www.pbworks.com), MediaWiki (www.mediawiki.com), Wikihost (www.wikihost.org) larni keltirishimiz mumkin. Wiki-texnologiya asosida tashkil qilingan tizimlar quyidagi didaktik xossalaga ega bo‘ladi:

- Wiki-hujjatda turli xil ko‘rinishdagi ma’lumotlarni, shu jumladan, turli xil formatlardagi matnlarni. grafiklarni, jadvallarni, foto, audio va videolarni qo‘shish mumkin (mul’timediani);
- Ichki va tashqi giperilovalarni qo‘shish imkoniyati.
- Ommaviylik – wiki-hujjat ushbu loyihaning turli xududlarda istiqomat qiladigan barcha ishtirokchilariga ko‘rinib turadi va ular hujjat bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarni bemalol bildirishlari munkin bo‘ldi;
- Wiki-hujjatga bo‘lgan o‘zgarishlar blog yoki forumlar o‘xshab ketma-ket emas, balki, istalgan tartibda (hujjatning oldingi saqlangan versiyasiga o‘zgartirish kiritish orqali) amalga oshirilishi mumkin;
- Hujjatning yaratilish tarixini ko‘ra olish imkoniyati, chunki hujjatning barcha versiyalari wiki-serverda saqlanadi va shuning uchun ham loyihaning har bir ishtirokchsi hujjatning oldingi versiyalariga qaytishi, hamda kim va qachon bu hujjatga o‘zgartirishlar kiritganini ko‘rishi mumkin;

Chet tillarni o‘rgatishda wiki-texnologiyaning yuqorida tavsif etilgan didaktik xossalari va ulardan kelib chiqadigan metodik xususiyatlarini xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bu metodik xossalarni bir chekkadan ko‘rib chiqamiz:

- *Mul’timediyaviyli*k – wiki-texnologiya turli xil hujjatlarning xar-xil ko‘rinishlarnidan (grafiklar, jadvallar, chizma, foto, audio va videolar) foydalanishga imkon bergani tufayli, bu imkoniyat talabalarning til o‘rganish

DOI: 10.36078/1653410391

jarayonida ijtimoiy-madaniy tomondan rivojlanishiga va bilimlarini boyitishiga yordam beradi;

- *Zahira va ma'lumotlarning giperilovali tuzilishi* – ushbu imkoniyat wiki-loyihaning barcha ishtirokchilariga boshqa loyihalar bilan tanishishga ularning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rishga va ularni tushunishga yordam beradi. Bu esa ishtirokchilarning munozara qilish, ma'ruza qilish, ommaga o'z fikr va mulohazalarini bildirish kabi hislatlarni rivojlantiradi.
- *Hujjatning yaratilish tarixini ko'ra olish* – Hujjatning barcha versiyalari va barcha o'zgarishlar serverda saqlanganligi tufayli, talabalar bu versiyalar va o'zgarishlarni ko'rib va kuzatib turgan xolda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar hamda bir muammoga turli xil nuqtai-nazar bilan qarashni o'rganib oladilar;
- *Ommaviylik* – wiki-texnologiyaning bu xossasi chet tilni o'rganayotganlarga tarmoqda birgalikda ishlash va muloqot qilish imkonini yaratadi. Ayniqsa, mustaqil ishlarni bajarish, sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirish, til bo'yicha ko'niklmalarni rivojlantirish hamda hamkorlikda ishlash uchun bu imkoniyat katta yordam berishi mumkin;

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, wiki-texnologiya foydalanuvchular tomonidan bitta hujjat yaratish imkoniyatini berar ekan, uni chet tili o'rganayotgan talabalarning yozma ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlatish mumkin. Bu yo'nalish bo'yicha ham bir qancha ilmiy ishlar olib borigan bo'lib, ularda shu sohaga oid bir qancha ma'lumotlar keltiriladi [3-4]. Bu ishlarda asosiy e'tibor hamkorlikda ta'lim olish kontseptsiyasini amalga oshirishdir. Ya'ni. Bir-birlaridan turli masofalarda va hududlarda joylashgan talabalar wiki-servisda umumiy hujjat yaratish ustida ishlaydilar. Bunda ko'pincha jamoaviy hujjat yoki mahsulot tayyorlash jarayoinida talabalar birgalikda jonli muloqot qiladilar, jamoada ishlashga o'rganadilar va bu bilan madaniy, ma'rifiy va tarbiyaviy jihatdan rivojlanishga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musumeci D. Breaking the tradition: an exploration of the historical relationship between theory and practice in second language teaching. N. Y. : McGraw-Hill, 1997.
2. Сысоев П.В. 1. Информатизация языкового образования: основные направления и перспективы // Иностранные языки в школе. 2012. № 2. С. 2–9. ***2.*** Информатизация языкового образования: основные направления и перспективы (окончание) // Иностранные языки в школе. 2012. № 3. С. 2–9. **3.**

 DOI: 10.36078/1653410391

Современные информационные и коммуникационные технологии: дидактические свойства и функции // Язык и культура. 2012. № 1. С. 120–133.
3. Сысоев П.В., Евстигнеев М.Н. Технологии Веб 2.0: Социальный сервис вики в обучении иностранному языку // Иностранные языки в школе. 2009. № 5. С. 2–8.
4. Сысоев П.В. Блог-технология в обучении иностранному языку // Язык и культура. 2012. № 4. С. 115–127.

АУДИРОВАНИЕ КАК ВИД КОММУНИКАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Дилором Ахатовна АКБАРОВА
Преподаватель
Кафедра современного русского языка
УзГУМЯ

Аннотация. В статье говорится об аудировании, актуальных задачах современного русского языка, который должен быть обучающим, воспитывающим, развивающим и интересным. В статье также рассматривается вопрос о внедрении аудирования в учебный процесс, который является неотъемлемой частью образовательного процесса.

Ключевые слова: аудирование, эффективное использование, информация, коммуникативная компетенция, метод, приём, воспитание, умение, инновация.

Право на образование является одним из основных прав личности. Образование в Республике Узбекистан является приоритетной сферой социально-экономического, духовного и культурного развития общества. Республика Узбекистан проводит широкомасштабную государственную политику в области образования. Образование включает в себя обучение и воспитание и имеет целью развитие интеллектуального и научного потенциала республики, формирование всесторонне развитой свободной личности, сознающей свою ответственность перед обществом, семьей и государством.

В настоящее время известно немало достижений передового педагогического опыта, направленного на оптимизацию учебно-воспитательного процесса, вызывающего интенсивное развитие психолого-педагогической науки.

 DOI: 10.36078/1653410391

Аудирование занимает важное место уже на начальном этапе изучения языка. Овладение аудированием реализует воспитательные, образовательные и развивающие цели. Оно позволяет учить учащихся внимательно вслушиваться в звучащую речь, формирует умение предвосхищать смысловое содержание высказывания и таким образом воспитывать культуру слушания не только на иностранном, но и на родном языке. Воспитательное значение формирования умения понимать речь на слух оказывает в то же время и развивающие воздействие на ребенка и заключается в том, что оно положительно сказывается на развитии памяти ребенка и прежде всего слуховой памяти, в столь важной не только для изучения иностранного языка, но и любого другого предмета.

Аудирование должно вносить свой вклад и в достижение образовательной цели, обеспечивая детям возможность понимать высказывания, как бы элементарны они ни были на языке другого народа, в данном случае на английском языке, одном из самых распространенных языков мира.

Появилась новая дисциплина «Методы устной коммуникации». На занятиях подробно объясняется система использования методов активного обучения (МАО), подробно рассказывается о технологии проведения таких мероприятий, как конференция, семинар, круглый стол, выставка, интервью, пресс-конференция, деловые игры, способы их подготовки и проведения: ДИ, «Документ», «Конференция», «Эстафета передового опыта», «Репортаж» и другие.

Методы активного обучения – способ организации учебного процесса, при котором обеспечивается вынужденная, оцениваемая и управляемая активность обучаемых, сравнимая с активностью преподавателя.

Целью обучения иностранному языку (ИЯ) является овладение учащимися способностью осуществлять непосредственное общение с носителями изучаемого языка в наиболее распространенных ситуациях общения [16]. Но общение – это не только говорение на ИЯ, но и восприятие речи собеседника на слух. Не следует забывать, что именно коммуникативно-ориентированное обучение обеспечивает лучшее усвоение языка, так как в условиях общения язык выступает в своей естественной функции. До недавнего времени аудирование не занимало должного места в процессе обучения ИЯ, хотя важность формирования и развития навыков и умений аудирования вполне очевидна. Проблема обучения аудированию привлекает пристальное внимание методистов и психологов. Ее актуальность диктуется той ролью, которую слушание и понимание играют в процессе речевой коммуникации и при изучении ИЯ, в частности. И. И. Халеева подчеркивает, что аудитивная база – это одно из условий улучшения навыков устной речи, и путь к накоплению сведений

DOI: 10.36078/1653410391

о неисчерпаемых возможностях языковой системы, и способах ее речевой реализации, и важный канал пополнения знаний о стране изучаемого языка [17, 11].

Таким образом, актуальность темы «Обучение аудированию в русле коммуникативно-ориентированной методики» предопределена тем, что с учетом перспектив развития экономики и социальной сферы сегодня важно сформировать у выпускников школ новые профессиональные и личностные качества, такие, как системное, творческое мышление, экологическая, информационная культура, языковая и коммуникативная компетенция, способность к осознанному анализу своей деятельности, самостоятельным действиям в условиях неопределенности. Этого можно достичь только при коммуникативном подходе, цель которого в том, чтобы научить свободно ориентироваться в иноязычной среде и уметь адекватно реагировать в различных ситуациях [11].

Данный этап обучения выбран не случайно, по нашему мнению, именно на начальном этапе складываются основы речевых навыков и умений, что позволяет сделать использование аудирования наиболее эффективными и как цель, и как средство в обучении иностранному языку.

Недооценка аудирования может крайне отрицательно сказаться на языковой подготовке школьников. Изучение данного вида речевой деятельности в методике недостаточно глубокое, да и термин «аудирование» используется в методической литературе сравнительно недавно. *Понятие аудирования включает процесс восприятия и понимания звучащей речи.* Также известно, что аудирование - очень трудный вид речевой деятельности. А то, что современные выпускники школ практически не владеют данным умением, совсем ни секрет. Вообще, аудирование как действие, входящее в состав устной коммуникативной деятельности, используется в любом устном общении, подчиненном производственным, общественным или личным потребностям. Без овладения этим видом деятельности невозможно выучить язык и пользоваться иноязычной речью на том уровне, который необходим на современном этапе развития общества.

Аудирование может представлять собой отдельный вид коммуникативной деятельности со своим мотивом, отражающим потребности человека или характер его деятельности. Например, при просмотре фильма, телепередачи, пользовании интернетом, прослушивании радиопередачи и т. п. Достаточное овладение аудированием как видом речевой деятельности не только позволяет, но и стимулирует самостоятельный просмотр фильмов и телепередач на иностранном языке, учитывая тот факт, что в настоящее время у многих есть возможность

 DOI: 10.36078/1653410391

слушать и смотреть такие телеканалы, как: “Cartoon network”, BBC, NBC, CNN, SKY TV и многие другие.

Мы считаем, что каждый преподаватель выбирает свой путь сам, но если его волнует проблема активизации процесса обучения, если он хочет более эффективно использовать свой потенциал, не совершать ошибок в использовании интерактивных методов обучения русскому языку, то следует шире пользоваться новыми технологиями на уроках, постоянно изучать их, знакомиться с разными методами и способами.

Цель использования интерактивных методов обучения – вызвать интерес к предмету, подготовить обучаемых к выполнению своих будущих профессиональных обязанностей.

Итак, только в комплексе реализуя коммуникативную, социокультурную, языковую компетенции, можно добиться серьезных результатов в обучении школьников русскому языку.

Список литературы

1.Арутюнов Ю. С. Методика разработки конкретных ситуаций. Москва, 1980.
2.Борисова Н. В., Соловьева А. Деловые игры. Москва, 1992.
3.Вербицкий А. А. Современные тенденции развития и обучения. Москва, 1983.
4.Смолкин А. И. Методы активного обучения. Москва, 1991.
5. Елухина, Н.В. Обучение аудированию в русле коммуникативно-ориентированной методики /Н. В. Елухина // Иностранные языки в школе. – 1989. – №2.

"BIG DATA" VIZUALIZATSIYA TASVIR USULLARI

Hilola Numanovna ANVARBEKOVA
Magistr talabasi
Axborot texnologiyalari va kompyuter injiniringi fakulteti
Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
xilolaanvarbekova@gmail.com

Asqar Jiyanbekovich RUZIBAEV
t.f.n., katta o‘qituvchi
Axborot texnologiyalari va kompyuter injiniringi fakulteti
Axborot texnologiyalari bo‘limi
Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

 DOI: 10.36078/1653410391

Izoh: Maqolada katta ma'lumotlar massivlari bilan ishlash, katta ma'lumotlar tahlilini vizualizatsiya qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Katta ma'lumotlar massivlarini vizualizatsiya qilish usullari.

Kalit so‘zlar: Data Mining, Visual Mining, Big Data.

Data Mining usullaridan foydalangan holda ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida olingan natijalar har doim ham inson idroki uchun qulay emas. Turli tasniflash yoki assotsiatsiya qoidalarida, matematik formulalarda odamning yangi va foydali bilimlarni tez va oson topishi juda qiyin. Axborotning murakkabligi tufayli bu har doim ham bilimlarni ifodalashning eng oddiy grafik shakllarida, masalan, qarorlar daraxtlari, datagramlar, ikki o‘lchovli grafiklarda mumkin emas. Shu munosabat bilan tahlil natijalarini aks ettirishning yanada murakkab vositalariga ehtiyoj bor. Bularga vizual ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari kiradi, ular xorijiy adabiyotlarda ko‘pincha Visual Mining atamasi deb ataladi.

Vizual ma'lumotlarni tahlil qilishning asosiy g'oyasi - ma'lumotlarni qandaydir vizual shaklda taqdim etish, bu odamga ma'lumotlarga sho‘ng'ish, ularning vizual tasviri bilan ishlash, ularning mohiyatini tushunish, xulosalar chiqarish va ma'lumotlar bilan bevosita o‘zaro aloqada bo‘lish imkonini beradi.

"Katta ma'lumotlar" vizualizatsiyasi ("Big Data Visualization", "Large Data Visualization") ilmiy va axborot vizualizatsiya sohalarini nazarda tutadi.

Birinchi holda, "katta ma'lumotlar" turli ob'ektlar va jarayonlarni kompyuterda murakkab modellashtirish natijasida yuzaga keladi.

Ikkinchisida ko‘plab kategorik ma'lumotlarni to‘plash va qayta ishlash jarayoni natijasida olingan mavhum ma'lumotlarning vizual tavsifi va taqdimoti mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish bir nechta miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanishni talab qiladi.

Katta ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish natijalarini tavsiflovchi ishlar nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. Ular orasida Intelning "katta hisob" [1] natijalarini vizuallashtirishga bag'ishlangan "Oq kitobi", kompyuter vizualizatsiyasi va inson-kompyuter o‘zaro ta'siri sohasidagi taniqli mutaxassis B. Shnaydermanning "o‘rnatish" nashri bor. [2] va katta ma’lumotlarni vizuallashtirishga bag‘ishlangan maxsus nashrga kirish [3].

Vizualizatsiya usuli g'oyalarning "tug'ilishi" ga hissa qo‘shadigan, nazariy va tajribani umumlashtirish, tahlil qilishga qaratilgan murakkab tushunchalarni tushunishga yordam beradigan tizimli, qoidaga asoslangan, dinamik va / yoki statik grafik tasviri sifatida qaraladi. Ya'ni, usullarning asosiy g'oyasi

Vizualizatsiya - bu inson mutaxassisiga ma'lumotni qabul qilish va tahlil qilish uchun qulay bo‘lgan shaklda katta hajmdagi ma'lumotlarni taqdim etishdir.

 DOI: 10.36078/1653410391

E'tibor bering, [3] hammualliflaridan biri, Devisdagi Kaliforniya universiteti professori K.-L. Ma (Kvan-Liu Ma), hozirda katta ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish bo‘yicha yetakchi mutaxassis. U ko‘plab ilmiy maqolalarning hammuallifi, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi konferensiyalar, seminarlar va ma’ruzalar tashkilotchisidir.

"Katta ma'lumotlar" kontseptsiyasini ma'lumotlarni qayta ishlashning ba'zi cheklovchi (hozirgi) holatlari bilan bog'lash mumkin, bunda tahlil va vizualizatsiyaga universal yondashuvlar ishlamaydi. Keyinchalik, ko‘p o‘lchovli va ko‘p toifali ma'lumotlar, katta hajmli ma'lumotlar, to‘liq bo‘lmagan ma'lumotlarga ega bo‘lgan ma'lumotlar katta ma'lumotlar deb hisoblanishi mumkin. Cheklovchi holat oldinga siljish uchun javob berilishi kerak bo‘lgan muammolarni shakllantiradi. Rivojlanayotgan muammolarni hal qilish bugungi "katta ma'lumotlar" ertangi kunning normasi ekanligiga olib keladi.

"Katta ma'lumotlar" ni vizualizatsiya qilish vazifalari orasida quyidagilar ko‘rib chiqiladi:

 ma’lumotlar oqimlarini vizuallashtirish;

 vizual ma’lumotlar qazib olish (Visual data mining);

– vizual qidiruv va tavsiyalar (Visual qidiruv va tavsiyalar);

 vizualizatsiya yordamida katta ma’lumotlarga asoslangan vaziyatlarni tavsiflash (Vizualizatsiya yordamida katta ma’lumotlarni hikoya qilish);

 parallel vizualizatsiyaning kengaytiriladigan usullari.

Vizual tahlilning foydaliligi, agar tadqiqotning o‘zi to‘liq aniqlanmagan bo‘lsa va ma'lumotlarning o‘zi haqida etarli ma'lumot bo‘lmasa. Shunday qilib, vizual ma'lumotlarni tahlil qilish gipotezalarni yaratish jarayoni deb aytishimiz mumkin. Shu tarzda yaratilgan gipotezalar Data Mining yordamida avtomatik ravishda tekshirilishi yoki aniqlashtirish uchun yana vizual tahlilga murojaat qilishi mumkin.

Ushbu yondashuv ikkita asosiy afzalliklarga ega:

heterojen va shovqinli ma'lumotlar bilan ishlash oson, ko‘pgina avtomatik ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari buni qila olmaydi;

vizual tasvirlar yordamida ma'lumotlarni taqdim etish intuitivdir va murakkab matematik yoki statistik algoritmlarni talab qilmaydi. Ko‘p vazifalar

Jadval **1.**

Vizualizatsiya usuli	Bir o‘lchovli	ko‘p o‘lchovli	matnlar/gipermatnlar	Ierarxik boglangan strukturalar	Algoritmlar va dasturlar	Katta ma’lumotlarni qayta ishlash

DOI: 10.36078/1653410391

						big data
Standart 2D/3D obrazlar	+	-	-	-	-	-
Geometrik transformatsiyalar	+	+	-	-	+	+
Yorliqlarni tasvirlash	-	+	+	-	-	+
Piksellarga yo‘naltirilgan usullar	+	+	+	+	+	+
Ierarxik tasvirlar	+	+	-	+	-	-

Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilishning eng yaxshi va universal usulini ajratib bo‘lmaydi, chunki har bir usul o‘z maqsadlari uchun mo‘ljallangan va faqat tadqiqotchi o‘z muammolarini hal qilish uchun mos usulni mustaqil ravishda tanlashi mumkin.

Hech qanday vizualizatsiya usuli, albatta, mukammal emas va boshqa hech qanday ma'lumotlarni tahlil qilish usuli o‘z-o‘zidan mukammal emas. Ammo tadqiqotchi har doim maksimal bilim va tajribaga ega bo‘lish uchun ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning turli usullarini birlashtirish imkoniyatiga ega. Shuni ham unutmaslik kerakki, yangi axborot texnologiyalar rivojlanishiga turtki beradi, yangi texnologiyalar esa axborotdan olingan bilim sifatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Keim D. Qu H., Ma K.-L. Big-Data Visualization // IEEE Computer Graphics and pplications.July/August 2013. Pp. 50-51.

2. Авербух В.Л., Байдалин А.Ю., Васев П.А., Исмагилов Д.Р., Зенков А.И., Манаков Д.В., Перевалов Д.С., Шагубаков М.Р. Задачи визуализации параллельных вычислений. // Вопросы атомной науки и техники. Сер. Математическое моделирование физических процессов. 2002. Вып. 3. Стр. 40-

3. Feldman R., Sanger J. T he T ext Mining Handbo o k, Cambridge Univers it y Pres s, 2007

 DOI: 10.36078/1653410391

MASHINA TARJIMA TIZIMLARI, ULARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Gulchehra Ishankulovna ARIPOVA
Katta o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
gulchehraaripova2020@gmail.com

Annotatsiya. Mashina tarjima tizimlarning ishlashi turlicha tashkil etilgan tamoyillarlga asoslangan texnologiyadan foydalangan holda tarjimalarni amalga oshiradi. Ushbu tezisda hozirda Internet foydalanuvchilari orasida eng ommabop bo‘lgan mashina tarjimasi tizimlari, mashina tarjimasi tizimi uchun ma’lumotlar bilan ta’minlashning turlari, mashina tarjima tizillarining afzalliklari va kamchiliklari batafsil muhokama qilinadi .

Kalit so‘zlar: kompyuter texnologiyasi, tezaurus, axborot tizimi, informasion-qidiruv tili, ideografik (mazmuniy) lug’at turlari, bibliografik ma’lumotlarni, glossariylar, konkordanslar, Socrat va Stylus dasturlari, Promt dasturi, Google Translate, Magic Goodi dasturi.

XXI asrda insoniyat faoliyatinining juda katta qismi axborot bilan bog’liq bo‘lib, axborotni uzatish, yig’ish, qayta ishlash katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Jadal rivojlanayotgan fan, texnika davrida juda katta hajmdagi axborot ustida tezlik bilan ishlash va uni samaradorligini oshirishning yagona yo‘li kompyuter vositasida amalga oshirishdir. O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab tabiiy tildagi matnlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash matematik lingvistikaning markaziy muammosiga aylandi. Bizning yangi asrimiz axborotlar asri bo‘lganligi ushun tabiiy tildagi axborotlarni mashinalar yordamida qayta ishlash, ko‘proq og’irlikni ular zimmasiga yuklash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki o‘z vaqtida olingan axborot juda qimmatli, dolzarbligini yo‘qotgan axborot qimmatini ham yo‘qotadi. Shu sababli tabiiy tilni mashina qay darajada chuqurroq tushunsa, yetkazilgan axborot qadri shunshalar baland bo‘ladi. Tabiiy tilagi axborotni mashinaga kiritish, axborotni mashinada qayta ishlash va iste’molchiga yetkazish ma’lum jarayonlarni o‘z ishiga oladi.[1]. Jadal rivojlanayotgan fan, texnika davrida juda katta hajmdagi axborot ustida tezlik bilan ishlash va uni samaradorligini oshirishning yagona yo‘li kompyuter vositasida amalga oshirishdir. Bu o‘z navbatida hamma sohalarning kompyuterda ishlashga moslashtirilgan ko‘rinishlarini yaratishni taqozo qiladi.

 DOI: 10.36078/1653410391

Hozirgi paytda injenerlik lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi, matematik lingvistika va “elektron tarjimon”, kompyuter lingvistikasi yuzasidan bir qator yangi muammolar o‘rtaga tashlanmoqda. Darhaqiqat, zamonaviy kompyuter juda ulkan imkoniyatlarga egaki, uning uchun shaxmat o‘ynashdan tortib, tibbiy tashxis qo‘yish, korxonalarni boshqarish, qadimgi xalqlarning sirli xatlarini “o‘qib”, mazmunini so‘zlab berish, she’r yozish, kuylar ijro etish, katta hajmdagi kitoblarga annotatsiyalar yozish, loyihalar tarxini chizish kabi yuzlab mehnat faoliyati turlarining barchasida, albatta, zamonaviy kompyuter texnologiyalari ham ishchi kuchi, ham vaqt jihatidan juda yaqin yordamchi sanaladi. Bunda odam + mashina + odam hamda odam + matn + mashina + odam tizimlari asosida ulkan hajmdagi operatsiya (ish)lar bajariladi.[2]

Hozirgi vaqtda kompyuter yordamida tilshunos olimlar so‘zlarni bir joyga to‘plash, ularga qayta ishlov berish, shu asosda turli xil lug’atlar, tezauruslar, rubrikatorlar, glossariylar, so‘zlashgichlar yaratish bilan shug’ullanmoqdalar. Umuman, atamalarni to‘plash va ularga qayta ishlov berish jarayonida kelib chiqqan katta amaliy ehtiyoj tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan kengroq foydalanish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Tilshunoslikda tarjima tizimlaridan foydalanish, asosan, quyidagi yo‘nalishlar uchun xizmat qilmoqda:

a) mashinaviy tarjima muammolari bilan shug’ullanish;
b) lug’atshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va ixchamlashtirish;
c) bibliografik ma’lumotlarni avtomatik yo‘l bilan qidirish va ularga qayta ishlov berish va hokazo.

Bu ishlar natijasida tilshunoslikda tadbiqiy (amaliy) lingvistika deb nomlangan yangi yo‘nalish vujudga keldi. Bu yo‘nalishda kompyuter lingvistikasiga ham katta o‘rin ajratilgan. Yirik tilshunos olim I.V.Arnoldning fikricha, leksikografik ma’lumotlarni avtomatlashtirish, ularni to‘plash va qayta ishlash natijasida bir tilli va ko‘p tilli lug’atlar, glossariylar hamda konkordans (yagona muallif tomonidan yaratilgan lug’at)larning butun bir avlodini ishlab chiqildi va nashr qilindi[3]. Hozirgi vaqtda K.Bernxart (AQSH), Dj.Lich (Angliya), Yu.N.Marchuk, L.N.Belyaeva, G.G.Smirniskiy (Rossiya) kabi olimlar tilshunoslikning turli xil nazariy hamda amaliy masalalarini hal qilishda, ayniqsa lug’atshunoslikda kompyuter tex’nologiyasidan samarali foydalanmoqdalar. Hozirgi vaqtda tarjima tizimlari madaniyatlararo muloqot jarayonida asosiy funktsiyani amalga oshirib, insoniyatga foydali va kerakli ma'lumotlarni to‘plashda qiyinchiliklarni yengishga imkon beradi. [4].

Bugungi kunda kompyuterni tarjima qilish tizimlari sun'iy aql tizimlari sinfiga to‘g'ri keladi, chunki ular inson aqlining alohida funktsiyalarini bajaradilar: ular kirish matniga asoslangan chiqish tilida matnni ishlab chiqadilar va ma'lumotlar tuzilmalari va

DOI: 10.36078/1653410391

algoritmlari shaklida berilgan muayyan qoidalar to‘plamidan foydalanadilar. Avtomatik tarjima dastur vositalarini shartli ravishda ikkita asosiy toifaga bo‘lish mumkin. Birinchi toifa kompyuter lug’atlaridan iborat. Kompyuter lug’atlarining vazifasi oddiy lu’atlar vazifasi bilan bir xil: noma'lum so‘z mazmunini anglatadi. Kompyuter lug’atlarining afzalligi kerakli so‘z mazmunini avtomatik izlash va topishning qulayligi va tezligida ko‘rinadi. Avtomatik lug’at, odatda, so‘z tarjimasini berilgan klavishlar kombinasiyasini bosish orqali so‘zlarni tarjima qilish imkonini beradi. Lug’at nafaqat so‘zlar, balki tipik so‘z birikmalarini ham o‘zida jamlashi mumkin. Ikkinchi toifaga to‘liq matnni avtomatik tarzda tarjima qilishga imkon beruvchi dasturlar kiradi. Ular bir tildagi (xatosiz tuzilgan) matnni qabul qilib, boshqa tildagi matnni beradi. Ish jarayonida dastur qamrovli lug’atlar, grammatik qoidalar majmui va dastur nuqtai nazaridagi eng sifatli tarjimani ta'minlovchi boshqa omillardan foydalanadi.

Ushbu vositalardan foydalangan holda dasturlar boshlang’ich matndagi gaplarning grammatik tarkibini tashlil qiladi, so‘zlar orasidagi aloqani topadi va jumlaning boshqa tildagi to‘g’ri tarjimasini qurishga intiladi. Gap qancha qisqa bo‘lsa, tarjima shuncha to‘g’ri chiqishiga imkon yaratiladi. Uzun gaplar va murakkab grammatik gap tuzilishlarida tarjima sistemasi yaxshi natijaga olib kelmasligi mumkin. Hozirda dunyoda ingliz tilidan boshqa tilga va boshqa tildan ingliz tiliga avtomatik tarjima qiluvchi dasturlar keng qo‘llanilyapti. Bu ingliz tilining xalqaro muloqot borasida yetakchi rol o‘ynayotganligi bilan izoshlanadi. Ingliz tili o‘rganish uchun ancha qulay va sodda, lekin uning soddaligi avtomatik tarjima tizimlari uchun kutilmaganda qo‘shimcha qiyinchiliklar tug’diradi.

Hamma gap shundaki, ingliz tilidagi bir xil yozilgan so‘zlar ko‘pincha nutqning turli qismlariga tegishli bo‘ladi. Bu gapning grammatik tahlilini qiyinlashtiradi va avtomatik tarjimadagi qo‘pol xatolarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Yaqin kunlargacha bizlarga ma’lumotlarni ingliz tiliga tarjima qilish qiyin masala edi. Qiyinchiligi asosan ko‘p vaqt ketishida va tarjima qilishda ko‘p xatolarga yo‘l qoyilishida edi. Vujudga kelgan bunday muammoni hal etish uchun turli tarjimon dasturlar yaratildi. Dast avval faqat ingliz tilidan rus tiliga va aksincha rus tilidan ingliz tiliga tarjima qiluvchi dasturlar yaratildi. Bunday dasturlarga Magic Goody va Promt kiradi. Hozirgi kunda maxsus tarjimon saytlar ham Internet global tarmog’ida royxatdan o‘tkazilgan.

Mashina tarjimasi jarayoni matnni tarjima qilish uchun uni tahlil etish, ya’ni morfologik, sintaktik nuqtai nazaridan o‘rganib chiqishni taqozo qiladi. Mashina tarjimasi tizimi uchun ma’lumotlar bilan ta’minlashning ushbu 5 turi zarur:

- lingvistik ta’minot (matnni taxlil va sintez qilish uchun grammatik hamda semantik ma’lumotlarni beruvchi avtomatik lug‘atlar);

 DOI: 10.36078/1653410391

– matematik-algoritmik ta’minot (matnga ishlov berish algoritmlari va ma’lumotlar va algoritmlarni qayd qilish uchun qoidalar tizimi);
– dasturiy ta’minot (tarjima algoritmini amalga oshiruvchi va qo‘shimcha dasturlar);
– informatsion ta’minot (tegishli fan sohalariga doyr ma’lumotlar bazasi);
– mantiqiy ta’minot (matnni fan sohasiga doyr ma’lumotlar bilan taqqoslash uchun mantikiy xulosalar usullari) zarur bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda Rossiyada ham, shu jumladan respublikamizda ham quyidagi vositalar keng qo‘llanilmoqda. Rus tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan rus tiliga avtomatik tarjima qilish tizimlaridan Socrat va Stylus kabi dasturlar keng tarqalgan. Stylus, shubshasiz, tarjimada yana ham yuqori sifat va o‘zgaruvchanlikni ta'minlaydi. Stylus dasturining so‘nggi versiyasi o‘z nomini o‘zgartirdi va u endi Promt deb ataldi.

Promt dasturi universal, shu bilan birga ixtisoslashgan lug’atlardan iborat bo‘lib, ulardan foydalanishni boshqaruvchi vositalarni o‘z ichiga oladi. Bironta ham lug’atga kirmagan so‘zlar tarjimasini mustaqil ravishda aniqlab, iste'mol lug’atida saqlaydi. Bundan tashqari, Promt dasturi xususiy ismlar va tarjima qilish talab etilmaydigan boshqa so‘zlar, masalan, qisqartma so‘zlar bilan ishlash qoidalarini ko‘rsatish imkonini ham beradi. PROMT "qoidalar bo‘yicha tarjima" deb ataladigan printsipga muvofiq ishlaydi va shaxsning tarjima faoliyatini nusxalaydi.

"Google Translate" tizimi statistika tamoyiliga asoslangan texnologiyadan foydalangan holda tarjimalarni amalga oshiradi.

Socrat va – Magic Goodi tarjimon dasturlari yordamida faylda joylashgan yoki bevosita kiritilgan matnlarni tarjima qilish mumkin. Magic Goodi dasturida kompyuterga o‘rnatilgach ekranda sho‘x o‘rdak paydo bo‘ladi va gapiradi. Ovozini eshitish uchun multimediya vositalarini ulab qoyishimiz kerak bo‘ladi.

Mashina tarjima tizimlarining afzalliklari

- mutaxassisliklar bo‘yicha lug'atlar, tezkor qidiruv, bir nechta oynalardagi joy, bir vaqtning o‘zida bir nechta tarjima variantlarini ko‘rib chiqish imkoniyati;
- foydalanuvchi o‘z lug'atini yaratish qobiliyati;
- Microsoft Office matn muharriri bilan bog'lanish, bu asl nusxadan va uning tarjimasidan ajralmasdan tarjima qilish uchun mos keladigan o‘yinlarni tanlashga imkon beradi;
- turli tillardan tarjima qilish qobiliyati
- kompakt, kompyuterdagi deyarli cheksiz ma'lumotlarning mavjudligi
- qidiruv tezligi

DOI: 10.36078/1653410391

Mashina tarjima tizimlarining kamchiliklari

- ekran o‘lchamlari bilan bog'liq cheklangan tekshiruv, ochilgan katta lug'at, ayniqsa, ko‘p ma'nolarga ega bo‘lsa, darhol juda ko‘p so‘z qiymatlarini ko‘rish imkonini beradi;
- lug'atlar-tarjimonlar grammatika, stilistika va so‘z birikmalariga rioya qilmaydi, so‘zlarning o‘yinini, badiiy texnikani hisobga olmaydi;
- ko‘pincha matn tarjimonlari kontekstga mos kelmasligi mumkin bo‘lgan juda qimmatli so‘zning qiymatlaridan birini tanlaydi;
- lug'atda so‘z bo‘lmasa, uni tarjima qilmasligi;
- elektron lug'atlar-tarjimonlar ko‘pincha so‘zni boshqa tilga tarjima qilish uchun bir nechta variantni berishadi, bu esa muayyan lug'aviy yozuvlardagi farqni tushuntirmasdan, bu yerda bir yoki bir nechta yozishmalarni to‘g'ri tanlashni qiyinlashtirilganligi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, mashina tarzima tizimlari odamni almashtira olmaydi. Tarjimon dasturlari va lug'atlardan foydalanish tarjimada katta yordam berishi va tarjimonning ishini osonlashtirishi mumkin. Matn tarjimonlari texnik mazmundagi matnlarni tarjima qilishda ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Aripov, A. Xaydarov, N. Muxitdinova. Algoritm asoslalari va algoritmik tillar (ma`ruzalar matni). Toshkent, 2000.

2. Ikromova H.Z. Inson - kompy uter - kelajak. Toshkent: O‘zbekiston, 1991. B. 8-24.

3. Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языка. Казань: Изд-во Казанского университета, 1989. С. 8-24.

4. Usacheva A.N. Perevod: ot lingvisticheskoy teorii k kognitivnoy modeli [Translation: From Linguistic Theory Towards a Cognitive Model]. Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2, Yazykoznanie [Science Journal of Volgograd State University. Linguistics], 2011, no. 1 (13), pp. 131-137.

TA’LIM SOHASIGA OID TEZAURUSLAR YARATISHNING ISTIQBOLLARI

Dilbar Esanovna ALIQULOVA
informatika fani o‘qituvchisi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshidagi akademik litsey
aliqulova1973@gmail.com

 DOI: 10.36078/1653410391

Nargiza BEKMUHAMMEDOVA
katta o‘qituvchi
O‘zMU

Annotatsiya. Tezauruslar ma’lum sohada bo‘lgan vaziyatda tushunarli, aniq, stilistik jihatdan to‘g‘ri so‘zni topish imkoniyatini yaratibgina qolmay, balki tematik kompyuter ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tezauruslarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda ushbu tilda kamida bir marta uchraydigan barcha so‘zlar mavjud va har bir so‘z ostida ushbu tilda mavjud bo‘lgan matnlardan barcha iqtiboslar berilgan. Ta’lim sohasidagi tezaurus – bu ta’lim tashkilotlari rahbarlari, o‘qituvchilar, talabalar, qo‘shimcha ta’lim xodimlari, barcha pedagogikaga qiziqadigan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi uchun mo‘ljallangan tarbiya va ta’lim nazariyasi hamda amaliyoti bo‘yicha o‘quv qo‘llanmadir. Bu o‘quv qo‘llanmaning maqsadi - o‘qituvchilik faoliyatiga yordam berish, ta’lim tizimida va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida amaliy ishlarni tashkil qilish uchun kontseptual apparatni o‘zlashtirish va ko‘p qirrali ma’lumotlardan foydalanish, shaxsning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va tajribasi, shuningdek, professional qadriyatlar va madaniyat, uzluksiz kasbiy ta’lim va o‘z-o‘zini mustaqil o‘qitish jarayonida subyekt-kasbiy sohani o‘zlashtirish natijasini o‘z ichiga olgan professional tezaurus ochiq tizimini yaratishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: tezaurus, professional tezaurus, uzluksiz kasbiy ta’lim, tezaurus maydoni, kompyuter lingvistikasi.

Annotation. Thesauruses not only provide an opportunity to find an understandable, clear, stylistically correct word in a situation in a particular field, but also serve as the basis for the formation of a thematic computer database. The uniqueness of the thesauruses is that they contain all the words that occur at least once in the language, and under each word are all the quotations from the texts that exist in this language. The thesaurus in the field of education is based on the theory and practice of education and training for heads of educational institutions, teachers, students, additional education workers, the system of social protection of the population interested in all pedagogy is a study guide. The purpose of this manual is to support the teaching activity, to master the conceptual apparatus and the use of multifaceted information to organize practical work in the education system and social development of society, the professional knowledge of the individual skills and experience, as well as the creation of a professional thesaurus open system that incorporates professional values and culture, the result of mastering the subject-professional field in the process of continuous professional education and self-education.

 DOI: 10.36078/1653410391

Keywords: thesaurus, professional thesaurus, continuing professional education, thesaurus field, computer linguistics.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy, ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari va yangi-yangi lug‘atlarning nashr etilayotgani jamiyatimiz tafakkurini yuksaltirmoqda. Biroq minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda birlamchi manba bo‘lish, ya’ni axborot olish va berish hayotiy zaruriyatga aylandi. Axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga yetkazishning qulay usullariga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Bu esa XX asrning buyuk kashfiyoti bo‘lgan kompyuter texnologiyalari sohasi uchun katta vazifalarni vujudga keltirdi va tillarning taraqqiyoti hamda yashab qolishi uchun hal qiluvchi omilga aylanib qoldi.

Tilning internet, kompyuter texnologiyalari tiliga aylanishi matematik lingvistika, uning davomi bo‘lgan kompyuter lingvistikasining shakllanganligi va rivojlanish darajasi bilan bog‘liq.

Bizning ona tilimizning o‘z alifbo va imlosiga, davlat tili maqomiga egaligi, 30 milliondan ziyod so‘zlashuvchisi borligi kishini xushnud qiladi. Biroq achchiq bo‘lsa-da, ta’kidlash kerakki, uning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tili darajasiga ko‘tarilmayotgani, bu borada na nazariy, na amaliy va na tashkiliy ishlar olib borilayotgani uning ham mazkur xavfdan butkul xoli emasligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilining mavqeini ko‘tarishga, uni takomillashtirishga xizmat qiladigan, tilshunoslikning yangi yo‘nalishlariga oid tadqiqotlar yuzaga keldi. Tilning ijtimoiy qiymatini, uning jamiyat bilan munosabatni yorituvchi sotsiolingvistika, nutq jarayonining psixik tabiati, nutqning reallashuviga qadar bo‘ladigan jarayon haqida bahs yurituvchi psixolingvistika, tilning qiymati, tilda xalq dunyoqarashi, madaniy munosabatlar, urf-odat, an’analari ifodasini tahlil qiluvchi lingvokulturologiya, tilning globallashuv jarayoniga mos holda takomillashuviga xizmat qiladigan kompyuter lingvistikasi sohalariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan jamiyatga xizmat qiluvchi tezkor axborot uslubini shakllantirish, o‘zbek tilidagi tarjima, avtomatik tahrir dasturlarini yaratish borasida izlanishlarga keng yo‘l ochildi.

Eng quvonarlisi, Mahmud Koshg‘ariy faxrlanib, taraqqiy etib borayotganligini ta’kidlagan, Yusuf Xos Hojib e’tibor qilishga da’vat qilgan, Alisher Navoiy o‘ziga xosligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlagan o‘zbek tilining keng imkoniyatlarga ega ekanligi fundamental tadqiqotlarda namoyon bo‘lmoqda.

 DOI: 10.36078/1653410391

Jahon miqyosida kechayotgan integratsiya va globallashuv jarayonida o‘zbek tilini dunyoviy tillar darajasiga olib chiqish hayotiy zaruratlardan biri bo‘lib qoldi. Mazkur katta, mas’uliyatli, o‘ta muhim maqsadni amalga oshirishda kompyuter texnologiyalariga, xususan, kompyuter lingvistikasi (KL)ga bo‘lgan ehtiyoj yana ham ortib bormoqda. Chunki aynan kompyuter lingvistikasi o‘zbek tilining jahon miqyosiga olib chiqilishi, o‘zbek tilining ham dunyoviy tillardan biriga aylanishi, uni o‘rganish va o‘rgatish ishlarining takomillashuvi uchun zarur imkoniyat yaratadi.

Ayni paytda Google translate tarjima dasturi tarkibida o‘zbek tili ham bo‘lsa-da, matnlarni morfologik va sintaktik jihatdan xato tarjima qiladi. Internetda o‘zbek tilining mukammal bazasi yaratilsa, ona tilimizdagi matnlarni boshqa tillarga ham tarjima qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘zbek tilining tezaurus, ontologiyasi hamda matn korpuslarini yaratish ham xuddi shunday muhim masalalardandir.

Tezaurus – bu odamga yoki kompyuterga bemalol o‘tishga imkon beradigan, ma’lum bilimlar sohasi to‘g‘risidagi to‘liq tizimlashtirilgan ma’lumotlar, semantik munosabatlarni (aloqalarni) ko‘rsatuvchi, berilgan mavzu maydonini tavsiflovchi atamalar to‘plami, sinonimlar, omonimlar, umumiy munosabatlar kabi terminlarning aloqalari haqida qo‘shimcha ma’lumotga ega lug‘at, tartibga solingan, boshqariladigan so‘z birikmasi, bu munosabatlarning standart ko‘rsatkichlari yordamida ekvivalentlik, homografiya, ierarxiya va assotsiatsiya munosabatlarini aniq belgilovchi va aniqlovchi yozma yoki boshqa qabul qilingan hujjatlarni indeksatsiyasidir.

Tezaurus boshqa manbalarni tasniflashdan tashqari, mustaqil bilimlar bazasi sifatida yaratilishi va ishlatilishi mumkin, bunda ma’lum tushunchalarning fan sohasidagi o‘rni ko‘rsatiladi.

"Tezaurus" (thēsaurós) so‘zi yunon tilidan kelib chiqqan va tom ma’noda o‘zbek tiliga qo‘riqxona (xazina) sifatida tarjima qilingan, umumiy ma’noda – maxsus terminologiya, aniqrog‘i mazmunan – lug‘at, ma’lumot to‘plami, korpus yoki to‘plam, maxsus sohaning tushunchalari, ta’riflari va atamalarini to‘liq qamrab oladi.

Atrofdagi dunyoni tasvirlash uchun ishlatiladigan tabiiy til haqidagi barcha tushunchalar dunyoning universal tezaurusini ifodalaydi, bu bizning bilim olamimizni aks ettiradi. Umumiy tezaurusni bir xil tushunchalarni ierarxik darajasiga ko‘ra ajratib ko‘rsatish yoki dunyoning istalgan qismini tasvirlab beradigan tushunchalarni ajratib ko‘rsatish orqali xususiy tezaurusga ega bo‘lish mumkin. Shunday qilib, universal tezaurusga asoslangan fan va texnikaning turli sohalari, individual muammolar va vazifalar bo‘yicha cheksiz ko‘p tezaurus tuzish mumkin.

Tezaurus, ayniqsa, elektron formatda, muayyan mavzularni tasvirlashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Izohli lug‘atdan farqli o‘laroq, tezaurus ma’noni nafaqat

3. Индивидуально-художественный стиль и его исследование / [В.А. Кухаренко, К.А. Горшкова, Л.Л. Емельянова и др.]; под общ. ред. В.А. Кухаренко. Одесса: Вища школа, 1980. 168 с.
4. Anthony, L. AntConc (Version 3.5.9). – Tokyo: Waseda University, 2020. – URL: https://www.laurenceanthony.net/software (дата обращения: 08.05.2022).
5. The American Presidency Project. – URL: https://www.presidency.ucsb.edu/ (дата обращения: 08.05.2022).

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ

Неъматулла Абдукаритмович ГУЛБАЕВ
Техника фанлари номзоди, доцент
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти
Algoritm20@mail.ru

Маржона Ўктам қизи АМИРОВА
Талаба
ЎзДЖТУ
Marjonaamirova02@gmail.com

Аннотация. Сўнгги пайтларда таълим жараёнида масофавий таълимнинг ўрни тобора кенгайиб бормоқда. Тезисда ушбу таълимнинг муаммолари ва ечимлари муаллиф тажрибасидан келиб чиққан ҳолда таҳлил қилинган ва муаммони ечиш ҳақида фикрлари келтирилган.

Калит сўзлар: таълим, ахборот, масофавий таълим, интернет, дидактик тизим.

 DOI: 10.36078/1653410391

Республикамизда ахборот технологияларининг таълим жараёнига кириб келиши ва бошқа баъзи бир кутилмаган шароитларнинг пайдо бўлиши(карантин) анъанавий ўқитиш усулларига қўшимча равишда янги ўқитиш шакли - *масофавий* ўқитиш яратилишига ва таълим жараёнига кириб келишини тезлаштирди. Масофадан ўқитиш давр талаби.

Инсоният йигирма биринчи аср бошларида ҳам бир туркум муаммоларга дуч келди, улар бевосита ахборот телекоммуникация соҳасидаги жиддий ўзгаришлар ва ривожланиш билан боғлиқ. Таълимга янги ахборот коммуникация воситалари кириб кела бошлади. Интернет глобал компютер тармоғини ривожланиши Республикамиз таълим тизимида янги йўналишларнинг очилишига сабаб бўлмоқда ва қуйидагиларга туртки бўлди:

- ўқув муассасаларининг техник таъминотини кескин ўзгартириш;
- дунёвий ахборот ресурсларга йўл очиш;
- ўқитишнинг янги шакл ва усулларини яратиш ва бошқалар.

Масофавий таълимда таълим олувчи ва ўқитувчи фазовий бир-биридан ажралган ҳолда ўзаро махсус яратилган ўқув курслари, назорат шакллари, электрон алоқа ва Интернетнинг бошқа технологиялари ёрдамида доимий мулоқотда бўладилар. Интернет технологиясини қўллашга асосланган масофавий ўқитиш олий таълим ахборот таълим тармоғига кириш имконини беради.

Масофавий ўқитиш барча таълим олиш истаги бўлганларга ўз малакасини узлуксиз ошириш имконини яратади ва ўқитиш жараёнида таълим олувчи интерактив режимда мустақил ўқув-услубий материалларни ўзлаштиради. Ўқитувчининг бевосита раҳбарлигида назоратдан ўтади, назорат ишларини бажаради ва гуруҳдаги бошқа таълим олувчилар билан мулоқотда бўлади.

Масофавий ўқитишда турли хил ахборот ва коммуникация технологияларидан фойдаланилади. Масалан, анъанавий босма усулига асосланган ўқитиш воситалари (ўқув қўлланма, дарсликлар) талабаларни янги материал билан таништиришга асосланса, интерактив аудио ва видео конференциялар маълум вақт орасида ўзаро мулоқотда бўлишга, електрон почта тўғри ва тескари алоқа ўрнатишга, яъни хабарларни жўнатиш ва қабул қилишга мўлжалланган. Олдиндан тасмага муҳрланган видеомаърузалар таълим олувчиларга маърузаларни тинглаш ва кўриш имконини берса, факсимал алоқа, хабарлар, топшириқларни тармоқ орқали тезкор алмашиниш таълим олувчиларга ўзаро тескари алоқа орқали ўқитиш имконини беради.

Юқоридагиларга асосланиб, таълим жараёнига оид айрим терминлар тавсифи ва таърифларни келтириб ўтамиз.

DOI: 10.36078/1653410391

Масофавий таълим – масофавий ўқитишга асосланган таълим.

Масофавий ўқитиш – ўзаро маълум бир масофада Интернет технология ёки бошқа интерактив усуллар ва барча ўқув жараёнлари компонентлари – мақсад, мазмун, метод, ташкилий шакллар ва ўқитиш усулларига асосланган таълим олувчи ва ўқитувчи ўртасидаги муносабат.

Масофавий ўқитиш тизими – масофавий ўқитиш шартлари асосида ташкил етиладиган ўқитиш тизими. Барча таълим тизимлари сингари масофавий ўқитиш тизими ўзининг таркибий мақсади, мазмуни, усуллари, воситалари ва ташкилий шаклларига ега.

Масофавий ўқитишнинг педагогик технологиялари – танланган ўқитиш концепциясига асосланган масофавий таълимнинг ўқув-тарбиявий жараёнини таъминловчи ўқитиш методи ва услублар мажмуаси.



Масофадан ўқитишнинг дидактик тизими

Келинг, энди масофадан ўқитишнинг дидактик тизимидан фойдаланган ҳолда мақсадга ўтайлик. Масаланинг қуйидаги қисмларига эътибор берамиз ва улар бўйича муаммоларни ва уларнинг ечими топишга ҳаракат қиламиз.

1. Масофавий ўқитиш мақсади — масофавий ўқитиш жараёнининг олдиндан башоратланадиган натижаси ва унинг аниқловчи компоненти ҳисобланади, мақсадлар асосан таълим мазмунини белгилайди;

DOI: 10.36078/1653410391

Муаммо:	**Ечим:**	**Изоҳ**
1. Талабаларнинг ўзлаштириш даражаси паст	Таълим мазмунидан келиб чиққан ҳолда ечиш лозим. Масалан: маъруза ва амалий дарсларнинг бўлиниш пропорцияси. 30/70 балким 10/90.	Фанлар бўйича тадқиқотлар ўтказиш талаб қилинади.
...	**...**	**...**
2. Гуруҳлардаги ўзлаштиришда жуда катта фарқ	Гуруҳ таркибидаги иқтидор талабаларни гуруҳларга тўғри тақсимлаш.	Тадқиқот ўтказиш талаб қилинади.
...	**...**	**...**

2. Масофавий ўқитишни ташкил қилиш.

Муаммо:	**Ечим:**	**Изоҳ**
1. Техник таъминот бўйича: *Интернет ишламаяпди.*	Масалан: Худудда тармоқ йўқ.	Муаммони ҳал қилиш механизми ишлаб чиқилади.
...	**...**	**...**

DOI: 10.36078/1653410391

2. Дастурий таъминот бўйича: *Конфренцияга улана олмадим.*	Масалан: Ссилка юборилмаган ёки олмаган.	Хабардорлик назорати кучайтирилади.
...	**...**	**...**
3. Ташкилий, ижтимоий, иқтисодий...	**...**	**...**

3. Масофавий ўқитиш воситалар:

Масофавий ўқитиш жараёнида ўқитиш воситалари ўқув мазмунини тақдим этиш, таълим олувчиларнинг ўқув фаолиятини назорат қилиш ва бошқаришга хизмат қилади.

Воситалар. билим олиш, кўникмаларни шакллантириш манбаси масофавий ўқитиш жараёнида ҳисобланади. Кенгроқ маънода ўқитиш воситалари масофавий ўқитиш тизимида таълим мақсадларига эришишга ёрдам берувчи барча воситалар ўқув ва кўргазмали қўлланмалар, ўқув материалларини намойиш қилиш учун қурилмалар, техник воситалар тўплами назарда тутилади.

Муаммо:	**Ечим:**	**Изоҳ**
1. Маълумотларни қаердан олиш?	Масалан: ўқув ва кўргазмали қўлланмалар билан таъминлаш	Муаммони ҳал қилиш механизми ишлаб чиқилади.
2. Маълумотларни узатиш.	ўқув материалларини намойиш қилиш учун қурилмалар олиш.	Йиллик режага киритилиши лозим
3. ...	...	...

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, масофавий ўқитишнинг умумий устувор мақсадлари таълим олувчиларнинг интеллектуал ва билиш фаолликларини

DOI: 10.36078/1653410391

рағбатлантириш, ўқув мотивациясини кучайтириш, мустақил таълим олиш қобилиятлари ва кўникмаларини ривожлантиришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили. // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг – 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намояндалари билан учрашувидаги маърузаси.
2. Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Фан, 2009 . – 145 б.
3. Ибраймов А.Е. Масофавий ўқитишнинг дидактик тизими. – Тошкент: “Lesson press”, 2020, 112 б.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТАБИИЙ ТИЛЛАРНИ БИР - БИРИГА ЯҚИНЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Неъматулла Абдукаримович ГУЛБАЕВ
Техника фанлари номзоди, доцент
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти

Ҳ.М. ЭШПЎЛАТОВА
ўқитувчи
ЎзДЖТУ

Назира ИСАҚУЛОВА
Олмалиқ шаҳар 80 сонли ихтисослаштирилган
махсус интернат мактаб

Аннотация. Тезис ахборот технологиялари ва автоматик таржима тизимларини бир-бирига яқинлаштириш масалаларига бағишланган бўлиб, ахборот технологияларининг автоматик таржима тизимидаги ўрни кўрсатилган. Бу соҳадаги ечими кутилаётган масалалар аниқлаштирилган.

Калит сўзлари: технология, таълим, ахборот, интернет, таржима, автоматик таржима.

DOI: 10.36078/1653410391

Узоқ йиллар давомида ривожланган инсон тафаккури учун бугунги кунда бирламчи манба, яъни ахборот олиш, топиш, сақлаш, қайта ишлаш ва бошқаларга узатишнинг қулай усулларига бўлган эҳтиёж кун сайин ошиб бормоқда. Бу эса XX асрнинг кашфиёти бўлган ахборот технологиялари соҳаси учун катта вазифаларни вужудга келтирди.

Республикамизда табиий тиллар ривожланиши масаласи ахборот технологияларида ҳам асосий ўринни эгаллайди. Табиий тилларнинг ривожланишида ахборот технологиялари асосий ўринни эгаллайди, чунки табиий тилларни компьютерда ифодалаш орқали мулоқот тизимини яратиш ва ривожлантириш долзарб масалалардан биридир.

Ахборот технологиялари ва табиий тилларни бир-бирига яқинлаштириш масаласига қаратилган ҳаракатлар зое кетмаяпти, йиллар ўтиб бу соҳада амалий ишлар қилинишига тамал тоши бўлди.

XX асрнинг ўрталарида бир табиий тилдаги матнни иккинчи бир табиий тилга автоматик таржима қилишда ахборот технологияларидан фойдаланишга катта эътибор қаратилди. Ахборот технологиялари асосида бир тилни унинг махсус дастурлари асосида ўргатиш, билимларни тестдан ўтказиш, матнни таҳрирлаш каби амалий ишлар кун талаби бўлиб қолди.

Ахборот технологияларини кейинги йилларда тилшунослик ва бошқа фанларнинг “чорраҳаси”да юзага келган фанлардан бири деб қараш мумкин. Бундай ҳолни фанлар тизимидаги бир нечта фанларнинг ўзаро ҳамкорлиги деб баҳолаш мумкин. Интернет тизимининг жамиятимиз турли жабҳаларига кенг татбиқ қилиниши халқаро миқёсда ахборот алмашинув муаммоларини етарли даражада хал қилинишига асос бўлди.

Бугунги кунда ахборот технологиялари билан боғлиқ жараёнлар бошқа соҳалар қаторида биринчи галда бутун таълим соҳасини ҳам қамраб олди.

Республикамизнинг турли таълим муассасаларида тахсил олаётган ёшларимиз ахборот-коммуникацион технологиялар ёрдамида жаҳон маданияти, дунёнинг турли мамлакатларида эндигина куртак отаётган ёки ривожланишда давом этаётган тараққиёт марказлари билан виртуал оламда ўзаро юзма-юз келмоқда. Бундай улкан ахборот майдонига эркин кириб бориш, дунёда юз бераётган турли воқеа ва ҳодисалардан хабардор бўлиш, оламшумул кашфиёт ва янгиликлардан воқиф бўлиш учун ёшларимиз хорижий тиллардан ҳеч бўлмаганда иккитасини мукаммал эгаллаши лозимлигини ҳаётнинг ўзи тақоза этмоқда.

Талабаларга тил ўргатиш борасида қўшимча имкониятларни яратиш мақсадида таржима системасига оид дастурий маҳсулотлар ҳам етарли миқдорда ишлаб

DOI: 10.36078/1653410391

чиқилганки, улар ёрдамида талабалар нафақат чет тилини, балки ўз она тилини ҳам мукаммал тарзда ўрганишлари мумкин.

Таржима тизимига оид интерактив интерфейс асосида яратилган дастурларга “электрон таржима тизимлари”, “автоматик таржима тизимлари” ёки қисқача қилиб “таржимон дастурлар” деб аталади.

Бугунги кунда кенг тарқалган автоматик таржима тизимлари вазифасига қараб қуйидагиларга бўлинган:

- Таржима йўналишлар: Рус<= >Инглиз; Рус<= >Ўзбек ва бошқалар;
- Луғат заҳираси миллиондан ортиқ базага эга бўлган, матнни ўқиб бериш учун ўзига хос товуш эффектига эга тизимлар;
- WEB – саҳифаларда ишлашга мўлжалланган тизимлар;
- WEB – саҳифалардаги тўлиқ матнни белгилаб олган ҳолда кўрсатилган тилларга on-line режимда таржима қилишга мўлжалланган тизимлар ва бошқалар.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ахборот технологиялардан унумли фойдаланган автоматик таржима фойдаланувчиларга қисқа муддатда иш унумдорлигини кескин ошириш, гапларни талаффуз қилиб бериш ва шунга ўхшаш бир қатор имтиёзлар бериши билан ижобий сифатларга эга бўлса-да, унинг масалалари ичида ўз ечимларини кутаётган масалалар ҳам мавжуд. Масалан:

- Сўзлар автоматик таржима жараёнида тўғридан – тўғри таржима қилинади ва шу боис баъзи синонимлар, синтаксис қоидалари ўз ўрнига тўлиқ тушмаслик;
- Автоматик таржима услуб жиҳатдан матнни яна бир марта таҳрирлаб чиқиш;
- Айрим сўзлар бирикувини нотўғри таржима қилиш ва бошқалар.

Бу масалаларни бартараф қилиш учун қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

- ахборот технологиялари фанини яхши ўзлаштириш;
- компьютер лингвистикаси фанини олий таълимнинг кўпгина таълим йўналишларига жарий этиш;
- компьютер лингвистикаси фанини компьютерлашган синфларда ўтиш;
- компьютер лингвистикаси бўйича илмий тадқиқот ишларига эътибор бериш ва бошқалар.

DOI: 10.36078/1653410391

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Норов А. Компьютер лингвистикаси асослари. Ўқув-услубий қўлланма. Қарши, 2017, 128 б.
2. Гулбаев Н.А., Ахмедов Б. Умумий ўрта таълим мактабларида компьютер техникасининг ўрни // "Умумтаълим мактабларида аниқ фанларни ўқитиш методикаси" мавзусида илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти. Чирчиқ, 2019.
3. Гулбаев Н.А., Эшпулатова Ҳ.М. Умумтаълим мактабларида бошқарув масаласининг ўрни // "Ўқитувчининг касбий компетентлилигини оширишда инновацион ёндашувлар: муаммо ва ечимлар" мавзусида республика илмий-амалий анжумани. Тошкент вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази. 2019 йил 20 ноябрь.

INGLIZ TILIDAGI MATNLARNI INTELLEKTUAL TAHLIL QILISH USULI

Muftox Xamidovich HAKIMOV
professor
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Akbar Abdisalimovich OMONOV
«Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar» fakulteti magistranti
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
akflamx05@mail.ru

Ochilbek Obidjon o'g'li YULBARSOV
mustaqil tadqiqotchi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti
uzochilbek91@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda ingliz tilidagi gaplarni intellektual tahlil qilish usuli, ingliz tilidagi gap turlari bo'yicha gapning vaznini aniqlash va boshqa tabiiy tillardagi gaplarning vaznlari bilan moslashtirish masalasi muhokama qilinadi.

 DOI: 10.36078/1653410391

Kalit so‘zlar: ingliz tili, so‘z turkumlari, tabiiy til, kengayuvchi kirish tili, tarjima, dasturlash texnologiyalari, intellektual tahlil, mantiqiy-lingvistik model, matematik model, algoritm, vazn.

Ikkita tabiiy tillardagi mathlarni tarjimasini amalga oshirish keltirilgan monografiyaga [1, 156.] asosan quyidagi yiriklashtirilgan algoritm ketma-ketligida amalga oshiriladi:

1. Dasturiy ta’minotini bajaruvchi tizimda foydalaniladigan bazalar:

– ingliz tilidagi so‘z turkumlari bo‘yicha baza;

– kengayuvchi kirish tilidagi belgilar bilan nomlangan ingliz tilidagi so‘z qo‘shimchalarining turli xildagi bazalari.

2. Har bir tarjima qilinadigan matn (1-rasm EVX) gap turlari (E1-E4) bo‘yicha morfologik, sintaktik va semantik tahlil qilinadi (Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada qilishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan model asosida).

3. Har bir gap – tokenizatsiya (bo‘laklarga – shartli ravishda “so‘zlarga” ajratiladi) qilinadi.

4. Ajratilgan har bir so‘z morfologik, sintaktik va semantik usullar asosida intellectual tahlil qilinadi va so‘z turkumi, so‘z qo‘shimchalari aniqlanadi.

5. Intellektual tahlil natijalari so‘z turkumlaridan tuziladigan T2 to‘plamiga jamlanadi.

6. Intellektual tahlil natijalari va kengayuvchi kirish tili asosida avtomatik tarzda:

– tahlil qilingan har bir so‘zning mantiqiy-lingvistik modellari;

– tahlil qilingan gap turining mantiqiy-lingvistik modeli yaratiladi.

7. Avtomatik tarzda yaratilgan so‘zlar va gapning mantiqiy-lingvistik modellari asosida kengayuvchi kirish tilidan foydalangan holatda avtomatik tarzda gapning matematik modeli yaratiladi va chop etiladi (faylda saqlanadi).

8. 2 – 7 qadamlar, kiritilgan matn to‘liq tahlil bo‘lguncha takrorlanadi (1-rasm).

 DOI: 10.36078/1653410391



1-rasm

Ushbu rasmda: EVX – tahlil jarayoni uchun kirish matni (masalan, ingliz tilidagi gap); E1 – darak gaplar; E2 – so‘roq gaplar; E3 – undov gaplar; E4 – inkor gaplar; T2 – tarjima qilinagan tildagi so‘zlar to‘plami (masalan, ingliz tilidagi); T3 – tarjima qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar to‘plami (masalan, o‘zbek tilidagi); EVIX – tarjima qilingan gaplar konstruktsiyalari (masalan, o‘zbek tilidagi matn).

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlik asosida T2 – tarjima qilinagan tildagi so‘zlar to‘plami (masalan, ingliz tilidagi) va T3 – tarjima qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar to‘plami (masalan, o‘zbek tilidagi) o‘rtasida to‘gri bog’liqlik yoki tanlanishda muammo yuzaga kelishi mumkin. Bu muammoni xal qilish uchun T2 va T3da to‘plangan gap turlari (E1, E2, E3, E4), ya’ni darak, so‘roq, undov, inkor gaplarning o‘z vaznlarini aniqlash kerak bo‘ladi.

Bunda xar bir gap turida ishtirok etgan so‘zlar so‘z turkumlari bo‘yicha quyidagicha raqamlanadi (Ingliz tilida so‘zlarning so‘z turkumlariga bo‘linishi boshqa tillarnikidan farq qilishi mumkin, shu sababli, so‘zlarning so‘z turkumlarga bo‘linishi boshqa tillardagi so‘z turkumlariga mos kelishi uchun so‘z turlari ishlatilishi yoki miqdorini xisobga olgan xolda tartiblandi):

Mustaqil so‘z turkumlariga

- ot so‘z turkumiga tegishli so‘zlar – 0,1;
- sifat so‘z turkumiga tegishli so‘zlar – 0,2;
- fe’l so‘z turkumiga tegishli so‘zlar – 0,3;
- ravish so‘z turkumiga tegishli so‘zlar – 0,4;
- olmosh so‘z turkumiga tegishli so‘zlar – 0,5;

DOI: 10.36078/1653410391

• son so‘z turkumiga tegishli so‘zlar – 0,6;

va mustaqil bo‘lmagan so‘z turkumlariga (ya’ni, yordamchi so‘z turkumlari)

• boshqa so‘z turkumlari – 0,7.

Masalan:

1-jadval

0,7	0,5	0,1	0,5	0,7	0,3	0,1	0,1	0,4	0,7	0,4
On	this	website	you	can	learn	Oracle	Database	fast	and	easily

Yuqorida (1-jadval) keltirilgan gap darak gap bo‘lib, unda ishtirok etgan so‘zlarning raqamlar yig’indisi 0,45 ni tashkil qiladi. Bu yig’indi o‘z navbatida ushbu gapning vazni xisoblanadi.

Ushbu gap vazni T3 ya’ni, chiqish tilida mavjud gaplarning matematik modellari orasidan ushbu vaznga maksimum mos keladigan vaznlar asosida tarjima qilinadi.

2-jadval

0,5	0,1	0,5	0,1	0,2	0,1	0,4	0,7	0,4	0,3	0,3
Ushbu	veb-saytda	siz	Oracle	berilganlar	bazasini	tez	va	oson	o‘rganishingiz	mumkin

Ushbu (2-jadval) tarjima qilingan gap xam darak gap bo‘lib, lekin unda ishtirok etgan so‘zlarning raqamlar yig’indisi 0,36 ni tashkil qildi.

Ko‘rib turganingizdek, misol keltirilgan Ingliz tilidagi darak gapning vazni O‘zbek tiliga tarjima qilingan darak gapning vaznidan farq qildi.

Endi xuddi shu Ingliz tilidagi gapni Rus tilidagi vaznini ko‘rib chiqamiz (3-jadval):

3-jadval

0,7	0,5	0,1	0,5	0,7	0,4	0,7	0,4	0,3	0,1	0,1	0,1
На	этом	веб-сайте	вы	можете	быстро	и	легко	изучить	базу	данных	Oracle

Gapning vazn yig’indisi 0,46 ni tashkil qildi.

Morfologik tahlil, ya’ni, darak gaplarning 1-tur mantiqiy-lingivistik modellari asosida, 3 ta tildagi so‘zlar so‘z turkumlari bo‘yicha bir xil raqamlanishiga qaramasdan, misol keltirilgan (1, 2, 3-jadvallar) gaplarning vaznlari bir-biridan farq qildi. Bunga sabab tabiiy tillardagi gaplarning tuzilish tartibi xar xilligidir, ya’ni, morfologik jihatdan so‘z turlari bo‘yicha bir xil so‘z turkumiga kirishi mumkin, lekin gapda kelish tartibi xar xil bo‘ladi.

DOI: 10.36078/1653410391

Yuqorida tahlil qilingan 3ta tillardagi gaplarning vazn yig'indisi bir-biridan farq qildi. Bu esa o‘z navbatida monografiyada keltirilgan har bir so‘z va gaplarning yasalish modellari asosida so‘z va gaplarning vaznlarini aniqlashni talab qiladi.

So‘zning, masalan, “ot” so‘z turkumiga tegishli deylik, vazn koeffisenti 0,1 va yoniga qaysi jadvaldagi qo‘shimcha qo‘shilgan bo‘lsa, o‘shaning nomeri, masalan, 2 jadvaldagi 3- qo‘shimcha bo‘lsa, unda so‘zning vazni 0,1023 bo‘ladi. 1 raqamidan keyingi 0 bu vaznning og'irlashmasligi va uning qo‘shimchasini ajratish uchun qo‘yiladi. Ana shu tarzda ingliz va o‘zbek tilidagi har bir gap va bir yo‘la so‘z modellarining vazni aniqlanadi (4, 5, 6-jadvallar).

Shu tartib bo‘yicha yuqorida vazni aniqlangan 3 tildagi gaplarni vaznini aniqlashtiramiz:

4-jadval

0,7029	0,50	0,10	0,50	0,70	0,30	0,10	0,10	0,40	0,70	0,405
On	this	website	you	can	learn	Oracle	Database	fast	and	easily

vazn yig'indisi: 4,5079

5-jadval

0,7021	0,5023	0,105	0,50	0,70	0,40	0,70	0,40	0,30	0,1018	0,10	0,10
На	этом	веб-сайте	вы	можете	быстро	и	легко	изучить	базу	данных	Oracle

vazn yig'indisi: 4,6112

6-jadval

0,50206	0,10292	0,50184	0,10	0,20281	0,10301 0,0294	0,40	0,70	0,40	0,30312 0.01014	0,30
Ushbu	veb-saytda	siz	Oracle	berilganlar	bazasini	tez	va	oson	o‘rganishingiz	Mumkin

vazn yig'indisi: 3,6553

3 ta tildagi gaplarning vazn koeffisienti o‘rtasidagi farq belgilangan qiymatdan [2, 23] oshmasligi uchun boshqa so‘z turkumlariga tegishli so‘zlar vazni 0,07 ga o‘zgartirildi va tadqiqot ishlari olib borildi [3, 22] hamda shu usulda vazn koeffisientlari o‘rtasidagi farq belgilangan qiymat oralig'ida ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хакимов М.Х. Технология многоязыкового моделируемого компьютерного переводчика (Технология ММКП) // LAMBERT Academik Publishing, Монография, г. Рига, 2019. - С. 156.

 DOI: 10.36078/1653410391

2. Khakimov M. Kh., Sirojiddinov Z. Sh. Computer algorithmization in multi-language modelled translator technology // Modern problems of applied mathematics and information technologies al-Khwarizmi, 2021. – P. 23
3. Khakimov M. Kh., Omonov A. A. Computer algorithmization of models of english sentences in translator system // Modern problems of applied mathematics and information technologies al-Khwarizmi, 2021. – P. 22

ИҚТИСОДИЙ ТАЪЛИМ БЕРИШДА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Хикоят Мусакуловна ИСРАИЛОВА
Катта ўқитувчи
Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника
университети Олмалиқ филиали
Х.М. ХОШИМОВ
7а-18 КЭМ талаба

Ш.И. ИНОМОВ
1б-20Мет талаба

Аннотация. Мазкур мақолада иқтисодий саводхонликни оширишда талабаларнинг интеллектуал салоҳиятини такомиллаштиришда замонавий инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш масалаларига бағишланган бўлиб, унда иқтисодчи мутахассисларн инновацион фаолиятга тайёрлашда илғор педагогик ва ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш самарадорликлари, ўқитишнинг ноанъанавий усуллари, ахборот коммуникацион технологиялари асосида иқтисодий таълимни ривожлантириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: иқтисодий таълим, инновация, инновацион технологиялар, ахборот коммуникацион технологиялар, иқтисодчи мутахассис, ноанаънавий таълим,таълим технологияси.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралда “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5349-сонли Фармони қабул қилинди. Фармонда ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасида кадрларни тайёрлаш, қайта

 DOI: 10.36078/1653410391

тайёрлаш ва малакасини оширишнинг амалдаги тизими IT-технологиялар ривожланишининг тезкор суръатларини ҳисобга олмаяпти, шунингдек, таълим беришнинг илғор услубларини жорий этиш учун хорижий мамлакатларнинг етакчи таълим муассасалари билан самарали мулоқотни ташкил қилиш имконини бермаётганлиги муаммо сифатида таъкидланган.[2] Мазкур муаммоларни ҳал қилишда етакчи хорижий компаниялар ва таълим муассасаларининг энг яхши амалиёти асосида ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасида стратегик ва лойиҳа бошқаруви, менежмент, маркетинг бўйича илмий тадқиқотлар ва [3]ишланмаларни, кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ҳамда малакасини оширишни ташкил қилиш устувор йўналиши белгиланган.

Айнан замонавий алоқа ва инновацион технологиялари тизимини кенг кўламда ривожлантириш мамлакатимиз ва жамиятимизнинг тараққиѐт даражасини кўрсатадиган мезонлардан бири бўлиб хизмат қилади. Таълимда самарали ислоҳотларни амалга ошириш талаб этилаѐтган ҳозирги даврда эса фан-техника тараққиѐти, янги технологик революция шароитида муваффаққиятли фаолият юрита оладиган жамият аъзоларини етиштириб бериш, ѐш авлодни мутахассисликка йўналтиришда давлат хизматини ҳамда ўрта таълимнинг кўп вариантли учинчи босқичини жорий этиш, таълим мазмунини яхшилашда педагогик воситаларни кўллаш, таълимда ташаббускорлик ва ижодкорликка кенг йўл очиш, унинг муҳим тизимларини яратиш каби хориж тажрибаларини ўрганиш айни муддаодир. Ривожланган хорижий давлатларда таълимнинг, мамлакат ички сиѐсатига фаол таъсир этадиган ижтимоий жараѐн эканлиги эътироф қилинган ҳақиқатдир. Шу туфайли ҳам хориж мамлакатларида таълим эҳтиѐжини иқтисодий таъминлашга ажратилаѐтган маблағ миқдори йилдан-йилга ортиб бормоқда. Ўзбекистон мустақил давлат сифатида турли соҳаларда ислоҳотларни амалга ошира бошлади. Олий таълим тизими ислоҳотлари устувор йўналишлардан бири сифатида белгиланди.

Ҳозирги кунда ёшлар вазиятни танқидий таҳлил қилиши ва мавжуд зарур бўлган ахборотларни таҳлил қилиш асосида оқилона қарорларни қабул қилиши лозим. Танқидий фикрлаш қобилияти маълум бир ўқув муҳитида шаклланиши лозим. Танқидий фикрлаш қизиқувчанликни намоён этиш ва тадқиқот усулларидан фойдаланишни англатади. Танқидий фикрлаш маълум бир масала бўйича нуқтаи назарни ишлаб чиқиш ва мантиқий далиллар билан ушбу нуқтаи назарни ҳимоя қилишни кўзда тутади. Танқидий фикрлашга эга бўлар экан, инсон у ёки бу ғоялар

---

[2] “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil 231 4/2020 (№ 00048) http://iqtisodiyot.tsue.uz

DOI: 10.36078/1653410391

билан танишади ва уларни амалга ошириш бўйича мумкин бўлган оқибатларни кўриб чиқади. Танқидий фикрлаш асосида анъанавий билиш жараёни индивидуалликка эга бўлади ва англаб етилган, узлуксиз ва маҳсулдор бўлади. Таълим олувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш учун қуйидаги шарт-шароитлар зарурдир:

– танқидий фикрлаш бўйича тажрибаларга эга бўлиш учун вақт ва имконият;
– ўқув жараёнида таълим олувчиларнинг фаоллигига кўмаклашиш;
– турли хил ғоя ва фикрларни қабул қилиш;
– кулгили ҳолатга тушмаслиги тўғрисида талабаларни ишонтириш;
– ҳар бир ўқувчи танқидий фикрлашга қодир эканлиги тўғрисидаги ғояни сингдириш;
– танқидий фикрлаш кўринишларини қўллаб-қувватлаш.[4]

Таълим олувчида танқидий фикрлашни ривожлантириш вазиятни баҳолаш, асосланган қарорларни қабул қилиш, ўзгараётган мураккаб ҳаётнинг мазмунини тушуниб етиш, шахсни ўсиши учун шароитлар яратишга имкон беради.

Иқтисодий таълимдаги миллий таълим технологиялари биринчи навбатда инсонпарварлик тамойилига асосланади. Ушбу йўналишнинг асосий фарқ қилувчи томони бўлиб, унда талабанинг индивидуаллигига (иқтисодиёт соҳасидаги бўлажак мутахассис, унинг шахси, алоҳида хусусиятларини эътиборга олган ҳолда мустақил фаол билим олиш фаолиятига аниқ йўналтирилганлик) алоҳида эътибор қаратилишидир.

Иқтисодий таълимда қўлланиладиган замонавий усуллардан бири бўлиб, модулли ўқитиш ҳисобланади. Педагогика ва методикада модуль бутун тизимнинг муҳим қисми сифатида қаралади ва уни билмаслик дидактик тизимнинг ишламаслигига олиб келади. Модулли ўқитиш ўқув ахбороти, таълимнинг мазмуни ва ўқувчилар ишини тўлиқ, мантиқий тугалланган ўқув блоклари (модуллари) асосида ташкил этишни қатъий структуралашни кўзда тутади. Модулнинг номи ўқув фанининг мавзуси билан мос келади. Бироқ модулда мавзудан фарқли равишда барча нарсалар (топшириқлар, ишлар, давомат, ўқувчиларнинг дастлабки оралиқ ва якуний билим даражалари) эътиборга олинади ва баҳоланади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, жамиятнинг замонавий ахборот технологияларини эгаллаган юқори малакали мутаҳассисларга бўлган эҳтиёжи таълим сиёсатининг етакчи омилига айланиб бормоқда. Ўқитувчининг фаолияти

[4] “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil

DOI: 10.36078/1653410391

унинг ахборотлардан хабардорлиги ва ахборотлардан самарали фойдаланиш қобилиятига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлмоқда. Демак, биринчидан, Замонавий мутахассис ахборот оқимларида эркин йўналиш олиши учун компьютерлар, телекоммуникация ва ахборотнинг бошқа воситалари ёрдамида ахборотларни олишни, қайта ишлашни ва улардан фойдаланишни билиши лозим

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5349-сонли Фармони. https://www.lex.uz/docs/3564970 “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil 242 4/2020 (№ 00048) http://iqtisodiyot.tsue.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4699-сонли Қарори. https://lex.uz/docs/4800657

3. Ғуломов С., Бегалов Б. Информатика ва ахборот технологиялари. Т.: Фан, 2010.

4. Тожибоева Д. Иқтисодий педагогика. Т.: Фан ва технологиялар, 2008.

5. Ҳакимова М., Файзуллаева Д. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. ЎУМ. Т.: Иқтисодиёт, 2016.

6. Файзуллаева Д., Мамажонов И. Касбий таълим услубиёти. Ўқитувчининг нутқ маданияти. ЎУМ, Т.: Иқтисодиёт, 2017, 28 б.

KUTUBXONA AXBOROT TIZIMIDA STATISTIK MA’LUMOTLAR OLISH VA TAHLIL QILISH

Dustmurod Mamasoli o‘g‘li JOMURODOV
Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish kafedrasi katta o‘qituvchisi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Alisher Hasan o‘g‘li TOJIYEV
Ta’limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi magistranti
Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Kutubxona faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ushbu sohani jivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tizim orqali to‘plangan

DOI: 10.36078/1653410391

ma’lumotlarni qayta ishlash orqali taqdim etilayotgan ma’lumotlar orqali kutubxona faoliyati qanday holatda ekanligiga baho beriladi va kitobxonlarga xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Kutubxona, axborot tizimi, texnologiya, statistika, ma’lumot.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy sohalarda tub o‘zgarishlar jarayoni har qachongidan ham jadallashgan. Kundan-kunga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining hayotimizdagi roli oshib bormoqda. Bezirga XXI asr axborot texnologiyalari asri deb ta’rif berilmagan. Kundalik turmushimizda deyarli barcha sohalarda ma’lumotlar bilan ishlaymiz. Ma’lumotlarni to‘plash, saqlash va uzatishda axborot tizimi orqali katta natijalarga erish olamiz. Ushbu tizimning vazifasi inson ro‘lisiz ma’lumotlarni tahlil qilishdan iborat. Kutubxonada kitobxon va kutubxona xodimi(kitob beruvchi) o‘rtasidagi munosabatni tizimlashtirish vositasi yordamida to‘plab boriladigan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali kutubxona faoliyati va kitobxonlarga xulosalar beriladi. Shunday ekan shu va shu kabi axborot tizimini yaratish, hayotga tadbiq qilish dolzarb masalalarga aylandi [2].

Kutubxona axborot tizimida kitoblarni joylashtirish, qidirish va kitobni kitobxonga biriktirish hamda kitobxondan qabul qilish orqali tizimdagi to‘plangan ma’lumotlar turli xil ko‘rinishda saralanadi. kutubxonalarda kitoblar bilan ishlashda ma’lumotlarini to‘plash, saqlash, nazorat qilish va tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali kutubxonalarda o‘qilayotgan kitoblar, janrlar, yozuvchi va shoirlarga bo‘lgan talab, kitobxonlarning qiziqishlari haqidagi dolzarb axborotlarga ega bo‘lish, kitobxonlarni o‘qishi, qiziqishi, faolligi, dunyoqarashi kabi muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha turli guruhlarga ajratish, xulosalar chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Kutubxona axborot tizimi dasturiy ilova ko‘rinishida bo‘lib asosiy vazifasi kitoblarni joylashtirish va qidirishdan hamda shu jarayondagi har bir amalni ma’lumot sifatida saqlab, qayta ishlab, turli xil statistik ma’lumotlarni taqdim qilishdan iborat (1-rasm). Umuman olganda tizim kutubxonaga taaluqli barcha ma’lumotlarni saqlaydi. Ushbu tizimning qulaylik tomoni shundaki ortiqcha vaqt sarflamay ish sifatini yaxshilashdan iborat. Tizimning dasturiy ilova shaklida bo‘lishi tizim foydalanuvchilari uchun tushunarli va soda ish muhitini yaratib beradi [1].

 DOI: 10.36078/1653410391

1-rasm. Dasturiy ilovaning umumiy ko‘rinishi.

Ushbu tizim 9ta bo‘limdan iborat va har bir bo‘lim nomiga mos vazifa bajaradi. Har bir bo‘limga kirish tugmacha yordamida amalga oshiriladi.Masalan, Kitobxon bo‘limi kitobxonni ro‘yxatga olish, ma’lumotlarni tahrirlash, o‘chirish. Qolgan bo‘limlar ham shu vazifani bajaradi. Tizimning asosiy vazifasini Kitobxon+kitob va Statistika bo‘limlari bajaradi.

Kitobxon+kitob bo‘limi kutubxonaning kunlik ish faoliyatini olib borish uchun ishlatiladi. Bu bo‘lim quyidagicha ko‘rinishdan iborat:

Ko‘rinib turibdiki bu bo‘lim 2 ta qismdan iborat:

1.KITOBXON

2.KITOB

Kitobxon kim bo‘lish mumkin? Kitobxon har qanday shaxs, ya’ni kitob o‘qish xohishida bo‘lgan va kitobni qaytarib berish javobgarligini olgan fuqaro[4].

Bu bo‘lim kutubxona kunlik faoliyatida qanday ishlashini ko‘rib chiqamiz:

Masalan talaba, o‘quvchi yoki ixtiyoriy mutolaaga qiziquvchi shaxs ya’ni kitobxon tizimda ro‘yxatga olingan boshqach aytganda kutubxonaga a’zo bo‘lgan. Kitobxon kitob olish uchun kutubxonaga keladi, ism familiyasini aytib murojat qiladi. Kutubxona xodimi ushbu ma’lumotlar asosida kitobxonni yuqorida ko‘rsatilgan parametrlar bo‘yicha qidirib topadi. Ushbu qidirish algoritmi ma’lumotlar bazasining maxsus so‘rovlari yordamida berilgan. Agar bunday ismga ega bo‘lgan kitobxon bir nechta bo‘lsa boshqa parametrlar bo‘yicha qidiriladi yoki ro‘yxat ichidan aynan shu kitobxon tanlanadi.

DOI: 10.36078/1653410391

Xuddi shu usul bilan kutubxona bazasidan kitob qidirib topiladi va kitobxonga biriktiriladi.

Tizim kitobxonga tegishli bo‘lgan barcha ma’lumotlarni masala, nechta kitob olgan, qachon olib qachon qaytargan kabilarni o‘zida saqlaydi.

Tizmining yana bir asosiy vazifasini bajaruvchi Statistika bo‘limini ko‘rib chiqamiz. Tizim quyidagicha statistikalarni taklif qila oladi:

1.Kitobxonlar statistikasi

2.Kitoblar statistikasi

3.Muallif statistikasi

4.Janr bo‘yicha statistika

5.Nashriyot statistikasi

Bu statistika nima uchun kerak? Nima vazifa bajaradi? Qachon kerak bo‘ladi?

Bu statistika yillar mobaynida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish uchun juda muhim. Ma’lumotlar to‘plamini qayta ishlab ma’lum bir qoidalar asosida tartibga solinadi va statistik ma’lumotlar shakliga keltiriladi[3].

Statistika o‘qilgan yoki foydalangan kitoblar soniga qarab aniqlanadi. Bu holat yuqoridan pastga yoki aksincha holatda bo‘ladi.

Bu ikki holat nima uchun kerak?

Sifat ko‘rsatkichi raqamlarga qarab aniqlanadi. Raqamlar yuqori bo‘lsa demak “o‘sish bor” degan xulosaga kelamiz. Shu yo‘l bilan kitobxonlik tanlovini o‘tkazish maqsadida ko‘rsatkichi yuqori kitobxonni tanlash maqsadga muvofiq. Ko‘rsatkich past bo‘lgan kitobxonni kutubxonaga yanada jalb qilish, qiziqtirish yordamida turli xil tanlovlar o‘tkazib kutubxona reytingini oshirish mumkin. Bu o‘z navbatida kutubxonalar o‘rtasida raqobatni yuzaga keltiradi[5]. Hech birimizga sir emaski qayerda raqobat bo‘lsa o‘sha joyda rivojlanish, o‘sish bo‘ladi. Bu kabi fikrlar allaqachon o‘z tasdig‘ini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov U.F, Rahmatullayev M.A., Mo‘minov B., Karimov O‘.U. Axborot kutubxona muassasalari uchun dasturiy ta’minot(ARMAT++) Foydalanuvchilar uchun yo‘riqnoma, Toshkent, 2017.
2. B.I. Ganiyeva. Axborot-kutubxona katalogi va fondi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2017.
3. Qo‘chqorova N. Axborot-kutubxona fondlarini jamlash xizmati faoliyatining tahlili. “Infolib” axborot-kutubxona jurnali. 2020.
4. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent,2011.

 DOI: 10.36078/1653410391

5. Raimberdiyeva D. Mobil kutubxona. “Kutubxona.uz” ilmiy-uslubiy jurnal. №1 (45) 2020.

TO‘LDIRILGAN REALLIK TIZIMLARIDA VIZUAL VOSITALARNI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH

Dustmurod Mamasoli o‘g‘li JOMURODOV
Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish kafedrasi katta o‘qituvchisi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Alisher Hasan o‘g‘li TOJIYEV
Ta’limda axborot texnologiyalari mutaxassisligi magistranti
Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Tezisda virtual muhitda to‘ldirilgan reallik tizimlarid visual vositalarni yaratish va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ba’zi taklif va tavsiyalar keltirilgan. Virtual va to‘ldirilgan reallik texnologiyalari asosida visual vositalardan foydalanish metodikalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Virtual reallik, to‘ldirilgan reallik, axborot texnologiyalari, virtual ta’lim, virtual ob’yekt, dinamik markerlar

Bugungi kunda virtual va to‘ldirilgan reallik texnologiyalari nafaqat ta’lim tizimida balki ishlab chiqarishda, korporativ va sanoat muhitida foydalanish uchun keng imkoniyatlarni taklif qiluvchi yangi bozorlarni egallamoqda. Ishlab chiqarish va chakana savdo kabi sohalardagi korxonalar to‘ldirilgan va virtual reallikka 1 milliard dollardan ortiq mablag‘ sarflamoqda. Global to‘ldirilgan va virtual reallik bozori 2022 yilga kelib 151 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Kompaniyalar zamonaviy texnologiyalarni loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, paydo bo‘lgan muammolarni bartaraf etish va boshqalar uchun qo‘llaydi.

Bugungi AR/VR ilovalarining ba'zilari masofadan hamkorlik qilish, hamkasblarga murabbiylik qilish va yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish imkoniyatini ham taklif etadi. Ushbu masofaviy xizmat ko‘rsatish va hamkorlik ilovalari aerokosmik, ishlab chiqarish va neft va gaz kabi sohalarda keng qo‘llaniladi. Ular ma'lumotlarga kirish va tekshirish vaqtini qisqartiradi, bu esa samaradorlik va aniqlikni oshiradi.

 DOI: 10.36078/1653410391

AR/VR tomonidan taklif etilayotgan masofaviy hamkorlik, texnik xizmat ko‘rsatish va boshqarish usullari ishda xatolik yoki shikastlanish xavfini kamaytirishi mumkin. Shu sababli, ushbu VR yechimlari kimyoviy zavodlar yoki shamol turbinasi rotorlari kabi borish qiyin bo‘lgan joylar kabi xavfli joylarga masofaviy texnik xizmat ko‘rsatish va tekshirishni ta'minlash uchun mo‘ljallangan.

Misol uchun, Boeing muhandislari yig'ish bo‘yicha qo‘llanmalarni aqlli ko‘zoynaklar bilan almashtirgandan so‘ng, simlarni ishlab chiqarish vaqtini 25% ga qisqartirishdi. General Electric tabiiy gaz zavodlari texniklariga ko‘rsatmalarni ko‘rish va texnik xizmat ko‘rsatish vazifalarida masofaviy yordam olish imkonini beruvchi VR/AR ko‘zoynaklarini sinovdan o‘tkazmoqda.

Umuman olganda, masofaviy hamkorlik uchun VR/AR ilovalarini 4 toifaga bo‘lish mumkin:

Ma'lumotlarni qayta ishlash

Ushbu AR yechimlari, birinchi navbatda, ombor ishchilari tomonidan konteynerlardagi shtrix kodlarni o‘qish va ob'ektning mazmuni va maqsadi haqida ma'lumot berish uchun ishlatiladi.

Masofadan texnik xizmat ko‘rsatish

Ushbu VR/AR yechimlari tegishli ma’lumotlarni taqdim etuvchi va real vaqtda ta’mirlash bo‘yicha qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan masofaviy ishchining fikr-mulohazasi sifatida ko‘rsatmalar yoki tasvirlarni uzatadi.

Kengaytirilgan yig'ilish

VR/AR o‘rnatuvchilar tomonidan murakkab jarayonlarni kuzatish va barcha qismlarning to‘g'ri joyda va ketma-ketlikda yig'ilishini ta'minlash uchun ishlatiladi.

Masofadan tekshirish

VR / AR texnologiyalari mutaxassislar tomonidan o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan qismni suratga olish uchun foydalaniladi. Keyin ular ushbu ma'lumotlarni real vaqtda tegishli xodimga o‘tkazadilar.

Mobil texnologiyalar sohasida VR va AR yechimlarining integratsiyalashuvi tendentsiyasi kutilmoqda, chunki foydalanuvchilar kuniga 24 soat yonida bo‘ladigan bitta qurilmada keng imkoniyatlarga ega bo‘lishni xohlashadi. Ko‘pchiligimiz hayotimizni uyali aloqa va tezkor internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Boshqarish qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha uskunalar uchun pul to‘lashga tayyor bo‘lganlar kam. Shu sababli, mobil sanoatda VR va AR texnologiyalarining faol kengayishi iste'molchilarning ehtiyojlarini sezilarli qondiradi.

Tadqiqotlar natijalarida Yaponiyada chet tilini o‘rganishga juda original yondashilganligini kuzatish mumkin. Tokyo Shoseki nashriyot guruhi ingliz tilidagi o‘quv

 DOI: 10.36078/1653410391

qo‘llanmalari va smartfonda to‘ldirilgan reallikni qo‘llab-quvvatlaydigan mobil ilovalarni chiqardi. Kompaniya odatdagi o‘rganish olamiga yangicha qarashni taklif qiladi va odatdagi tanish ob’yektlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda biz odatlangan qo‘llanmalar metodikasi targ‘ib etmaydi. To‘ldirilgan reallik elementlariga ega bo‘lgan, amaliy xarakterdagi bosma ingliz tili o‘quv qo‘llanmalari interfaollik sohasida iPad ekranida chet tilini o‘rganishning odatdagi eng ilg‘or metodikalar bilan raqobatlasha oladi, shu bilan birga ta’lim tizimi uchun yanada qulayroq yechimlardan biri bo‘lib qoladi. “New Horizon” kitoblari seriyasini o‘rganayotganda, o‘quvchilar suhbatni eshitish yoki xayoliy chet elliklar bilan suhbatlashish uchun smartfonni sahifaning tegishli bo‘limiga yo‘naltirishlari mumkin. Qanday bo‘lmasin, qiziqarli suhbat davomida chet tilida gapirish qobiliyati audio yozuvlarni tinglashdan ko‘ra tezroq rivojlanadi [4].

Avvalo, to‘ldirilgan reallikning ko‘rgazmali qurollari haqida gapirganda, insonning ko‘rish organlariga ta’sir etuvchi vositalar to‘plamini – statik va dinamik 2D va 3D modellarni, axborot qatlamlari namunalarini, to‘ldirilgan reallik markerlarini shakllantirish haqida gapirish kerak. Bunday vositalar bu holatda ikkinchi darajali rol o‘ynaydigan ishonchli ma’lumotlar bilan to‘ldirilishi mumkin. Mavjud muharrirlar, konstruktorlar va texnologiyalar (masalan, dasturlash texnologiyasi) o‘qituvchilarga ham, ta’lim oluvchilarga ham ko‘rsatilgan turdagi oddiy vizual to‘ldirilgan reallik vositalarini yaratishga imkon berishini ta’kidlash muhimdir.

To‘ldirilgan reallik texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uni ta’limda, jumladan, kompyuterning fizik asoslari fanini o‘qitishda qo‘llashning to‘rtta usulini aniqlash imkonini beradi (1-rasm). Bunday usullar o‘rganilayotgan ko‘rgazmali vositalarni yaratish va ulardan foydalanishning asosiy yo‘riqnomalari rolini o‘ynashi mumkin.

DOI: 10.36078/1653410391



1-rasm. To‘ldirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish usullari

1-usul. Virtual ob’yektlarni real ob’yektlar bilan almashtirish. Bu usulning asosiy farq qiluvchi tomoni u ikki bosqichga bo‘linadi. Kompyuterning fizik asoslari kursini o‘rganishda dastlab talabalarga to‘ldirilgan reallik texnologiyalari asosida tashkil etilgan, virtual ob’yektlarni boshqarish orqali kerakli amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish imkonini beruvchi topshiriqlarni bajarish taklif etiladi. Amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari maqsadida tashkil etilgan to‘ldirilgan reallikning visual vositalari ustida berilgan amallarni muvaffaqiyatli bajarganlaridan so‘ng ularga real ob’yektlar ustida topshiriqlarni bajarishlariga ruxsat beriladi.

Bunday topshiriqlarga kompyuter arxitekturasini o‘rganish jarayonida kompyuter qurilmalarini yig‘ish masalasini misol qilish mumkin. Talabalar dastlab, o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yilgan markerlarni mos joylarga o‘rnatish kabi amallar bilan kompyuter qurilmalarini to‘ldirilgan reallik tizimlari yordamida yig‘adilar. Agar barcha amallar to‘g‘ri bajarilsa model kompyuterning ishga tushishini visual imitatsiyalaydi. Bu tayyorgarliklardan so‘ng talabalar haqiqiy kompyuterlarni yig‘ishni boshlashadi. Bunda ular endi haqiyqiy kompyuter qurilmalarini yig‘ish jarayonida barcha elementlarning qanday joylashishi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar, ularda komputerning alohida qismlarini o‘rnatish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllangan bo‘ladi.

Qo‘llanish sohasi: qimmatbaho yoki mo‘rt qurilmalar ishlatiladigan amaliy ishlarni bajarishga kirishishdan oldin.

 DOI: 10.36078/1653410391

2-usul. Real ob'yektlarni virtual ob'yektlarga almashtirish. Qo'llanilishiga ko'ra eng oddiy usul. To'ldirilgan reallik tizimlarining oldindan tayyorlangan visual ob'yektlari yordamida ta'lim oluvchilar marker o'rnida ixtiyoriy virtual ob'yektlarni ko'rishlari mumkin. Bunday tekis yoki hajmli (uch o'lchamli) visual ob'yektlar interaktiv ta'sirlashuv imkoniyatiga ega ham statik ham dinamik bo'lishi mumkin. Bu usulning asosiy afzalligi shundaki, kompyuterning fizik asoslarini o'rganishda to'ldirilgan reallik texnologiyalarini qo'llamasdan foydalanish qisman mumkin bo'lmagan ixtiyoriy ob'yektladan foydalanish imkonini beradi. Oddiy kompyuter modellari bilan ishlashdan farqli o'laroq, kengaytirilgan reallik texnologiyasi yordamida o'rganilayotgan ob'ektlarni "visuallashtiruvchi" mavjud markerlarni manipulyatsiya qilish orqali bajarilgan ishni real sharoitlarga yaqinlashtirish mumkin bo'ladi.

"Kompyuter arxitekturasi" mavzusini o'qitishda foydalaniladigan ushbu turdagi namoyishga misol sifatida belgilangan markerda tasviri hosil bo'ladigan kompyuter qattiq diskining 3D modelini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, bunday modelni turli burchaklardan ko'rish, masshtab va turli elementlarni o'zgartirish mumkin.

Qo'llanish sohasi: turli sabablar (narxi, xavfsizligi, o'lchamlari) ga ko'ra o'qituvchi va talabalar uchun foydalanish chegaralangan ob'yektlar bilan ishlashda.

3-usul. Dinamik markerlarni qo'llash. Bu usulda to'ldirilgan reallik markerlari elektron qurilma ekranida namoyish etilib, ta'lim oluvchilar harakati bilan bog'liq ravishda o'zgarib turadi. O'z navbatida to'ldirilgan reallik qurilmalari bu o'zgarishlarni hisobga oladi. Bunday usul dinamik jarayonlarda ob'yektlarning kerakli interaktivlik darajasiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Dinamik marker turli holatlarga ega bo'lishi mumkinligi sababli, u turli boshqariladigan qurilmalarni simulyatsiya qilishi mumkin. Ushbu usul to'plamdan bitta ob'ektni tanlash kerak bo'lganda ham mos keladi. Bu modellashtirishni real faoliyatga yaqinlashtirishga, shuningdek, o'qitish uchun zarur bo'lgan resurslar ro'yxatini qisqartirishga erishadi.

Bu usulni qo'llashga misol qilib Wi-Fi kabi simsiz kompyuter tarmoqlarining xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan topshiriqlarni olish mumkin. Talabalarning harakatlariga, bunday qurilmani simsiz tarmoqqa ulash usullari va parametrlariga qarab, uning ekranida o'qituvchi yoki talabalarning o'zlari tomonidan oldindan tayyorlangan turli xil markerlar hosil bo'ladi, ularni to'ldirilgan reallik qurilmasi o'zining dasturiy ta'minotiga kiritilgan algoritmlarga muvofiq interpretatsiyalaydi va shu algoritmlar asosida harakatlar mos amallarni bajaradi.

Qo'llanish sohasi: o'zgaruvchan ob'ektlar bilan ishlashda, o'rganilayotgan ob'ektlar va jarayonlar o'zgaruvchanligida invariant o'qitish vositalaridan foydalanish zaruratida.

DOI: 10.36078/1653410391

4-usul. Virtual va real ob'yektlarni birgalikda qo'llash. Eng samarali va indikativ, lekin amalga oshirish murakkabroq usul. Ushbu usul doirasida real ob'yektlarda to'ldirilgan axborotlar qatlami, qoidaga ko'ra, diagrammalar, sxemalar, ishlash tamoyillari va ko'rsatmalar aks ettiriladi. Mos topshiriqlarni tayyorlashning murakkabligi shundaki, bunda real o'rganish ob'yekti (yoki uning fizik modeli) mavjud bo'lishi va bundan tashqari to'ldirilgan reallik tizimi aniq bir ob'yektga moslashtirilishi shart bo'ladi. Bunday "moslashtirish" yetarlicha aniq bo'lishi lozim. to'ldirilgan reallik qurilmalari uchun ular asoslanadigan, "tanib oladigan" markerlarni yaratish ham nisbatan murakkabroq jarayon hisoblanadi. Biroq, bu usul yanada ko'proq tafsilotlarni berishi va teginish, his qilish yordamida o'rganishni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishi mumkin, chunki bunda haqiqiy ob'ekt asos qilib olinadi. Bundan tashqari, tavsiflangan usul sxemalar va real ob'ektlarning eng qulay va tushunarli kombinatsiyasini ta'minlaydi. Shunday qilib, talaba bir ob'ektning bir nechta semantik tomonlarini darhol anglay oladi.

Ushbu metodga asoslangan amaliy mashg'ulotlarda talabalar uchun topshiriqlarga misol sifatida kompyuterda tizimli blok yoki ona platani o'rganish bo'yicha topshiriqlarni qarash mumkin. Qo'lida real platani ushlab turgan talaba to'ldirilgan reallikning visual vositalari yordamida nafaqat plataning tashqi ko'rinishini ko'rishi, balki unda turli xil elementlarning qanday joylashganligi va ular bir-biri bilan qanday bog'langanligini ham ko'rishi mumkin.

Qo'llanish sohasi: murakkab ob'yektlarni o'rganish uchun qo'shimcha materiallardan foydalanish zaruratida, joriy vaqtda foydalanish imkoniyati mavjud bo'lmagan yoki chegaralangan qo'shimcha ob'yektlarni qo'llashga ehtiyoj tug'ilganida, masshtabini o'zgartirish yoki ob'yektning ichki tuzilishini "ko'rib chiqish" zarurati tug'ilgan holatlarda.

Ob'ektni joylashtirish nuqtai nazaridan to'ldirilgan reallik texnologiyasi yordamida o'rganishning barcha to'rtta usuli ob'ektga bog'liq yondashuvga va tasvirlardan foydalanishga asoslanadi. Marker texnologiyasi ushbu tadqiqot doirasida tegishli ilovalar uchun asos sifatida tanlangan, chunki bu bizga vazifani soddalashtirish va uning oddiy shakllarni tanib olish imkonini beradi.

Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari ta'lim oluvchilar uchun ob'yekt haqida axborot beruvchi eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki bu texnologiyalar yordamida o'rganuvchilar nafaqat ko'rish, eshitish orqali balki his qilish orqali ham virtual olamni real voqelik bilan bog'liqlikda o'rganadilar. Lekin shuni ham hisobga olish kerakki, tadbiq qilishdagi kamchiliklar foydalanuvchilarning qiziqishlari va ularning ushbu texnologiyalarga munosabatiga negativ ta'sirini ko'rsatishi mumkin. AR ilovalarini yaratish uchun ARToolKit, ARKit, ARCore, Vuforia va kroosplatformali Unity dvijoklari

 DOI: 10.36078/1653410391

kabi dasturiy to‘plamlardan foydalangan holda, to‘ldirilgan reallikning eng oxirgi innovatsion yechimlari bilan yuqori sifatli dasturiy ta’minotlar yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Вайндорф-Сысоева, М.Е. Организация виртуальной образовательной среды: теория и практика [Текст] : моногр. / М.Е. Вайндорф-Сысоева. – Germany: LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH & Co. KG, 2011. – 368 с.
2. Tangirov K. E., Jomurodov D. M., Murodkasimova S. K. The importance of e-learning and e-learning resources in individualized learning //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 3. – С. 464-469.
3. Umarova N.R., Umarova N.A. Predikat va kvantorlar ishtirok etgan mulohazalarga doir ba`zi ma`lumotlar. Valentina Andriyanovaning pedagogik o‘qishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar to‘plami. 11.02.2022, 257-260 betlar.

MASOFAVIY TA’LIMNING SAMARASINI OSHIRISH UCHUN AYNI VAQT REJIMIDA “ONLINE DOSKA” PLATFORMALARIDAN UNUMLI FOYDALANISH

B.B. XIDIROV
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. O‘qituvchini doskasiz tasavvur qilish qiyin. Onlayn rejimida zamonaviy onlayn doskalar yordamga keladi. Ular orqali ham rejalashtirish joyi, ham o‘quv materialini vizualizatsiya qilishni tushuntirish vositasi va aqliy hujum usuliga aylanishi mumkin va rejalashtirish, har qanday g'oyalarni muhokama qilish va eng muhimi, talabalar bilan hamkorlik qilish, shu jumladan video konferentsiyalar paytida juda mos keladi.

Annotation. It's hard to imagine a teacher without a board. In online mode, modern online boards come to the rescue. Through them, both planning space and visualization of learning material can become a means of explanation and a method of brainstorming, and are very suitable during planning, discussing any ideas and, most importantly, collaborating with students, including video conferences.

 DOI: 10.36078/1653410391

Ko‘pchilikka ma’lumki “Coronavirus pandimiyasi” ko‘pchilikni masofadan ishlashga majbur qildi va qaysidir ma’noda onlayn platformalardan ko‘proq foydalanishni tezlashtirib yubordi. Bu ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham ko‘p imkoniyatli online platformalarga ehtiyoj ortib bordi. Hozirgi kunga kelib “pandimiya” sal yengillashgan bo‘lsa hamki, online platformalarga bo‘lgan ehtiyoj kamaygani yo‘q, chunki turli interaktiv xususiyatga ega bunday platformalar ishning jozibasini, onlayn darslarni nazarda tutganda an’anaviylikdan voz kechib(leksiya,og’zaki savol javoblar, doska,bo‘r…), darslarni turli o‘yinlar asosida samarasini oshirishga imkon yaratadi. Quyida darslarni tashkil etishda “onlayn doska” platformalari haqida va ulardan maqsadli foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar keltiriladi.

Doskaning bo‘sh joyiga turli xil ranglarda chizishingiz, chiziqlar qalinligini tanlashingiz, eslatma qo‘shishingiz mumkin. Bularning barchasini planshet yoki mobil telefonda sichqoncha bilan ham, barmoq bilan ham qilish oson.

Quyida biz ko‘rib chiqishga kiritgan barcha dasturlar uchun onlayn darslarni boshlashning asosiy funktsiyalari bepul, ammo to‘liq funksiyalar oylik to‘lov evaziga mavjud bo‘lgan elektron onlayn doskalar bilan tanishib chiqamiz. Shu bilan birga, ba'zi saytlar o‘qituvchilar va talabalar uchun maxsus tarif taklif qiladi.

1. **AWW board**



Bu virtual doskaga kirish juda oddiy - to‘g'ridan-to‘g'ri brauzerdan hech qanday ro‘yxatdan o‘tmasdan foydalanish mumkin. Siz boshqa ishtirokchilarni maxsus havola yoki QR kod yordamida taklif qilishingiz mumkin. Ammo bepul rejada mehmonlar soni cheklangan. Doimiy ro‘yxatdan o‘tish sizga doskani kelajakda foydalanish uchun

DOI: 10.36078/1653410391

saqlashga imkon beradi, ammo agar siz buni qilishni xohlamasangiz albatta, unda ish natijasini rasm yoki PDF sifatida yuklab olishingiz mumkin.

3. **MIRO** (loyiha ishi uchun ideal)
4.



Erkin qo‘lda chizish mumkin va dasturda ajoyib ishlaydi, lekin bu erda eng muhim narsa emas. Miro foydalanuvchilarga rejalashtirish yoki aqliy hujumni tuzish va tashkil etishda yordam beradigan andozalar tanlovini taqdim etadi. Masalan, aqliy xaritalarni chizish, loyihalarni boshqarish va agile texnologiyalaridan foydalangan holda rejalashtirish uchun shablon mavjud, siz jamoa bilan muloqot qilish uchun chat qo‘shishingiz mumkin.

3. **Whiteboard Fox** (oddiy, ammo ishonchli funksionallik)

DOI: 10.36078/1653410391

Whiteboard Foxni sozlash ham oson va u darhol saytdagi havola orqali kirish imkoni mavjud. Bu qutidagi matematik daftarning varag'iga o‘xshaydi, bu silliq yozish va chizishga yordam beradi. Hammasi juda oddiy va funktsiyalar faqat asosiy - chizish, o‘chirish, navigatsiya qilish va chizilganni bekor qilish. Matn va tasvirlar qo‘llab-quvvatlaydi va "hammasini nusxalash" tugmasi sahifadagi hamma narsani ushlab, uni vaqtinchalik xotiraga nusxalashni osonlashtiradi. Funktsionallik unchalik ko‘p emas, lekin chizilganligi tabiiyligi va aniqligi sezilib turadi.

4. **Webwhiteboard** (video chatga yaxshi integratsiyalangan)



Fox Whiteboardda bo‘lgani kabi, **Web Whiteboard** ham tezkor kirish va foydalanish qulayligi, shuningdek, hamkorlikka oson taklif qilish imkoniyati uchun mo‘ljallangan. **Google Hangout** messenjerining foydalanuvchilari ushbu maxsus ilovaning to‘g'ridan-to‘g'ri video chatga qulay integratsiyasini yaxshi ko‘radilar.

DOI: 10.36078/1653410391

5. **Conceptboard** (konferentsiyaga mezbonlik qilish)



Conceptboardda siz o‘zingizning ta'lim va ijtimoiy loyihalaringizni ham boshqarishingiz mumkin. Foydalanuvchilar tasvir va fayllarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri doskaga kiritishi mumkin, bu yerda boshqalar chizish, yozish, eslatmalar biriktirish va “vizual hamkorlik” qilishlari mumkin.

6. **Twiddla** (deyarli brauzer kabi)



Twiddla kompaniyasining asosiy faoliyati tasvirlar, fayllar va veb-sahifalar bilan almashish va hamkorlik qilishdir. Agar siz loyihalarni rejalashtirishni yoki uzoq muddatli

DOI: 10.36078/1653410391

aqliy hujum mashg'ulotlarini o‘tkazishni rejalashtirmoqchi bo‘lsangiz, boshqa variantni tanlash yaxshidir.

7. **GroupBoard** (saytga joylashtirish)



Minimal o‘rnatish vaqtiga ega bo‘lgan bir xil ulanish tamoyillari **Groupboard**ni tavsiflaydi va kengash foydalanuvchilariga administrator boshqaruvlarini sozlash imkonini beradi, shuning uchun siz kirish darajasini sozlashingiz mumkin. O‘rnatilgan video chat to‘g'ridan-to‘g'ri ilovaning o‘zida (lekin bepul emas) tezkor suhbatlar uchun qo‘l keladi.

8. **Ziteboard.**



DOI: 10.36078/1653410391

Kengash vizual kontentni almashish, prototiplar va eskizlarni chizishga qaratilgan. Bu foydalanuvchilarga barcha kontentni taqdimot rejimida namoyish qilish imkonini beradi.

9. **Limnu**.



Limnu markerning harakatlarini juda yaxshi onlayn tarzda taqdim etadi, markerlar bilan doskada yozishning vizual va deyarli haqiqiy harakatlarni takrorlaydi.

10. **Scribblar**.



Scribblar ko‘p yillardan buyon ta'limga e'tibor qaratib keladi, lekin uning bepul rejasi yo‘q, faqat siz cheklangan vaqt davomida funksionallikni sinab ko‘rishingiz

DOI: 10.36078/1653410391

mumkin. Biroq, u eskirgan Flash texnologiyasidan foydalanadi, shuning uchun brauzer uning to‘g'ri ishlashi uchun maxsus ruxsat berishi kerak bo‘ladi.

11. **Sketchboard**



Sketchboard ko‘proq ijodiy darslar uchun mos bo‘lib, mavzular, ob'ektlar va jarayonlarni tasvirlash uchun turli xil piktogrammalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Rasmlarni doskaga sudrab olib borish mumkin, so‘ngra asboblar paneli o‘lcham va rangni o‘zgartirish yoki matn qo‘shish uchun ishlatilishi mumkin. Xizmatdan foydalanish juda oson, shu bilan birga siz shunchaki tayyor echimlardan foydalanmasdan, qo‘lda chizilgan diagrammalar, tasvirlar va eskizlarni ham birlashtirish imkonini beradi.

12. **Ryeboard**

DOI: 10.36078/1653410391



Eng qulay taxtalardan biri, chunki u sudrab tashlash funksiyasidan foydalanadi (sichqoncha bilan elementni tezda ushlab, qo‘shimcha tanlovlarsiz ko‘chirish qobiliyati). **Ryeboard** uch turdagi raqamli doska elementlaridan foydalanadi.

13. **BitPaper**



Ushbu xizmat interaktiv doska interfeysini sozlash, xususan, to‘rni yaratish va o‘zgartirish imkonini beradi. BitPaper, xuddi Twiddla kabi, formulalar qo‘shish imkonini beradi. Aks holda, taxta interfeysi oldingi misollar bilan deyarli bir xil, o‘lchagich bo‘ylab chiziqlar chizish qobiliyati va umuman, juda minimalistik va chalg'itmaydigan dizayn bundan mustasno.

DOI: 10.36078/1653410391

Demak xulosa qiladigan bo‘lsak, imkoniyatdan unumli foydalangan holda onlayn darslarni tashkil etishda yuqoridagi kabi onlayn doskalarda ishlash dars unumini oshirishga, offlayn darsni tashkil etgandek, real vaqt jejimida interaktiv usullarni qo‘llagan holda qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Qaysidir ma’noda kerak bo‘lsa an’anaviy qarsdan foydaliroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. D. Tojiboyeva, A. Yo‘ldoshev. Maxsus fanlami o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: «Aloqachi», 2009, 568 bet.
2. R. Mavlonova, O.To‘rayeva, K. Xoliqberdiyev. «Pedagogika». T.: 0‘qituvchi, 2019, 185-bet.
3. https://www.atlassian.com/confluence
4. https://www.joysboard.com/**whiteboard**/wiseboard

MASHINA TARJIMA TIZIMLARI VA NUTQ TEXNOLOGIYALARI

Nilufarxon Botirjon qizi YAXYO‘PULATOVA
2-kurs talabasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
nilufarbotirovna2@gmail.com
Ilmiy rahbar: Sh. O‘ljayeva

Annotatsiya. Mashina tiliga tarjima (MT) - bu kompyuter dasturi orqali bir tildan boshqa maqsadli tilga matnni avtomatik ravishda tarjima qilish jarayoni. Ushbu maqolada tabiiy tillarni qayta ishlash, sun'iy intellekt, mashina tarjimasi tizimi va nutq texnologiyasi sohasidagi yutuqlar, kamchiliklar va muqobil yechimlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: ekvivalent so‘z, ma’no uyg‘unligi, avtomatik ishlov berish, muvofiqlik, lingvistik lug‘at, axborot manbai, tahlil.

Annotation. Machine language translation (MT) is a process of automatically translating text form one language to a another target language by computer program. This article discusses the achievements, shortcomings and alternative solutions in the field of natural language processing, artificial intelligence, machine translation system and speech technology.

Keywords: equivalent word, harmony of meaning, automatic processing, compliance,

DOI: 10.36078/1653410391

linguistic dictionary, source of information, analysis.

Аннотация. Машинный перевод (МП) — это процесс автоматического перевода текста с одного языка на другой целевой язык с помощью компьютерной программы. В данной статье рассматриваются достижения, недостатки и альтернативные решения в области обработки естественного языка, искусственного интеллекта, систем машинного перевода и речевых технологий.

Ключевые слова: эквивалентное слово, гармония значения, автоматическая обработка, соответствие, лингвистический словарь, источник информации, анализ.

The translation approach based on linguistic rules can be used by machine translation systems. Ones from the target language are simply substituted for the most acceptable words from the originating language. Speech technology is a form of computing technology that allows a system to identify, analyze, and comprehend spoken word or audio. This is usually accomplished by entering digital sound signals and matching their patterns against a library of previously stored patterns. Since the 1950s, one of the first uses of computing power has been machine translation. Unfortunately, sophisticated tasks were far more demanding than the first computer computations, which required a tremendous amount of processing power and a level of performance far beyond the capability of the first machines. In 1933, the French inventor J. Arsruni and the Russian inventor P. P. Smirnov-Troyansky separately proposed the notion of machine translation. However, it was mostly created in the 1940s and 1950s. The two most common machine translation engines are Rule based and Statistical. They process and analyze text in different ways, however they're frequently mixed in the same system, which is known as Hybrid MT. 1. Rule based machine translation (RBMT) RBMT (rule-based machine translation) makes use of linguistic data from the source and destination languages. The most typical applications for it are dictionaries and grammar systems. 2.Automatic statistical translation. Statistical machine translation (SMT) creates translations based on multilingual text corpora, such as the Canadian Hansard corpus or the European Parliament's record. 3. Example-based machine translation. Machine translation that employs a bilingual corpus containing parallel texts as its major knowledge base at run-time is known as example-based machine translation. 4. Hybrid Machine translation. In a single machine translation system, hybrid machine translation employs various machine translation techniques. It incorporates rules as well as statistics. Machine translation necessitates text analysis in order to translate it, which entails studying it from a morphological and syntactic standpoint. The machine translation system requires five types of data: linguistic support (automatic dictionaries that provide grammatical and

 DOI: 10.36078/1653410391

semantic information for text analysis and synthesis); mathematical-algorithmic software (word processing algorithms and rules for recording data and algorithms, in the correct sequence); software (translation algorithms and additional programs); and information software (information software) (in the relevant fields of science) There will be a need for a database (for example, physical words for works on physics) as well as logical assistance (methods of logical reasoning to compare the text with scientific facts). It is important to design a particular program in a machine translation system that represents the grammatical, semantic, and spelling support of the languages being translated. When necessary, a human editor is also involved. Another drawback of the machine translation system is the errors that occur when translating literary text. This is especially true when translating Uzbek works of art into other languages. because in art there are many cases of using one word instead of another and using words in a figurative sense in order to reinforce the meaning of the sentence. Despite the above-mentioned shortcomings of the system, the Machine Translation System has many advantages and it is used almost always. The machine translation system has the following benefits: 1. Quick access and fast speed. 2. Economic viability 3. Information security and protection. First of all, when we use foreign languages, we don't always have the opportunity to use a dictionary in our hands, and in today's active world, every minute counts. In which case a machine translation system, such as google, will come to the rescue. we can quickly translate the existing text and find out its meaning in a short time. This is a time advantage of machine translation. it is also cost effective to use this system. For example, if we want to translate a certain document or text into another language, a certain amount of money should be paid to translator for each page and wait. In machine translation, we translate almost free of charge, and confidentiality is maintained, because the information is translated by us, not by anyone. In conclusion, a machine translation system is a convenient and efficient method in all respects. It is necessary to create as many bases as possible from words related to all topics, which are likely to be translated into the system database, and to work on phrases, words, phrases related to more artistic translation. By this way it is possible to eliminate defects in the machine translation system. With the growing presence of artificial intelligence tools in the enterprises, speech technology has many uses in all sectors, including law, healthcare, security, finance, enterprise and personal use. Machine translation and speech recognition technologies are now a part of our daily lives, but they are still confined to very simple orders for the time being. Researchers will be able to construct more sophisticated systems that interpret conversational speech as technology progresses. The system of mashine language translation and speech technology are the essential keys for entire world.

 DOI: 10.36078/1653410391

References

1. National Encyclopedia of Uzbekistan.
2. Revzin. The basics of general and mashine translation-1964
3. Чернов Г. В. Теория и практика синхронного перевода. - 1978
4. www.memsource.com
5. www.stillmantranslation.com
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Machine_translation

СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОНТОЛОГИИ В ТЕХНИЧЕСКОМ ПЕРЕВОДЕ

Алина Игоревна ЗЕМЛЯКОВА
Магистрант 2 курса
Южный федеральный университет
Институт филологии, журналистики
и межкультурной коммуникации
Российская Федерация,
azemlyakova@sfedu.ru

Аннотация. Тезис посвящен специфике использования онтологии в техническом переводе (на основе радиотехнических статей). В нем при помощи различных подходов компьютерной обработки и анализа текстов были выявлены общие понятия терминов в радиофизике для английского и русского языков.

Ключевые слова: онтология, терминосистемы, научно-техническая литература, радиотехника, радиофизика.

Онтологией является общепринятая и общедоступная концептуализация определенной области знаний (мира, среды), содержащая базис для моделирования этой области знаний, определяющая протоколы для взаимодействия между агентами, использующими знания из этой области, и, наконец, включающая соглашения о представлении теоретических основ данной области знаний [1].

Перспективы, связываемые с онтологиями, можно поделить на следующие категории: улучшение взаимодействия; унификация обмена данными;

 DOI: 10.36078/1653410391

формализация процессов спецификации, улучшения надежности и обеспечения многократности использования систем моделирования.

Улучшение взаимодействия связывают с уже упомянутыми надеждами на уменьшение терминологической и концептуальной путаницы и неоднозначности понимания на основе осуществления следующих мероприятий:

• Создание в конкретной области человеческой деятельности унифицирующего нормативного ядра понятий, которое позволило бы достичь однозначного семантического толкования основных объектов и процессов этой области. Предполагается, что это нормативное ядро является семантической основой для порождения моделей в данной области, допускает нормативное переопределение и интерпретацию понятий ранее созданных моделей [2].

• Создание однозначно понимаемой сети отношений между понятиями нормативного ядра, допускающей исследование на этой сети динамических и статических аспектов моделируемых систем, влияния на нее различных факторов, вывод и планирование ситуаций.

• Обеспечение совместимости онтологий, разработанных различными коллективами за счет широкого использования полисинонимии и ре-транслируемости.

• Обеспечение возможности коллективной работы по согласованию и унификации онтологий и их нормативного ядра [3]. Поэтому так важно создать единую онтологию для радиотехнических терминов – в последствии и для всех научных терминов. Дело в том, что использование контекста одного и того же, с первого взгляда, научного термина в разных языках (в данном исследовании английского и русского) часто приводит к тому, что происходит подмена понятий, и вот уже электромагнитная волна является электромагнитным полем, что может являться грубой ошибкой. Для исследования данной специфики были проделаны следующие действия: 1) собрать материал исследования (научно-технические статьи по радиофизике на русском и английском языках); 2) провести анализ данных статей; 3) создать частотный словарь технических терминов на русском и английском языке; 4) сравнить полученные словари.

Собранные материалы для обработки и анализа на русском языке были взяты из открытой библиотеки Киберленинка, материалы на английском языке были взяты с сайта https://www.ieee.org/ – Международная некоммерческая ассоциация специалистов в области техники, мировой лидер в области разработки стандартов по радиоэлектронике, электротехнике и аппаратному обеспечению вычислительных систем и сетей.

 DOI: 10.36078/1653410391

Исследование специфики употребления радиотехнических терминов

Данные статьи собирались на основе ключевых тем, которые были выбраны для обоих языков, и при сборе данных использовался поиск по ключевым словам на сайтах, указанных ранее. Общими терминами является «волновод» и «антенна». Для дальнейших исследований все тексты были предобработаны, для исследований, приведенных в данной работе, было важно использовать первоначальный вид текста. С помощью встроенных функций Word и Блокнот были найдены следующие зависимости:

Частотный словарь радиотехнических терминов для двух языков:

Русскоязычный термин	**Кол-во употреблений**	**Англоязычный термин**	**Кол-во употреблений**
Антенна Вивальди	4	Vivaldi antenna Vivaldi antenna arrays	1 5
Антенная решетка	33	antenna array	103
Антенна	88	antenna	258
Волновод	82	waveguide	237
Круглый волновод	5	circular waveguide	21
Прямоугольный волновод	10	rectangular waveguide	40
Антенна бегущей волны	1	-	-
Линейная антенна	4	-	
Антенна вытекающий волны	1	-	-
Псевдопериодический волновод	11	-	-
-	-	antenna column	9
-	-	reflector antenna	3
-	-	highgain antenna	1
-	-	dielectric slab waveguide	3

DOI: 10.36078/1653410391

Для эксперимента было выбрано одинаковое количество статей по данным тематикам для двух языков. Статьи были найдены в одних и тех же разделах науки.

Исходя из данной таблицы мы можем сделать выводы, что например, во всех собранных статьях на русском языке не было термина антенной решетки Вивальди, т.е. такое использование термина не применяют в русской научной литературе, существует антенная решетка и решетка Вивальди. Так же, исходя из количества употреблений приведенных терминов мы видим, что в англоязычной литературе употребление научных терминов более частое, в русскоязычных терминах больше внимания употребляется расчетам, а не описанию структур, в отличие от англоязычных. Так же в ходе исследования были обнаружены термины, которые используются только в одном из языков и не имеют перевода для другого. Для русского: антенна бегущей волны, линейная антенна, антенна вытекающий волны, псевдопериодический волновод. Для английского: antenna column, reflector antenna, highgain antenna, dielectric slab waveguide. Исходя из текстов статьи, можно сделать вывод о том, что есть научные термины в обоих языках, не имеющих аналогов в другом языке, и для использования данных терминов в научных статьях их невозможно описать одним словом, их описывают функционалом использования.

Список использованной литературы

1. Девятков В. В. Онтологии и их применение // Программные продукты и системы. 2000. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ontologii-i-ih-primenenie

2. Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Проектирование лингвистических онтологий для информационных систем в широких предметных областях // Онтология проектирования. 2015. №1 (15). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/proektirovanie-lingvisticheskih-ontologiy-dlya-informatsionnyh-sistem-v-shirokih-predmetnyh-oblastyah (дата обращения: 15.01.2022).

3. Лукашевич Наталья Валентинова Тезаурусы в задачах информационного поиска – М., 2010. – 396 с., ил.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROTLAR TIZIMINING TASHKIL QILINISHI

Sarvarbek Aminjon o‘g‘li G‘ANIJONOV
magistrant
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali

 DOI: 10.36078/1653410391

ganijonovsarvarbek2@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается система автоматизации в современных школах и ее требования, проблемы, решения, поколения систем автоматизации.

Ключевые слова: автоматизация, вычисления, экономичность, интегрированные системы, эволюция. Функциональная техника таминоти.

Abstract. This article discusses the automation system in modern schools and its requirements, problems, solutions, generations of automation systems.

Keywords: Automation, computing, cost-effectiveness, integrated systems, evolution. Functional technique taminoti.

Joriy asrning ikkinchi yarmida sodir bo‘lgan ilmiy – texnika inqilobi faqatgina ijtimoiy ishlab chiqarishnigina emas, balki odamlar xayotini xam o‘zgartirib yubordi. Bunday sharoitlarda hisoblash texnikasini keng qo‘llash orqali ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga bo‘lgan talabning paydo bulishi tabiiydir. Birinchi hisob mashinalarining paydo bulishi, muxandislar, olimlarni ishlab chiqarishni boshqarish jarayoniga boshqacha qarashga, avtomatlashtirilgan boshqarishga o‘tishga majbur qildi. Zamonaviy raxbar, uning psixologik imkoniyat doirasidan ancha oshib ketadigan axborot miqdorini oladi. Bunday xolda, tabiiyki, axborotni qayta ishlash orqada qola boshlaydi. Xozirgi zamonda avtomatlashtirilgan boshqarishga o‘tish shunday yul bo‘ldi. Bunda boshqarish ob’ekti jarayon, bo‘lim, tsex, ishlab chiqarish, birlashma, tarmoq, mamlakat miqyosidagi xo‘jalik bo‘lishi mumkin. Agar boshqarilayotgan jarayon sifatida texnologik jarayon ishlatilayotgan bo‘lsa, u texnologik turdagi avtomatlashtirilgan sistema, agar ishlab chiqarish iqtisodiy jarayon bo‘lsa, u tashkiliy – iqtisodiy sistema bo‘ladi.

SHuni aloxida takidlash joizki avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining rivojlani boshlang‘ich bosqichlarida an’anaviy boshqarishdan nusxa olingani uchun, uning asosida avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining joriy qilingunga qadar qabul qilingan ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy strukturasi yotar edi. Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini joriy qilishdagi muvaffaqiyatsizliklar sababini shunda deb tushuntirish mumkin. CHunki avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi ko‘pincha ungacha bo‘lgan tartibsizlikni xam avtomatlashtirar, bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarishni tashkil qilishning buzilishiga sharoit yaratar edi. SHunga qaramay, masalalarni yechishning to‘la algoritmlarini nazorat qilishga, o‘z vaqtida qarorlar qabul qilishga imkon berdi. Quyi xollarda esa bu sezilarli iqtisodiy samara berdi. Aynan ana shu 60 – yillarda avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarining birinchi avlodlari paydo bo‘ldi. Ularga kuyidagilar xos edi: yechish uchun

 DOI: 10.36078/1653410391

hisob xarakteridagi tashkiliy – iqtisodiy masalalarni tanlash, optimal yechish uchun masalalarning yo‘qligi, eski boshqarish usulini nusxalash, murakkab bo‘lmagan masalalarni yechishda o‘sha davrning eng quvvatli mashinalaridan foydalanish.

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini ishlab chiqish va ko‘llash tajribasi uni yirik birlashmalarga joriy qilish, yukori iqtisodiy samara (mexnat va ishlab chiqarishni yaxshi tashkil etish, rejalashtirish aniqligini oshirishga korxonani bir maromda ishlashini ta’minlashga, ko‘l mexnatini kamaytirishga) berishini ko‘rsatdi. SHunday turdagi avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarning o‘z-o‘zini qoplash o‘rtacha ishlash muddati ikki yilni tashkil qildi. Ancha miqdorda tarmoq miqyosidagi avtomatlashtirilgan sistemalar yaratildi. Ularda sanoat tarmog‘i avtomatizatsiya ob’ekti deb qaraldi. Boshqaruvchi ob’ekt sifatida tarkibida axborot hisoblash markazlariga ega bo‘lgan vazirlik bo‘limlari xizmat qildi. Istiqbolli rejalashtirish, kapital qurilish, tarmoq rivojini bashorat qilish soxalarida, shuningdek moddiy – texnika ta’minoti, moliya – buxgalter hisobi va boshqa shunga o‘xshash bo‘limlarda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Lekin bu sistemalar faqat hisob – axborot masalalarini yechish bilan cheklanib qoldilar, ularda boshqarishning yopik yo‘nalishi amalga oshirilmadi. Korxona avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bilan texnologik jarayon avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi o‘rtasida uzilishlar bo‘ldi. Bu masalalarni keyinchalik boshqarishning integrallashgan sistemalari yordamida yechish talab etilardi, bu sistemalarda tashkiliy – iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda texnologik masalalar xam yechiladi.

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini rivojlanishi bilan bir vaqtda bu sohada mutaxassis xodimlarning yetishmovchiligi sezilib qoldi. SHu davrda avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini ishlab chiqish va loyihalash sistemali masala ekanligi aniq bo‘ldi. Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini ishlab chiqish uchun boshqarishning iqtisodiy – matematik usullarini yaxshi bilish, ishlab chiqarishni tashkil qilishni a’lo darajada tasavvur qilish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish nazariyasi asoslarini, informatikani, loyihalashning zamonaviy avtomatizatsiya vositalari asosida sistemalarni loyihalashni bilish kerak. Lekin odatdagi qo‘l vositalari yordamida avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini yaratish qiyin. Ularni yaratishning katta muddatlari (besh yil) xar 7 yilda almashinib turgan hisoblash texnikasi vositalarining ma’naviy eskirish vaqtiga zid bo‘lib qoldi. Sistema faqat 2 – 3 yilgina mukammal bo‘lib qolar, bu vaqt esa yetarli emas edi. Bunday sharoitlarda avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini loyihalashning avtomatizatsiya vositalarini yaratish muammosi paydo bo‘ldi. Aloxida funktsional, texnika ta’minoti masalalarini yechish avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining dasturiy ta’minoti elementlari bo‘yicha loyiha yechimlari ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan bir kator takliflar oldinga surildi. Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarining boshlang‘ich

 DOI: 10.36078/1653410391

ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Lekin bir butun xolda avtomatlashtirilgan sistemalarning rivojlanish sur’atlari va muximi, ularning yaratilish va loyihalash sur’atlari yetarli emasligi ma’lum bo‘ldi. Sistemalarning birlashgan(integrallashgan)ligiga sistemaning texnologik jarayondan tortib, tashkiliy boshqarishgacha bo‘lgan xamma vazifalarini avtomatlashtirishga aloxida e’tiborni qaratish va keyinchalik texnologik jarayonlarni boshqarish sistemasini avtomatlashtirishni rivojlantirish kerak edi.

Boshqarish sistemalarining rivojlanish evolyutsiyasi quyidagicha o‘tadi: ma’lum bir bosqichlarda avtomatlashtirilgan boshqarish eng yuqori bosqich deb qaraldi, lekin qonunlarni o‘rganish va o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra boshqarish insondan avtomatga o‘ta boshlaydi va avtomatlashtirilgan boshqarish o‘z o‘rnini avtomatik boshqarishga bo‘shata boradi. Shu ma’noda avtomatlashtirilgan boshqarishning intilish chegarasini avtomatik boshqarish, deb tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдукадыров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: Дис. … док. пед.наук. Ташкент: ТГПИ, 1990. – 360 с.

2. Эргашев О. М., Эргашева Ш. М. Регулярные алгоритмы коррекции динамической погрешности средств измерений //Universum: технические науки. – 2020. – №. 2-1 (71).

3. Anvarova N.A. Kasb-hunar kollejlarida kimyo darslarini kompьyuter texnologiyalari asosida o‘tish metodikasi: Ped.fan.nomz. ... dis. avtoref. –T.: TDPU. 2007. -22 b.

4. Арушанян О.Б. Практикум на ЭВМ по вычислительным методам. Численное решение нелинейных уравнений. М.: МГУ, 2003.-37 с.

5. Архангельский А.Я. C++ Buider 6. Москва “Издательство Бином” 2002.

PARALLEL KORPUS MASHINA TARJIMASINING LINGVISTIK RESURSI SIFATIDA

Gulshoda Asliddin qizi SHAMSIYEVA
Jurnalistika fakulteti 1-bosqich magistranti
O‘zbekiston Milliy universiteti
shfazik.fs@gmail.com

DOI: 10.36078/1653410391

Annotatsiya. Tezis Parallel korpusning avtomatik tarjima uchun ahamiyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, parallel korpusning turlari, ularning tadqiqi haqida so‘z boradi. Shu jumladan, olimlarning fikrlari tahlil etilib, mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti va Parallel korpusga asoslangan mashina tarjimasining amaliyotda qanday ijobiy natijalar berishi masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Parallel korpus, aligned (not aligned) corpora, ikki va ko‘p tilli parallel korpuslar.

Parallel korpus yoki Parallel corpora – parallel tarjima matnlarining elektron analogi bo‘lib, ko‘plab “original matn va ularning bir necha tarjimasi” qismlaridan iborat bo‘ladi. Parallel korpus matnning asl holati va uning tarjimasidan tashkil topadi. Parallel korpusning qiymati uning hajmi, tillarning miqdori bilan belgilanadi deyish mumkin. Jahon tilshunosligida Parallel korpusning tuzilishi, tarkibi va imkoniyati haqidagi ma’lumotlarni D.O.Dobrovolskiy, Yu.Tao, V.Zaxarov, A.A.Kokoreva, E.P.Sosina singari olimlarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Parallel korpusning quyidagi turlari mavjud:

- ko‘p tilli korpus (Multilingual Corpora);
- tarjima korpus (Translation Corpora).

Tuzilishi va matnlarning joylashuvi, birliklarining moslashtirilishiga ko‘ra parallel korpus ko‘rinishi quyidagicha:

- bir yo‘nalishli (masalan, ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan matn);
- ikki yo‘nalishli (masalan, ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan matn va rus tilidan ingliz tiliga (teskari tarjima));
- ko‘p yo‘nalishli (masalan, ingliz tilidan rus, nemis, fransuz tillariga tarjima qilingan matn)

Korpuslar tarkibidagi material tiliga ko‘ra, dastlab, *bir tilli* va *ko‘p tilli* korpus turlariga bo‘linadi. Ikki yoki ko‘p tilli korpuslar esa quyidagi ko‘rinishga ega:

- parallel yoki tarjima korpuslari;
- qiyosiy korpus.

Bir mavzuga oid ikki tildagi matnli korpuslar “parallel korpus” (parallel corpora) deb nomlanadi. Parallel korpusning bunday turi ma’lum bir tarjimaning turli aspektini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Bunday korpuslar o‘z navbatida yana 2 turga bo‘linadi:

- muqobil (aligned)
- moslanmagan (not aligned)

 DOI: 10.36078/1653410391

“Muqobil” atamasi korpusda tarjima birliklari orasida bir-birini taqozo etuvchi aniq aloqa mavjudligini bildiradi. Bunday korpusda gapning qanday tarjima qilinganini tez toppish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bu turdagi korpus tarjimon uchun ahamiyatli bo‘lib, unda noyob resurs − “tarjima xotira”si (translation memory) mavjud.

Ko‘p tilli “muqobil” korpus namunasi sifatida Yevropa Ittifoqining Acquis Communautaire ma’lumotlar bazasini keltirishimiz mumkin. Acquis Communautaire – dunyodagi eng katta parallel korpus hisoblanib, unda kam uchraydigan tillar juftiligi ham mavjud va foydalanish bepul.

Avtomatik tarjima uchun bu turdagi korpuslardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- tipik tarjima usullari, transformatsiyani yuzaga keltirish;
- avtomatik tarjima tizimi statistikasini o‘rganish;
- bir va ko‘p tilli lug‘atlar yaratish;
- ma’lumotni saqlash, uzatish dasturlarini o‘rganish, baholash;
- tarjimaning to‘g‘riligini avtomatik tarzda tekshirish;
- ekvivalent tanlash imkoni kengligi orqali tarjimon mehnatini osonlashtirish.

A. Axmedova tomonidan “Parallel korpusda o‘xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari tadqiqi (inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha inglizcha matnlar asosida)” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan (2022) dissertatsiyasida tarjimashunoslikda ikki yoki ko‘p tilli parallel korpuslar uchun katta hajmdagi lingvistik ma’lumotlar bazasi va tarjima lug‘atlarni tuzish istiqbolida tabiiy tilni qayta ishlash, mashina tarjimasi va korpusga asoslangan tarjimashunoslikning ilmiy-nazariy muammolarini chuqur o‘rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlab o‘tilgan [1].

F. Bakiyev “Milliy korpusga asoslangan tarjima” maqolasida bir qancha olimlarning tarjima va parallel korpus haqidagi fikrlarini tahlilga tortgan. Jumladan, S.Bernadini va bq.larning “Tarjimani o‘rgatishda korpus: Kirish” (2003) asarining “Tarjimonlarni tayyorlashda korpusdan foydalanish” bo‘limida “bu sohada terminlar barqaror emas”ligini ta’kidlab, korpus tipologiyasi va uning har bir turidan foydalanish haqida o‘z xulosalarini berishgan [2]. Asarda korpusning 3 turi muhokama qilingan:

1. Bir tilli korpus. Bu korpusdan tarjimon o‘zi tarjima qilgan so‘z birikmalari va boshqa til birliklarini to‘g‘ri va tabiiy chiqayotganligini tekshirishda foydalanadi. Ingliz tiliga tarjima qilayotganlar uchun Britaniya milliy korpusi (British National Corpus), Ingliz tili Kobild banki (Cobuild Bank of English) kabilar ma’lumotlar zahirasi bo‘lib xizmat qiladi.

DOI: 10.36078/1653410391

2. Qiyosiy ikki tilli korpusda asliyat tillarining bir biriga o‘xshash matnlari to‘planadi. Bunday korpus ikki tildagi bir sohaga oid matnlar ichidan tegishli termin va ekvivalentlarni aniqlashda juda samaralidir.

3. Parallel korpus asliyat va tarjima matnlaridan iborat bo‘lib, tarjimon tomonidan qo‘llanilgan metodlarni aniqlash va turli tarjimashunoslik tadqiqotlarini olib borish imkonini beradi. [2]

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda parallel korpusning mashina tarjimasi uchun muhim ekanligini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- korpusda professional yo‘naltirilgan yozma manbalar mavjud bo‘lib, unda zamonaviy professional leksika namunalarin uchratish oson;
- korpusda asl manba va uning boshqa tilga tarjimasi mavjud;
- korpus o‘rganilayotgan tildan ona tiliga yoki aksincha, ona tilidan o‘rganilayotgan tilga tarjima qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- korpusda ilmiy uslubda yaratiladigan janr namunalari to‘planadi, shu sababdan ilmiy uslubda tarjima qilish ko‘nikmasini parallel korpusdan foydalanish orqali shakllantirish mumkin;
- “Tarjima korpuslari” (translation corpora) ayni bir fikrning turli tildagi ifodasini o‘rganishda muhim sanaladi;
- Parallel korpus tarjima matnida sinonimik qatordagi so‘zlardan qaysi birini qo‘llash o‘rinli ekanini aniq ko‘rsata oladi. Tarjimada ma’lum bir so‘zning ekvivalentini toppish, ularning sinonimlaridan birini tanlash muhim masala hisoblanadi. Sinonimlarni qo‘llashda turli tarjima matnlari kuzatiladi, sinonimik qatordagi so‘zning valentlik imkoniyati, valentlikdagi chastotasi aniqlanadi va aniq xulosaga kelinadi. Agar bitta so‘z turli tarjimada turlicha keltirilganligi korpus yordamida statistik usul bilan aniqlansa, demak, bemalol bu leksemaning lingvospetsifik xarakterli ekanligi haqida xulosa qilish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedova A. “Parallel korpusda o‘xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari tadqiqi (inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha inglizcha matnlar asosida): Doctor of Philosophy (PhD). aftoref.” (2022).

2. Bakiyev F. Corpus based translation studies. VI International Conference on Computer Pocessing of Turkic Languages. “TurkLang – 2018”

3. Abduraxmonova N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

 DOI: 10.36078/1653410391

4. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.
5. Abdurakhmonova N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03)

FST (FINITE STATE TRUNSDUCER) – CHEKLI AVTOMAT TRANSYUTERI VOSITASIDA KORPUSNI LEMMATIZATSIYA VA TOKENIZATSIYA JARAYONLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Zulfiya Shokirjonovna SHARIPOVA
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
zulfiyasharipova35@gmail.com

Annotatsiya. Tezis kompyuter va korpus tilshunosligida korpus texnologiyasi, korpusshunoslik, korpus lingvistikasi bo‘lib, unda kontent-analizning dasturiy vositalari va ulardan qanday foydalanish mumkinligi haqida so‘z boradi. Shu jumladan, matnlarning miqdoriy va sifatiy tahlili qanday qilib kompyuter lingvistikasi usullari vositasida amalga oshirilishi va uning ahamiyati hamda amaliyotda ishlatilishi masalalarida bir qancha olimlar ishlari, NLP va korpus metodlari, UdPipe metodi orqali CONLL-U format namunasida o‘zbek tilining sintaktik modellari tahlil qilinadi .

Kalit so‘zlar: korpus lingvistikasi, kompyuter leksikografiyasi, tahrirlovchi dastur, nutqiy sintezator, lingvostatistik, matn tahlili, miqdoriy tahlil, sifatiy tahlil, yozma manbalar, lug‘atlar, avtotarjimonlar.

Dunyo kompyuter lingvistikasi integrallashgan soha sifatida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda qator usullar va metodlar orqali til muammolarini hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Kompyuter texnologiyalarining til rivojiga va aksincha, til texnologiyasining kompyuter texnologiyalariga ijobiy ta’siri orqali qator ilmiy yutuqlarga erishildi. Jahonda kompyuter lingvistikasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi.

Buning natijasida fanning mashina tarjimasi, korpus lingvistikasi, kompyuter leksikografiyasi, tahrirlovchi dastur, nutqiy sintezator, lingvostatistik tahlil qiluvchi dastur, matnlarni referatlash va tasniflash kabi qator yo‘nalishlari vujudga keldi.

 DOI: 10.36078/1653410391

Jahon kompyuter va korpus tilshunosligida korpus texnologiyasi, korpusshunoslik, korpus lingvistikasi va korpusga asoslangan yondashuv kabi yo‘nalishlarga doir izlanishlarda quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: zamonaviy ingliz tili, qadimgi ingliz tili, zamonaviy xorijiy tillar, kam sonli tillar, xavf ostida qolgan tillarni korpus yordamida o‘rganish va NLP va korpus metodlari ishlab chiqilgan, korpusning konkordans, tokenayzer, stemmizator, lemmatizator yaratilgan (Lankaster universiteti, Buyuk Britaniya); korpusga asoslangan diskurs tahlilga doir tadqiqotlar bajarilgan (Birmingem universiteti, Buyuk Britaniya); korpus menejerlari interfeyslari joriy etilgan (Vaseda universiteti,Yaponiya, Iova universiteti, AQSH);sintaktik annotatsiyalangan korpus (Penn Treebank) interfeysining formal-funksional modellari yaratilgan (Pensilvaniya universiteti, AQSH); dastlabki annotatsiyalangan Braun korpusining dastlabki varianti ishlab chiqilgan (Braun universiteti, AQSH); morfologik annotatsiyalangan korpus va morfoanalizator masalalariga doir nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan (Leypsig universiteti, Germaniya; Kolumbiya universiteti, AQSH; Abu Dabi Nyu York universiteti, Birlashgan Arab Amirligi); semantik lug‘at asosida morfologik omonimiyadan xoli korpus tahlillari olib borilgan, (Sankt-Peterburg universiteti, Rossiya); tobelanish nazariyasiga asoslangan grammatika va avtomatik usullar yordamida sintaktik razmetkalangan lingvistik korpus platformalari yaratilgan.

Dunyo tajribasida korpus yaratishning lingvistik, matematik va dasturiy tomonlari olimlarining tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Chunonchi, rus va ingliz tillari bo‘yicha korpus lingvistikasi turli sohalar kesimida V.Zaxarov, A.Sedov, A.Baranov, R.Potapova, V.Rikov, U.Frensis, N.Leontyeva, V.Martin, S.Kubler, A.Laurens, E.Etwell, S.Hunston,L.Boizou, McKenneri, J.Grafmiller, J.Grieve, N.Grum, S. Hansson, K.McAuliff.

O‘zbekistonda kompyuter lingvistikasining lingvostatistikaga oid N.Yoqubova, M.Ayimbetov, S.Rizayev, S.Muhamedov kabi olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. S.Muhamedovning P.P.Piotrovskiy bilan hammualliflikda yozgan «Инженерная лингвистика и опыт системно –статистического исследования узбекских текстов» nomli kitobida lingvistik modellar, modellashtirish va uning tamoyillari, o‘zbekcha matnlarning kvantativ tahlillari o‘rganilgan. Shuningdek, so‘nggi o‘n yillikda kompyuter lingvistikasi sohasida A.Po‘latov,S.Muhamedova,N.Abduraxmonova kabi olimlarning sohaga doir o‘quv darslik va qo‘llanmalari nashrdan chiqdi. Tilni kompyuter modellari, lingvistik ta’minotini yaratish, shuningdek, kompyuter metodlari yordamida lingvistik masalalarini yechishga yo‘naltirilgan monografik tadqiqotlar olib borilgan.

 DOI: 10.36078/1653410391

Ushbu tahliliy maqolada bir nechta disertatsiyalarning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:o‘zbek tilida ilk bor FST (finite state trunsducer) – chekli avtomat transyuteri vositasida korpusni lemmatizatsiya va tokenizatsiya jarayonlarining lingvistik tahlil bosqichlari ishlab chiqilgan hamda morfologik ma’lumotlar bazasi, morfotaktik qoidalar tizimi shakllantirilgan;korpusni sintaktik teglash va annotatsiyalashda universal tobelikm nazariyasining UdPipe metodi orqali CONLL-U format namunasida o‘zbek tilining sintaktik modellari aniqlangan; olib borilgan tadqiqotlarning amaliy ifodasi sifatida http://uzbekcorpus.uz sayti yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tili korpus menejeri (qidiruv tizimi)ning lemma,token bo‘yicha hamda n-gram modeli asosida konkordanslarning qidiruv tizimi ishlab chiqilgan; tarjima qilish algoritmi va o‘zbek tili parallel korpusining tarjima xotirasini yaratishda WordFast texnologiyasi foydalanilgan hamda o‘zbek tilining ingliz va rus tillarida tarjima birliklari muqobillarining ma’lumotlar bazasi tuzilgan; korpusni grammatik teglash bosqichida Protege dasturi orqali ontologik modellashtirish usulining ilmiy asoslari isbotlangan; korpusda qidirilayotgan so‘zning imloviy xatolarini aniqlash va unga yaqin bo‘lgan so‘zlar koeffisentini belgilashda qidiruv interfeysida ilova qilishda Djaro Winkler algoritmini qo‘llashning maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan.

Korpus texnologiyasi kompyuter lingvistikasining asosiy obyekti va predmeti sifatida matnlarni qayta ishlashda tabiiy tilning muayyan vaziyatdagi modeli vazifasini bajaradi. Tizimlashtirilgan va ma’lum me’yorlarga asoslangan tasnifiy matnlardan iborat elektron korpus lisoniy qoliplar, grammatik qoidalar, lug‘atlarni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning pragmatik va kognitiv tasviri aks etgan og‘zaki va yozma matnlar majmuasi (korpus) ontologik bilimlar bazasi, semantik va neyro to‘rlar, sun’iy intellect texnologiyasi hamda lingvoprotsessor uchun tilning lisoniy modellari yaratishda hamda nutqiy aktlarni o‘rganishda katta rol o‘ynaydi. Korpusning





qidiruv tizimi (menejeri) foydalanuvchilar hamda kompyuter lingvistikasi mutaxassislari

DOI: 10.36078/1653410391

uchun amalda qo‘llash imkoniyatlari bir-biridan farqlanadi. Har ikki subyekt uchun matn xatolarini bartaraf etishda Jaro Vinkler algoritmi va FST texnologiyasidan foydalanish inson resursi sarflaydigan vaqt va mehnatni tejash hamda o‘zbek tilining grammatik fondini yaratishda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahmonova N.Mashina tarjimasining (monografiya). –Toshkent: Muharrir, 2018 – 165 b.
2. Abduraxmonova N.Kompyuter lingvistikasi (darslik).–Toshkent: Nodirabegim, 2021 – 398 b.
3. Sharipbay A. A., Mukanova A. S., Niyazova R.S, Razakhova B.SH.,Omarbekova A.S., Abdurakhmonova N.Z. Ontologies, Semantic Technologies (Electronic textbook) – Nursultan, 2021 – P. 88

MATLAB DASTURINING GRAFIK IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Bahodir Haqnazarovich SHOVALIYEV
Qarshi davlat universiteti

Malohat Meliyevna SALAYDINOVA
Qarshi shahar 7-umumta’lim maktabi

Annotatsiya. Tezis matematik paket programmalari va uning tatbiqlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Matlab paketining grafik imkoniyatlari va ulardan qanday foydalanish mumkinligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, Matlab paketining grafik imkoniyatlari misollar va grafiklar yordamida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Matlab paketi, matematik paket programmalari, Matlabda ikki o‘lchovli grafika, Matlabda uch o‘lchovli grafika, plot buyrug’i, mesh buyrug’i, meshgrid buyrug’i.

